

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI



MAGISTRATURA BO'LIMI
5A111201 – o'zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligining bitiruvchisi

Nurmanova Salomat Tursinbayevnaning
Magistr akademik darajasini olish uchun yozgan

DISSERTATSIYASI

Mavzu: "Mustaqillik davri o'zbek lirikasida obraz va obrazlilik"
(M.Yusuf ijodi misolida)

Davlat attestatsiya komissiyasida
himoya qilishga ruxsat berildi.

Magistratura bo'limi boshlig'i:  f.f.n.dots. A.Yembergenov

Magistrant:  S.Nurmanova

Ilmiy rahbar:  f.f.d.prof. K.Quramboyev

Kafedra mudiri:  f.f.n dots. S.Matyakupov

O'zbek tili va O'zbek adabiyoti kafedralari qo'shma yig'ilishining
2020-yil 15-maydagi 4-bayonnomasi bilan himoyaga ruxsat berildi

Nukus - 2020

MUNDARIJA

Kirish.3

I BOB. MUSTAQILLIK DAVRI SHE'RIYATIDA OBRAZ VA OBRAZLILIK MASALALARI

1.1. She'riyatda lirik qahramon yaratish tajribasidan 9

1.2. She'riyatda obrazlilik 18

1.3. Lirikada adabiy-estetik qarashlarga doir masalalar.25

II BOB. MUHAMMADYUSUF LIRIKASIDA MUSTAQILLIK MAVZUSI VA VATAN OBRAZI TALQINI

2.1.M. Yusuf Vatan kuychisi.34

2.2. Shoir she'riyatida obrazlilik. 44

2.3. Oddiylikka yo'g'rilgan falsafiylik55

III BOB. MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATI QORAQALPOQ TILIDA

3.1. Lirikasi qoraqalpoq tilida 63

3.2. "Qora quyosh" va "Ko'hna quduq" dostonlari

qoraqalpoqcha ohanglarda.73

3.3. M. Yusuf she'riyatining yangi tarjimalari haqida ba'zi mulohazalar. 81

XULOSA. 92

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.97

Kirish

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanganligi va dolzarbligi.

Mustaqillikka erishgan xalqimizning iqtisodiy ijtimoiy va madaniy hayotida yangi davr boshlandi, ma'naviyat masalalariga e'tibor har qachongidan ham kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda barcha soha tarmoqlar qatori madaniyat va san'at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari rivojiga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, keyingi paytda bu soha ravnaqini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha ulkan ishlar qilinmoqda"¹. Ana shu talablar adabiy-badiiy jabhada ham yangicha badiiy tafakkur va tamoyillarni zarur qilib qo'ydi.

"Barchamizga ayonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda"², – deb yozadi Respublika Birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Darhaqiqat, adabiyot hamma zamonlarda xalq ma'naviyatining bebaho xazinesi bo'lib kelgan. Milliy-ma'naviy qadriyatlarga qaytish, ularni tiklash, zamonga moslashtirib rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Yangi milliy mafkurani shakllantirish birinchi bor kun tartibiga qo'yildi. Milliy mafkurani shakllantirish esa adabiyot va san'at masalalarida alohida ahamiyatga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Shu boisdan ham istiqlolning birinchi kunlaridan e'tiboran mumtoz adabiyotni rivojlantirish negizida milliy g'oyalarga yo'g'irilgan yangi adabiyot yaratish masalalari kun tartibiga chiqdi. Natijada, shu vazifadan kelib chiqib, har bir ijodkor oldiga muayyan vazifalar qo'yildi. Ya'ni mustaqillik g'oyalari xos va mos asarlar yaratish, hamda shu asosida xalqimizda milliy o'zlikni anglash

¹Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //Xalq so'zi gazetasi. – Toshkent, 2017 yil. 4 avgust.

² Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – B. 1112.

g'oyalarini qaror toptirish eng dolzarb masalalardam biri bo'lib turdi. Bu yo'nalishda adabiy jarayonda ko'p ishlar amalga oshirildi, yangi yangi asarlar yaratildi va ularning har biri milliy o'zlikni anglashga xizmat qildi. Bu masalalar faqat badiiy adabiyot oldidagi dolzarb masalalardangina iborat bo'lib qolmasdan, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid ham bu yo'nalishda qator amaliy ishlarni amalga oshirish zarur edi. Mustaqillik davrida yashab ijod qilayotgan shoir va yozuvchilarga metodik ko'rsatmalar berish, ijodiy jarayonning taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan konsepsiyalarni ishlab chiqish adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning muhim vazifalaridan biri bo'lib turdi. Bu jarayonga katta avlod adabiyotshunos-tanqidchilari va adabiyotshunoslari bilan birga, adabiyotshunoslikka endigina kirib kelgan yosh avlod vakillari ham hissa qo'shishi lozimligi ma'lum bo'ldi. I.Sulton, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, A.Qayumov, U.Normatov, A.Rasulov, N.Karimov, T.Mirzayev, L.Qayumov, N.Xudoyberganov va yana bir qator katta avlod adabiyotshunoslari garchi, ularning ijodiy faoliyati, asosan, sho'rolar davriga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, ular mustaqillik yillarida ham o'zbek adabiyotshunosligi rivoji uchun samarali mehnat qilishdi. O'zbek adabiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun fidokorona mehnat qilishdi. Ular bilan ketma-ket o'zbek adabiyotshunosligiga kirib kelgan B.Nazarov, N.Rahimjonov, I.Haquulov, S.Meli, H.Boltaboyev, B.Karimov, U.Hamdami, Q.Qahramonov(bu sanoqni yana istagancha davom ettirish mumkin) kabi o'rta avlod va yosh avlod adabiyotshunos –tanqidchilari izchil davom ettirdi. Ular o'zbek adabiyotining yutuq va kamchiliklarini umumlashtirib, salmoqli maqolalari, kitoblari bilan ko'zga tashlanib turdi. Bu olimlarning aksariyati shu kunlarda ham faoliyat ko'rsatmoqda, maqolalari va risolalari bilan o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari bilan shugullanmoqda.

O'zbek she'riyati sho'rolar davrida ham, mustaqillik yillarida ham adabiyotning yetakchi janrlaridan bo'lgan. She'riyat boshqa janrlarga nisbatan faolroq bo'lgan desak, xato bo'lmas. Ayniqsa, mustaqillik yillarida o'zbek she'riyati har tamonlama yuksaldi. Ham shakl, ham mazmun jihatidan rivojlanib bordi. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatini A.Oripov, E.Vohidov, Sh.Rahmon,

R.Parfi, H.Xudoyberdiyeva, O.Hojiyeva, E.Oxunova, G.Jo'rayeva, X.Sharipov, U.Azim, A.Suyun, Q.Rahimboyeva, M.Ulug'ovalar kabi shoirlar ijodisiz tasavvur qilish mumkin bo'lmasa kerak. Biz istiqlol yillarida qalam tebratgan ayrim shoirlarnigina tilga oldik. Agar ularning hammasini nomma-nom sanasak, bir necha sahifalik ro'yhat yuzaga kelishi aniq. Yuqorida tilga olingan shoirlar orasida mustaqillik yillarida juda faol qalam tebratgan o'ta iste'dodli ikki shoirni alohida ko'rsatishni istardik. Biri Rauf Parfi, ikkinchisi, Muhammad Yusuf. Ikkisi ham O'zbekiston xalq shoiri unovoni sohibi edi. Bu ikki shoir chindan ham betakror ijodiy salohiyatga ega, o'ta talantli qalamkash edi. O'zbek adabiyotshunosligida bu ikki ijodkor faoliyatini o'rganish doimo dolzarb bo'lib kelgan. Bir qator o'zbek adabiyotshunos-tanqidchilari har ikki shoir haqida mustaqillik yillarida asl haqiqatni aytib, tadqiqotlar maqolalar yaratishdi. Biz bu o'rinda B.Nazarov, I.Haqqul, N.Rahimjonov, S.Meli kabi olimlarning maqolalarini alohida qayd etib o'tishni istardik. B.Nazarovning "Hayotiylik-bezavol mezon", N.Rahimjonovning "Mustaqillik davri she'riyati", "Istiqlol va bugungi adabiyot" singari monografiyalarida tilga olingan shoirlar ijodi xususida diqqatga sazovor fikrlar aytilgan. Shunday bo'lsa-da, ayniqsa, M.Yusuf she'riyati to'g'risida hali hanuz maxsus tadqiqotlar juda kam yaratilayotgani seziladi. Shoirning betakror mahorati, obrazli fikrlash tarzi, hayot haqiqatini oddiy, lekin chuqur falsafiy yo'nalishda tadqiq qilingan ishlar nihoyatda kam, yo'q hisobi. Xususan, shoir asarlarining qardosh tillarga tarjimalari to'g'risida adabiyotshunoslikda, tarjimashunoslikda hech qanday fikr aytilgan emas.

M.Yusuf qoraqalpoq adabiyotiga adabiyotiga yaqin shoirlardan biri edi. U Qoraqalpog'istonda ko'p bora bo'lgan, ijod ahli bilan hamkorlik o'rnatgan. Orol taqdiri haqida she'rlar ham bitgan edi. M.Yusuf she'rlari, dostonlari B.Seytayev tomonidan o'girilib, "Biz baxitli bolamiz" (2004) degan nomda to'plam shaklida bosilib chiqdi. Keyingi yillarda ham K.Karimov, Sh. Ayapov, A.O'teniyazova sinari talantli shoirlar M.Yusufning bir necha she'rlarini qoraqalpoq tiliga o'girib, matbuotda e'lon qildi. Biroq hozirga qadar shoirning qoraqalpoq tilidagi tarjimalari alohida tadqiqotga mavzu bo'lgan emas. Biz mazkur mavzuni magistrlik

dissertatsiyamizga mavzu qilib tanladik. Ishimizning uchunchi bobi va fasllarida mavzuni yoritishga intildik. O'ylashimizcha, bu mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda turkiy tillardan tarjimalarni o'rganish tarjimashunoslikning orqada qolib kelayotgan muammolaridan biri. Demak, bizning bu tadqiqotimiz oz bo'lsada, manashu bo'shliqni to'ldirishi mumkin. Yuqorida aytilganlarning barchasi magistrlik dissertatsiyamizning mavzusi va asoslanganligi va dolzarbligini belgilaydigan mezonlardir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Yuqorida qisman aytganimizdek, bu mavzu B.Nazarov, N.Rahimjonovlarning kitoblarida, I.Haqqulovning matbuotda bosilib chiqqan maqolalarida, shoirlarning biror yubileylarini nishonlash munosabati bilan bosilib chiqqan tadqiqotlarida qisman o'rganilgan. H.Boltaboyev, Q.Yo'ldoshev, M.Yo'ldosheva, I.Qurbonboyev, B.Sarimsoqov, E.Ochilov kabi olimlarning o'zbek she'riyatining taraqqiyot tendensiyalari, modern she'riyatning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan maqolalarida R.Parfi va M.Yusuf lirikasiga doir fikrlar aytilgan. Ishimizda biz bu olimlarning fikrlariga munosabat bildirishga urinib ko'ramiz.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur tadqiqotimizdan ko'zlangan bosh maqsad, mustaqillik yillaridagi o'zbek she'riyatining yetakchi taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash, shoirlar, asosan, badiiylikka ko'proq e'tibor berishga, obrazli mushohada yuritishga intilgani va bu holatni R.Parfi va M.Yusuf lirikasi misolida asoslab berish. Bu ikki shoirning boshqa ijodkorlardan ajralib turadigan fazilatlarini ham –ya'ni majoziy fikrlash, oddiylik misolida katta falsafiy haqiqatlarni ochib berishga moyilligini ilmiy asoslash. Eng muhimi, M.Yusuf she'riyatining qoraqalpoq tiliga tarjimalariga baho berish, yutuq va kamchiliklarini ko'rsatish, bu jarayonning qoraqalpoq-o'zbek adabiy aloqalaridagi vositachilik rolini ko'rsatish asosiy vazifadir.

Tadqiqot obyekti. Ushbu magistrlik dissertatsiyamizning tadqiqot obyekti R.Parfi va M.Yusufning turli yillarda chop etilgan to'plamlari, ularga kiritilgan she'rlari va dostonlari. Qolaversa, M.Yusufning qoraqalpoq tiliga tarjima

qilinib nashr etilgan “ B1z baxitli bolamiz” to’plami va jurnallarda bosilgan she’rlari.

Tadqiqot predmeti. R.Parfi va M.Yusuf she’rlari va dostonlaridagi obrazlilikka qurilgan she’rlar, dostonlardagi majoziylik. M.Yusuf she’rlari va dostonlarining qoraqalpoqcha tarjimalaridagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish.

Tadqiqot usullari. Magistrlik dissertatsiyamizning mavzusi va xarakterli tipologik, qiyosiy tahlil usulini taqazo etadi. Ish davomida har ikki shoir she’riyatidagi obrazlilikdan foydalanishdagi o’ziga xosliklarni ko’rsatishga intildik. M.Yusuf she’riyatining qoraqalpoq tilidagi tarjimalarini asl nusxalariga solishtirib yutuq va kamchiliklarini ko’rsatishni nazarda tutdik. Bu masalalar barchasi qiyosiy tahlil usuli orqali amalga oshirildi.

Magistrlik dissertatsiyamizning yangiligi. Tadqiqotimizning yangiligi, avvalo, bu ikki shoir ijodi, lirikasi, birinchi marta shu yo’nalishga, ya’ni shoirlarning obrazlilikdan foydalanish mahorati ilk bora o’rganilishida. Bu masalada har ikki shoirning o’ziga xosligini ko’rsatish, birida modern yo’nalishdagi obrazlilik(R.Parfi), ikkinchisida, oddiy hayotiy haqiqatlarni sodda shaklda, lekin katta falsafiy aspektda talqin etish (M.Yusuf) xos ekanligini ko’rsatish, tahlil qilish, fikrimizcha , ishimizning yangiliklaridan biri. Ikkinchidan, M.Yusufning qoraqalpoq tiliga tarjimalari adabiyotshunoslikda, tarjimashunoslikda ilk marotaba bizning magistrlik dissertatsiyamizda o’rganilmoqda. Bu ham ishimizning muhim yangiligi deb hisoblaymiz.

Tadqiqotimiz natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqotimiz natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, kelajakda biror izlanuvchi, adabiyotda, xususan, lirikada obrazlilik masalasi bilan shug’ullansa, yoki umuman mustaqillik davri o’zbek she’riyati masalalari bilan qiziqib, tadqiqot yaratmoqchi bo’lsa, dissertatsiyamiz natijalaridagi ba’zi konsepsiyalarimizga murojaat etishi, undan foydalanishi mumkin. Ayniqsa, M.Yusuf ijodini qardosh adabiyotlar bilan aloqada o’rganishga qaror qilsa, yoki turkiy tillardan o’zaro tarjimalar muammolari bilan shug’ullansa, shoir she’rlari tarjimalari yuzasidan

ishimizdan chiqarilgan ilmiy xulosalardan foydalanishi mumkin, deb hisoblaymiz. Turkiy tillardan tarjimalar haqida M.Yusuf she'rlarining qoraqalpoq tiliga tarjimalari bo'yicha chiqargan xulosalarimizning amaliy ahamiyati shunda deb tushunamiz.

Magistrlik dissertatsiyamizning hajmi va tuzilishi. Tadqiqotimiz kirish va xulosadan tashqari uch bob va har bir bob uch fasldan iborat. Dissertatsiyamizning umumiy hajmi 97 bet. Tadqiqotimizning oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Birinchi bob

Mustaqillik davri she'riyatida obraz va obrazlilik masalalari

1.1 She'riyatda lirik qahramon yaratish tajribasidan

XX asr o'zbek adabiyotining yorqin namoyandaridan Rauf Parfi O'zturk-Sir shoiri, unvoni sohir shariyat sohibidir. Bizning bilimlarimiz bu she'riyatning zohiriy qisminigina yoritishi mumkin, chunki uni tizimlarga ayirib, aniq qoliplarga joylab bo'lmaydi. Bu – jo'n o'quvchi uchun sodda, bilimdan o'quvchi uchun qudratli a'mol bo'la biladi.

Rauf Parfi O'zturk asli nasabi farg'onalik (Vodildan) bo'lib, 1943-yilning 27-sentabirida Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani Sho'ralisoy qishlog'ida Parfi Muhammad Amin (1893-1955) va Sakina Isabek (1913-1995) oilasida dunyoga keldi. Boshlang'ich va o'rta ta'limni “ Sharq yulduzi ” (1-7-sinflar), Sho'ralisoy (53-maktab, 8-9-sinflar), Yangiyo'l shahridagi Alisher Navoiy (10-sinf kechki) maktablarida oldi. U mehnat faoliyatini matbuot qo'mitasining 2-son bosmaxonasida, tuman “Yangiyo'l” gazetasida boshladi. 1960-1965-yillarda Toshkent Davlat Dorilfununining (hozirgi UzMU) jurnalistika fakultetida o'qidi. Jumhuriyat Kino qo'mitasida muharrir, G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi targ'ibot markazida bosh muharrir, “ Jahon adabiyoti ” jurnalida adabiy muharrir bo'lib xizmat qildi.

Rauf Parfi O'zturkning “ Karvon yo'li ” (1968), “ Aks sado ” (1970), “ Tavir ” (1973), “ Xotirot ” (1974), “ Ko'zlar ” (1976), “ Qaytish ” (1981), “ Sabr daraxti ” (1986), “ Sukunat ” (1991), “ Tavba ” (2000), “ So'ngi vido ” (2005) kabi kitoblari bosildi. U Bayronning “ Manfred ”, N. Hikmatning “ Inson manzaralari ”, K. Kaladzening “ Dengiz hayoli ”, M. Xodiyning “ Alvohi intiboh ”, “ Uyg'ur shoirlari ”, “ Zaytun novdasi ”, A. Tvardovskiyning “ Xotira huquqi ” va boshqa bir qator asarlarni o'zbek tiliga o'girdi.

U shoir, nosir, tarjimon sifatida elga tanildi. Shoirning oltmish yillik hayoti va qirq yildan ortiq ijodiy-ijtimoiy faoliyati jamoatchilik tarafidan munosib

taqdirlandi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Turkiya Diyonat Vaqfining adabiy mukofotlariga sazovor bo'ldi. U Xaqaro Mahmud Qoshg'ariy mukofoti laureatidir. Unga O'zbekiston xalq shoiri faxriy unvoni berildi (1999). 2005-yil 28-martda vafot etdi.

Rauf Parfi O'zturk she'riyatining asosiy mavzuyi -bu shaxs erki, Vatan mustaqilligi va Turkiston, Turk dunyosining birligidir. XX asr turk odamining abadiy shuurini, keskin foje' ruhiyatini muqaddas turkiy tilda ifodalashga jazm etgan va murodiga yetgan jasoratli she'riyatdir.

U adib sifatida o'zgalardan farqli o'laroq qiyin, mashaqqatli, lekin Chin shoir tajallisi-la ijodining boshidan bu kunga qadar zamona zaylining achchiq shamollarida egilib bukilmadi, sinmadi (Eng buyuk hikmat – Alloh ko'ruvchidir). Asosiy mavzuyiga sodiq, e'tiqodiga sobit yashadi. Mo'min banda – befavolarga ham vafo qiladi, faqat iymonini sotmaydi. Illo, iymoni fano vodiysida ilohiy Vatan erur.

Rauf Parfi O'zturk she'riyati va shaxsiyatiga turli salbiy – ijobiy, muhabbatli bepisand qarashlar bo'lsa – da, o'quvchilarning unga qiziqishi, maroqlanishi hech qachon so'nmadi. Uning ijodiyotiga Asqad Muxtor, Shukurullo, Miraziz A'zam, Mirzo Kenjabek, Chori Avaz kabi shoirlar yuksak baho berdilar. U haqda Ozod Sharafiddin, Ibrohim G'afur, No'mon Rahimjon, Ibrohim Haqqul, Botirjon Akram, Ulug'bek Hamdam kabi taniqli olimlar tadqiqotlar, maqolalar, badialar yozdilar.

Horijda Voqif Samado'g'li (Ozarbayjon), Atner Xuzangay (Chuvashiston), Uldis Berzinsh (Latviya), Liya Seppel (Estoniya), Husayn O'zboy (Turkiya), Edvard Uorls (AQSH), Temur Xo'ja (Olmoniya), Omondurdi Annadurdi (Turkmaniston), Rene Kalandai (Gurjiston), Jak Mane (Fransiya), Viktor Susnora (Rusiya) kabi mashhur shoir va olimlar u haqda maqolalar yozdilar. Uning she'rlarini ona tillariga tarjima qildilar.

O'zbek shoirlari tomonidan unga bag'ishlangan she'rlarning o'zi bir kitob bo'ladi... Qisqacha xulosa qilib aytish mumkinki, Rauf Parfi O'zturk o'zbek adabiyotida mutlaqo o'ziga xos maktab yaratgan shoir. U o'zbek – turklarining

yuksak milliy ruhiyatini o'z she'riyati orqali tanish va tanitish uchun olis yo'lga chiqqan, hormay – tolmay borayotgan yo'l ahlidandir.

Zamondoshlarimiz bukun uni Turonning, Turk dunyosining, ulug' Turkistonning porloq shoiri, deb tan olmoqdalar.

Fasllar almashinishi tabiatning o'zgarmas qonuniyatining tabiiy jarayoni, hosilasi. Badiiy adabiyotda ham nuroniy avlodlar o'rniga navqiron nasllarning kirib kelishi ma'naviy – intellektual ehtiyoj, ruhoniyy zarurat taqozosidir. Bu badiiy estetik tafakkurda hamisha yangi did va estetik saviyalarning zohir bo'lishi demakdir. Bu – tabiat va jamiyat hodisalarini, odam va olam sir – sinoatlarini yangicha tushunish, yangi obrazlar va badiiy vosiyalar bilan tushuntirish san'ati demakdir.

Asl shoirlarning tarjimayi holi nihoyatda qisqa, taqdirlari esa g'oyat uzun bo'ladi. Tug'ilish va so'ngi nafas oralig'ida kechgan umr, bu – yorug' qismat, achchiq ko'rgulik. Tun bilan kunlarning, shom bilan tunlarning o'rin almashinishi, bu – tabiat silsilasining shunchaki odatiy bir ko'rinishi, holati emas. U ezgulik bilan yovuzlik, mutelik bilan erkin nafas, yaxshilik bilan yomonlik, adolat bilan yolg'onchilik, nur bilan zulmat o'rtasiga kechadigan azaliy va abadiy kurash, muhoraba jarayonlari. Qismat – she'riyat.

She'riyatda shoirning biron-birovdan yashiradigan mahfiy narsasi yo'q. Faqat she'rning sir – sarori bo'ladi. Bu – badiiyatga aylangan qismat. Taqdirning olov ko'zlarini ko'ngliga joylafa she'r. Rauf Parfi ilk she'rlaridanoq dunyoqarashi, ruhoniyyati ma'naviy e'tiqodi shakllangan ijodkor sifatida o'zligini nomayon qildi. “ Hasratlari dunyoning ko'pdir ”, “ Mudrar yarim kecha... ”, “ She'riyat ”, “ Tong otmoqda ”, “ Tong o'qlar otar ”, “ Targ'illanib bormoqda osmon ”, “ Termulaman olis ufqqa ”, “ Cheksiz – cheksiz daqiqalardan iboratdur ” singari o'nlab she'rlarida ijtimoiy – estetik idealining yorug' alomatlarini kuzatish mumkin. “ Bir qushcha sayraydi mening ruhimda, Men sening ismingni bilmayman qushcham...” deydi shoir “ Daryo mavjlariga yozilmish g'azal ” she'rida.

XX asrning 60-yil o'rtalari, 70-yil boshlari she'riyatga kirib kelgan, yorqin o'zligini nomayon etgan Rauf Parfi yangi, ohori to'kilmagan, kutilmagan noan'anviy majoziy (Qushcha, Chiroq, Daraxt, Nay, Nur) obrazlari bilan adabiy

jamoatchilik muhabbatini qozondi; majoziy obrazlilik asosiga qurilgan badiiy tafakkur tabiati bilan el – yurt nazariga tushdi. Rauf Parfi she’rlaridagi insonga mehr – muhabbat harorati, ishonch – e’tibor ruhi, dardchil – ma’vus va mahzun ohang, ko’z ko’rmagan, quloq eshitmagan samimiylik ko’zga surtgudek e’zoz – ehtirom topdi. Va yanayam muhimi, shoir asarlarining ijtimoiy-falsafiy mag’zi she’riyatimizda yangi yo’nalish edi. Xususan, birinchidan, hayotdan, tiriklikdan maqsad ruhni kamol topdirishdir. Ikkinchidan, ruhoniyl erkinliksiz odam o’zligini namoyon qila bilmaydi; uchinchidan, milliy birliksiz millat, xalq o’z borlig’ini saqlab qola olmaydi, degan ustuvor g’oyalari shoir she’riyatining estetik qimmatini belgilab berdi. “ Ayni orzularda, ayni qayg’ularda, ayni sevinchlarda yashamoq ” tiriklikning mohiyatidir, deb biladi u.

Rauf Parfining ilk she’rlaridan e’tiboran erk istagi va ozodlik ruhi, jamiyatdagi zulmga, ijtimoiy adolatsizlikka, tengsizlikka, nohaqlikka qarshi isyon g’oyalari yetakchilik qiladi. Shoirning 70-yillar boshida kurtak yozgan, uch ko’rsatgan ruh erkinligi, fikr erkinligi, qalb hurligi g’oyalari keyingi bosqich she’riyatimiz taraqqiyotida millatsevarlik, millatparvarlik yo’nalishining o’zak mag’zini tashkil etadi. Rauf Parfi ijodining ijtimoiy-estetik mohiyatini, salafalaridan, ustozlaridan, tengqur shoirlardan farqlanib turgan badiiyatining tabiatini belgilab beradi.

Rauf Parfining ilk she’rlarida kuzatilganidek, badiiy idrok va ifoda tarzi, tafakkur tabiati va timsolli obrazlari bilan o’ziga xos betakror uslubga ega bo’lgan shoir ko’z ochgan, o’z nuqtayi nazari bilan dunyo shevalarini taniy boshlagan, o’zligini ham dunyoga tanitishga tutingan shaxs edi. Bu – Rauf Parfi fenomeni edi.

Insonning ruhoniyl erkinligi masalasi Rauf Parfi ijodining o’zak mag’zini tashkil etadi. Shu boisdan ham shoir lirikasida tuyg’ular hayotini, kechinmalar manzarasini, holat-kayfiyatlar suratini chizish alohida tamoyilga aylangan. Shu boisdan ham uni tuyg’u-kechinmalar musavviri deyishadi. Shu ma’noda birgina “Yomg’ir emas marvarid yog’ar” satri bilan boshlanadigan she’rini ko’zdan kechirish kifoya. Yomg’ir – sharqona tasavvurlarga ko’ra qut-baraka, ilohiy ne’mat, yaxshilik va ezgulik urug’i. Unga shoirlar o’z ruhoniyl holatlari, kayfiyatlariga monand ma’nolar yuklashadi. Ya’ni har bir shoir o’z estetik

prinsiplaridan kelib chiqib, yomg'ir vositasida turfa xil badiiy-falsafiy mazmuni ifodalashga intiladi. Kimdir yomg'irda yorning ko'z-yoshlarini ko'radi. Yana kimdir yig'layotgan ko'ngilni tasavvur qiladi. Boshqa bir shoir she'rida yomg'ir bulutlarning, qop-qora qo'ng'ir osmonning yerga yo'llagan tansiq so'zlari bilan anglashiladi.

Rauf Parfi tasvirida yomg'ir – qop-qorong'u kecha shaklida. Kecha esa suv singari jildirab oqadi. Shu boisdan kecha shod va bearmon kechayotir. Boisi – bag'rida suvdek hayotbaxsh oydinlik, ertangi kunning yorug' epkini bor.

Barglarda raqs etar shabboda,
O'ynar sabo shaklida kecha,
Gullar kabi saqlaydi odob,
Afsonalar aytar tonggacha.
Kecha tepasida uchadi,
Kiprigimdan otilguvchi nur.
Menga kecha yomg'ir ichida,
Go'zal hayol kabi ko'rinur!³

Lirik qahramon kechinmalari qorong'u kechada yog'ayotgan yomg'irga esh. Undan surur, umid tuyadi. Shu ma'noda, uning nazdida, barglarda raqs etar shabboda. Hatto zimiston qorong'ilik ham sabo shaklida yoqimli, faraxbaxsh. Gullar singari himo tortib, tonggacha afsonalar aytayotgandek tuyuladi. Shu boisdan ham lirik qahramon ko'nglidan shu'la otiladi, kiprigidan nur chatnaydi. Hayol – adoqsiz bo'shliq qa'ridagi ro'yo emas. U yomg'ir ichidagi zimiston qorong'ilik. Unga ishonsa bo'ladi. Garchand qorong'ilik og'ushida esa-da, yomg'irdagi oydin shabboda epkini ertaga otajak tonglar umidini uyg'otadi.

Ko'rinadiki, timsolli, majoziy lirizm Rauf Parfi uslibining o'tli nafasi, o'zak mag'zi, deyish mumkin. Davr voqeligiga, jamiyatdagi siyosiy vaziyatga, hodisalarga, inson sha'ni-erkini, haqni oyoqosti etuvchi, adolatsizlik ko'rinishlarini yuzaga chiqaruvchi ijtimoiy zulmga qarshi tug'yon Rauf Parfi she'rlarida tuyg'ular

³R.Parfi "Sakina" Saylanma. Toshkent.2013. 18-bet.

realizmi ustuvor deyishga asos beradi. Rauf Parfi XX asr o'zbek she'riyatida fikr bilan kechinmaning sintezini badiiy san'at darjasiga ko'targan, sof tuyg'uning badiiy oqimini, qabariq majoziy ifodasini omuxtalashtirgan betakror uslub yaratdi. Bu – XX asr o'rtalaridan e'tiboran XXI asr o'zbek she'riyati taraqqiyotida alohida yo'nalish kasb etdi. Mustaqil badiiy idrok va ifoda madaniyati sifatida shakllandi. Hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirish o'zbek she'riyati taraqqiyotining barcha davrlari uchun ham bosh xususiyat bo'lib kelgan. Lekin unga erishish yo'llari ko'p, usullari nihoyatda xilma-xil. Xususan, majoziy obrazlilik haq so'zni aytishning, voqelikni realistik idrok etishning shakllaridan biri. She'rga yolg'on yot. U o'lim bilan barobar. Shoir o'zini o'limdan-yolg'ondan asrashi kerak. Shu ma'noda har bir she'rning yuzaga kelishi, bu – o'lim bilan yuzlashish demak. Har bir odam, shu jumladan, shoir ham o'zi bilan o'zi kurashib yashaydi. Ana shu jarayon – o'zi bilan kurashishning o'zi san'at, qolgan hammasi omilkorlik. Shu boisdan ham shoirning o'z jonini saqlaydigan joyi yo'q. Bu rost va yolg'on, nur va zulmat, hayot va o'lim oralig'idagi bir hovuch havo, bir chimdim nafas. Bir so'z. Uni ko'zga to'tiyo etguvchi ham, oyoqlar ostiga xazondek sochguvchi ham aslida ijodkor. So'zni shoirga Xudoning o'zi beradi. So'zini ham o'zi oladi. Bu – jonini olgani bilan barobar. Zero, o'z so'zini yo'qotish bu-shoir uchun o'lim:

Bu so'z qarshisida titrama, ey, jon.

Yuzma-yuz kelgandek go'yo o't va suv,

Yuzma-yuz keladir shoir va zamon.⁴

“Shoir bu yorug' dunyoda yashayotgan Insonning cheksiz-chegarasiz kechinmalarini so'z bilan ifofda qilguvchi shaxsdir, - deydi Rauf Parfi. –Shoir ko'zining o'rnida daryolar oqqan, yelkasida tog'lar yiqilgan, o'z tanidan chiqib ruhga aylangan zotdir!”. Uning o'z ta'biri bilan aytganda, “ Shoirmi kuylatgan – hazrati inson ”. Uning haq-huquqlari she'riyatining ham haq-huquqlari. Bu Rauf Parfi ijodiy izlanishlaridagi yetakchi xususiyat. Majoziy obrazlilik-ramzlar vositasida fikrlash madaniyati XX asrning 70-yillaridan e'tiboran o'zbek she'riyatida yetakchi tamoyilga aylandi.

⁴R.Parfi “Sakina” Saylanma. Toshkent.2013. 18-bet.

O'tgan asrning 80-yillari o'zbek tanqidchiligida badiiy tafakkurning ushbu ko'rinishi mohiyatini tushunmaslikdanmi yoki tushunishni istamaganlikdanmi "She'ringizni tushuntirib bersangiz", "Shoir nima demoqchi, she'r nima deyapti" qabilidagi maqolalar yuzaga keldi. Ularda Rauf Parfi she'rlaridagi majoziy obrazlarni, ramzlarni G'arbgga taqlidchilikda, o'ta murakkablik va mavhumlikda ayblash rasm bo'ldi. Timsolli obrazlar sərbastdagi izlanishlarida yorqinroq tajassum topgani boisdanmi, ularni G'arb she'riyatiga taqlidda ayblashdi. Vaholanki, she'rning bu shakli avvalgi ming yillikda mo'ysafid Sharqning qadimiy bitiklaridayoq mavjud ekan. Ushbu hodisa, ayrim tanqidchilar aytganidek, G'arb va Lotin Amerikasi adabiyotiga taqlidan emas, aksincha, estetik ta'sir samarasi o'laroq yuzaga keldi. Shu boisdan ham shoir o'zimizning qadimiy yozuvlarimizda o'zimizni qaytadan topdik, deydi.

Rauf Parfi estetik qarashlarining ildizlari Sharq va G'arb badiyatining mumtoz namunalaridan suv ichadi. Shu boisdan ham shoirni jahon estetiksidagi timsollar realizmiga, tuyg'ular realizmiga moyil san'atkorlar ko'proq qiziqtiradi. Shu boisdan ham shu adabiy asarlarining estetik qimmatini va ahamiyatini belgilashda ularning salohiyatini, badiiyatini bosh mezon, deb biladi.

She'r – cheksizlikning chekida tug'ilgan dunyo. Shoir ko'nglini o'rtagan og'riqli so'roqlarga voqelikdan, jamiyatdan javob izlaydi. Muayyan qiyoslar, obrazlar shu tariqa yuzaga keladi. Xususan, shaxs erki, ko'ngil hurriyati odam bilan birga tug'iladi. Erkinlik boy berilgan joyda fojea yuzaga keladi. Baxtning poydor etish ham, baxtsizlik chohiga yuz tuban yiqilish ham ruhning nechog'lik uyg'oqligi, ruhoni saodatga bog'liq.

Rauf Parfi estetikasida Turon-Turkiston mavzuyi alohida sahifani tashkil etadi. Turon-Turkiston mavzuyi miloddan avvalgi yozma adabiyotlarda ham yuz ko'rsatib kelgan. Misr-Bobil, Xitoy-Hindiston, Rum, Eron, Ovrupo, Amerika singari Turon-Turkiston, Turk Dunyosi jahon ilm-u fani, madaniyati, adabiyoti va san'ati xazinasiga o'zining munosib merosini berdi va berajakdir.

Shoirning ko'nglini, ijodini bilmoqchi bo'lsang, uning ona yurtini borib ko'r, degan hikmat bor. Shoirning Vatani-bu uning sehrli purhikmat ma'nolarni o'ziga singdirgan sirli qiyofalar dunyosi. R.Parfi lirikasida So'z, Ko'z, Qushcha, Buloq,

Daraxt, Chiroq, Xayol, Nur singari obrazlar purma'no mazmun ifodalashiga ko'ra timsolga aylanyapti. Ular Turonzamin, Turkiston xalqlarining tarixiy hayoti sahifalarini suratlantiradi. Turkiy xalqlar taqdiridagi fojiali voqealar mohiyatini aks ettiradi. Millat taqdirida o'chmas iz qoldirgan va ayni keyingi yuz yilliklarda mudragan jo'mardlik, jangarilik, qahramonlik ruhini qayta tiriltirish, oyoqqa qo'yish, faollikka da'vat R. Parfining Turon-Turkiston mavzuyidagi she'rlarining yetakchi xususiyatlaridan biridir.

So'z san'atida hamma bir-biriga shogird, lekin har kim o'z yo'lidan ketadi. O'zbek tilining ramzlarga, timsollarga boy ma'no qirralarini aks ettirish R. Parfi izlanishlarining mag'zidir. U so'zning ta'mini, hidini, rangini, bo'yoqlarini g'oyat nozik his etadi. Shu ma'noda, har bir she'ridan shoirning qaynoq, ehtirosli nafasi shundoqqina sezilib turadi.

R. Parfi she'riyatida so'z konkret ma'no tashib kelishidan tashqari, inson shaxsi va ma'naviyatidagi muayyan go'zallikni, timsolli yoki ibratli mazmuni ifodalashiga ko'ra ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. R. Parfi izlanishlarida so'zlar tabiatidagi shartlilik, kosa tagidagi nimkosa tarzida ifodalanadigan ko'chma ma'nodorlik, ayniqsa, ustivor. R.Parfining so'z ustida ishlash zahmati shundan iboratki, "So'zlar" she'rida kuzatilganidek, u "Oq binoda qalin va oq ko'rpalariga o'ranib-chirmanib, qator so'rilarda" uxlab yotgan qadimiy sozlarni uyg'otadi. Ularni yashashga, kurashga, faoliyatga safarbar qiladi. Zero, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, she'riyat muttasil yangilanib turadi. So'zlarning ma'nosiga ko'ra doimo yangilanib turishi esa uning asl mohiyatini tashkil qiladi.

"So'zlar" she'ridagi badiiy talqinga ko'ra, Inson bu-so'roq gap, undov gap, darak gap. So'zlar bizga yashamakni o'rgatar, "Bir ajab so'zlardir peshonada to'plangan ajn". Qo'llarimiz ham fikrchan So'zlar. Shu ma'noda, Turon-haddan ziyod go'zal so'z. Bu tongotaru quyoshning botishi, yo'ldagi kishi-barchasi ajayib jumalarga o'xshaydi.

Bu-olis quyoshdir kuyinib yonar,

R.Parfi she'riyatidagi poetik obrazlar va timsollarning o'ziga xosligini ular zimmasidagi ma'nolar mohiyatidan anglaymiz. Shu o'rinda, timsollar tabiatini ochib beruvchi unsurlar orasidan xarakterli ikki jihatiga to'xtalib o'tish joizdir. Xususan, bu narsa timsollar tabiatidagi botiniy va zohiruy alomatlaridir. Chunonchi, G'.G'ulomning "Sog'inish" she'ridagi o'g'lini urushga kuzatayotgan ota-bu azamat Vatan, fidoyi millat timsoliga aylangan. H.Olimjonning "O'rik gullaganda" she'ridagi bahor timsoliga aylangan o'rik gullari – ramzning zohiriy ko'rinishi. She'rni o'qigan zahoti ko'z o'ngimizda, ta'savvurimizda ana shu simvolik ma'no kasb etgan poetik belgilar yaqqol suratlanadi. She'rdagi poetik obrazlar ham u qadar murakkab emaski, aqli- shuurimizni taxayullarga, po'rtanali o'y fikrlarga chulg'amaydi. Endi, timsollarning botiniy ko'rinishi ham borki, u serqatlam, sertarmoq, tagdor, ko'chma ma'no qirralariga ega.

R.Parfi so'zning timsolli ma'no jilvalarini kashf etishda o'ziga xos betakror mustaqil yo'lga ega bo'lgan shoir. Shoir yangi shaklda yangi gap aytish uchun tinmay izlanar ekan, har birimizga tanish so'zlar zimmasiga yangi va chuqur ma'nolar yuklaydi. Mazkur yo'nalishda R.Parfi she'r satrlarini sindirishni yaxshi ko'radi. Bundan so'zning badiiy-estetik ta'sir kuchi, salmog'i ortsa ortadiki, aslo bukilmaydi, susaymaydi. "Ming yil sizni izladimmi men" turkumiga kirgan uchlikda o'qiymiz:

Men uzoq uxladim.

Bir asr uxladim, nega meni –

Nega siz yashinni uyg'otmadingiz.⁶

Shakl jihatdan singan satrlar keskin kechinmali holatlar ma'nosi, murakkab, ziddiyatli kayfiyat va tuyg'ular rangi, manzarasini chizishga yo'naltirilgan. Ana shu jarayonda uyg'oq So'z Haqiqatning olov ko'zlariga aylanadi ("Uxlama sen, Haqiqat"). Lirik qahramon tiyrak so'zga, qilichdek qayralgan Haqiqatga o'tinch

⁵R.Parfi "Sakina" Saylanma. Toshkent.2013. 338--bet.

⁶ R.Parfi "Sakina" Saylanma. Toshkent.2013. 18-bet.

bildiradi. Mudroq, qo'rqqoq jonlarni, noraso makonlarni, basirlarni uyg'otgin, deydi. Qasrlarni, asrlarni, zamonlarni uyqudan uyg'otishiga ishonadi.

1.2. She'riyatda obrazlilik

R.Parfi O'zturk ijodi ilk qadamlaridan boshlab ilmiy-adabiy jamoatchilik e'tiborida hech kimni befarq qoldirmaydi. Olimlar-u shoirlar ham, muhlislaru she'rxonlar ham R.Parfi izlanishlariga o'z munosabatini bildirishga, baholashga va shu tariqa madaniyatimiz kamolidagi o'rni va xizmatlarini belgilashga intilib kelishayotir.

She'r muhlisi, havaskor qalamkash M.Yo'ldoshevning "Yozuvchi" gazetasi redaksiyasiga yo'llagan "Shoir nima demoqchi, she'r nima deyapti" maqolasida ham ana shu taxlit qiziqishni kuzatish mumkin. Maqola, avvalo kuyinchakligi bilan e'tiborni tortadi. Muallif badiiy adabiyotni, badiiy so'zni, she'rni yaxshi ko'radi. Badiiy adabiyot sehrini his qilishga, badiiy so'z shukuhini bilishga, she'r tarovatini tushunishga intiladi. Bir so'z bilan aytganda, maqola ana shu bilishga yo'naltirilgan havasi bilan ahamiyatli.

Avvalo shu taxlit savollarning yuzaga kelish sabablari, omillari haqida fikrlashib olsak. Kuni, "She'riyatingizni tushuntirib bersangiz" degan savol paydo bo'lgan edi. "Shoir nima demoqchi, she'r nima deyapti" deya savolga tutilyapti (Bu o'rinda M.Yo'ldoshev fikri aniq maqsadga yo'naltirilmagan. Boisi, shoir nima demoqchi ekanligi she'rida ayon bo'ladi. She'rning ma'nosini uqmagan o'quvchi uni yozgan shoirni ham anglashi qiyin).Bugun R.Parfi she'rlariga shu tariqa savollarni ko'ndalang qo'yayotgan o'quvchi Alisher Navoiy asarlarini qo'lga olsa nima der ekan? Savollar shu alpozda taxlanaversa, hatto A. Navoiy xazratlari ruhiga zarda qiluvchilar, "Nega soddaroq qilib yozmagansiz, asarlaringizni lug'at yordamida o'qishga to'g'ri kelyapti. Vaholanki, kundalik gazeta-jurnallardagi sarjin-sarjin o'qishga fursat yetishmaydi-yu tushunishi qiyin she'rlaringiz mag'zini chaqishga toqatni qayoqdan olamiz" , deguvchilar toifasi paydo bo'lishi hech gap emas.

Buning uchun savol beruvchilarga ta'na qilish nojoyiz. Hamma ayb she'riyat haqidagi tasavvur va tushunchalarning, estetik mezonlarning jo'nlashib ketganligida. Badiiyat mezonlarining nihoyatda siyqallashtirib yuborilganida. Axir, she'riy san'at, she'riy nafosat, badiiylik emas, soddalik, rostgo'ylik, dolzarblik, zamonaviylik singari xususiyatlar sho'ro davri adabiyotining yetakchi estetik mezonlari bo'lib kelganligi sir emas-ku.

Shuning uchun ham yuqoridagidek savollarning tug'ilishi va ko'ndalang qo'yilishiga sira ajablanmaslik kerak. Boisi, hamma she'rxonlar ham birgina R.Parfi she'riyatini emas, shuningdek, Yusuf Xos Hojib yoki Ahmad Yassaviyni, Umar Hayyom yoki Bedilni, Alisher Navoiy yoki Boburni, Cho'lpon yoki Oybekni Rauf Parfi yoki Oybekni birdek tushunavermaydi. She'rlarini o'qib ma'nosini uqib, mag'zini chaqib, birdek surur tuyavermaydi. Birdek sokin yoki teran fikr-o'ylarga cho'mavermaydi. Birdek mushohadalarga berilavermaydi. Qolaversa, hamma davrlarda va hamma o'quvchiga birdek ma'qul tushgan, birdek suyib-ardoqlagan shoir-yozuvchilarni uchratsih amri mahol. R.Parfi shaxsi va she'riyati ham bundan mustasno emas.

Xususan, har bir So'z har bir adabiy so'z va janrda zimmasida tashiga fikrga ko'ra turfa mazmun kasb etganidek, har bir shoir she'rlaridagi So'z yuklagan ma'nosiga qarab bir-biridan farqlanadi. Hatto bir obraz bir shoir she'rlarida turfa ma'no qirralariga ega (R.Parfi asararidagi nur, daraxt ,shamol, osmon, oq rang va hokazo obrazlarning ramziy mazmun qirralari). Shu ma'noda har bir turning badiiy talqinlarini yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, tong otishi va kun botishi hodisasini olaylik. Har kuni har birimiz ko'rib, bilib, guvoh bo'layotgan ana shu jarayonni adabiy asarlardagi ifodasiga nazar tashlaylik.

“Oftob ko'z ochdi, oftobning kipriklari yumildi”, deyilgan zahoti, bu –lirika deymiz. “Tong otdi, kun botdi”, deyilganda dramatik asar ko'z o'ngimizga keladi. Endi, “olamni charog'on etib oftob osmonga ko'tarildi. Dunyoni qorong'ilikka botirib, ufqni qip-qizil shafaqqa chirmab, oftob bo'shliqqa yumaladi” deyilgan zahoti, bu – nasr-ku, deymiz. Ko'rinadiki, munosabat va uni belgilagan dunyoqarash – nuqtayi nazar, badiiy talqin hamda tasvir har bir adabiy asarning o'zligini belgilab berayotir, asl qiyofasini nomayon etayotir.

R.Parfi poetikasida metaforalar va majozlar turfa ranglarda, serqatlam ma'nodorlikka ega bo'lgan bir olam. Tahayyullarga qurilgan ramzli obrazlilik R.Parfi she'riyatidagi Olamni va Odamni ko'rish hamda ko'rsatishdagi bosh yo'li, badiiy tafakkurdagi ustuvor yo'nalishi. Shu boisdan bo'lsa kerak, R.Parfi she'rlaridagi so'z-iboralar, ayrim o'quvchilarga mavhumdek, murakkabdek tuyuladi.

Havaskor qalamkash M. Yo'ldoshev R. Parfi she'rlarining ko'p yillik muhlisi ko'rinadi. Shoirning 60-yillar o'rtasida yozgan "Ona tilim" she'rini ham, qayta ishlagan va 1997-yilda nashr etilgan variantini ham diqqat bilan o'qiydi. To'g'ri, shoir "Ona tilim" she'rini shakl jihatdan ham, mazmun jihatdan ham to'ldirib boyitgan. Bu bilan she'r yanada teranlik, ma'nodorlik kasb etgan. Bu – shoirning xaqqi-huquqi. Unga hech kimning daxl qilishga xaqqi yo'q. Qiziquvchan she'rxon esa, ana shu oddiy haqiqatni tushungisi kelmaydi. O'zini g'alati-g'alati savollarga tutadi. " Ammo bu joyda savol tug'iladi, shoirning o'zi bunga qaraydi? Haqiqatda ular ikki she'rmi yoki R.Parfi birinchisidan voz kechmoqdami? Uni yoshlik, mustabid davrining qoralamasi sifatida inkor qilmoqchimi?"

Unisi ham, bunisi ham emas. Qolaversa, kim o'z farzandidan voz kechadi? Ayniqsa, Sharq odami bo'lsa. Axir R.Parfi she'rlari uning dilbandlari-ku. Mustabid tuzumning qoralamasi sifatida inkor qilinadigan asarlar R.Parfi ijodida yo'q. Har ikki she'r, garchand bir hil sarlavhada bo'lsa-da, original, mustaqil go'zal san'at asari. Faqat har ikkisi ikki davrdagi dunyoni tushunish, nuqtayi nazar, ona til zimmasiga yuklanayotgan mazmunga ko'ra farqlanadi.

Axir, shoir nima demoqchi ekanligini har ikki sh'er mazmini aytib turibdi-ku. Darhaqiqat, shoirlik, R. Parfi ijodiy izlanishlari misolida aytadigan bo'lsak, u – qismat, u – dunyoqarash. R. Parfi so'z ustidagi zahmati, So'zni tanlashi va ularga zargarona sayqal berishi chinakam buyuk bir mehnat, betimsol san'at namunasi.

Badiiy asarni yozishga qanchalik katta iste'dod kerak bo'lsa, uni o'qish uchun ham shunchalik miqyosli iste'dod kerak. Chinakam shoir o'quvchining orqasidan borolmaydi. Kitobxonning ta'biga qarab, ortidan ergashib yurmaydi. Uning o'z yo'li bo'ladi. Va shu jumladan R.Parfi ham dunyoni, jamiyatni, insonni

tushunish hamda tushuntirishda betakror o'z yo'li bor. Afsuski, o'z ijodiy yo'liga ega bo'lmagan qalamkashlar ozmunchami?

R.Parfi o'tgan asrning 60- yil o'rtalari va 70-yillar boshidagi izlanishlarida oksimaron obrazlar – bir-biriga zid tushunchalardan yaqinlik, o'xshashlik izlash (qora sovuq, issiq qor, shirin azob, taxir kulgi va hokazo), ramzlarga qurilgan, majozlarga asoslangan obrazli tafakkur haq so'zni aytishning, voqelikni realistlik idrok etishning shakllaridan biri sifatida zuhur topdi.

Xususan, “Ona tilim” she’ri (1965-yilgi namunasi)dagi badiiy talqinga ko’ra ona tili – bamisoli oftob.

Oftob farzandidir oltin dalalar

Mo'l- mo'l nurin sochar bosh uzra balqib.

U sening tilingda aytar allalar

Oftobday ardoqli, ey ona xalqim.

Oltin dalalarni haydalgan, entikkan, bo'g'riqqan shudgor sifatida qabul qilmaslik kerak. U – So'z. U – Oftobning, Ona tilning farzandlari. Shoirning bug'doy so'zidan bug'doy nonning ta'mini his etamiz, tuyamiz; bug'doyzorlarning masrur shovullashini tinglaymiz, mevalari, bog'lari ko'z o'ngimizda jonlanadi. Beshikdagi o'g'lonni – bo'liq mag'zini allalar aytib kamol toptirayotgan ham ona tilining hikmatga, rivoyatga xotirofga to'liq so'zlari. Unda ona xalqining nurli, nuroniy, olis o'tmishi mujassam. Shu boisdan ham xalqimizning mo'ysafid tarixi – moziy taqdiri Navoiy baytlarini eslatadi.

Yoki, **seni yozajakman bu kun ko'zimga** satrini olib ko'raylik. Ko'z so'zini ham kunduzi ochilib, tun og'sa yumiladigan a'zolardan biri sifatida anglamaslik kerak. U – obraz. U – dunyoga boqqan oftob nigohi. U – olamni va odamni tushunish va tushuntirishdagi yorug nuqtayi nazar; tiyran dunyoqarash. U – ana shu taxlit serqirra ma'no ko'lami bilan ramzga aylangan.

U olis quyoshdir, kuyinib yonar,

Olis esdalikdir, bo'lmaydi ado.

U qachon tug'ilgan, bilmas payg'ambar,

U qachon so'nadi, bilmaydi xudo.

Ona tilining nuroniy tarixi haqida bundan ham dardchil, bundan ham obrazli so'zlash mumkinmi?

Shoir "Ona tilim" she'rining fikriy qurilishini tubdan o'zgartirib, uning uchta sonetga aylantirgan. Aytish zarurki, har bir sonet badiiy tafakkur ko'lamining miqyoslari, hissiy iste'dodi va ma'no mustaqilligiga ko'ra tamomila yangi, original she'rlar. Faqat oftob ramzi va poetik detallarning takrorlanishi ayrim she'rxonlarni taajjubga soladi. "... Ikkinchisida, nimagadir, uni mil sifatida, aytish kerakki, mil nashtar emas, mil – tig', qurol, u bilan o'z ko'zini o'yib olmoqchi (Mil kabi tortaman seni ko'zimga..."). Ushbu joyda xalqini, uning tilini dilidan sevgan shoirning xatti-harakati, maqsadi bizga ayon emas, qolaversa, mudhish ko'rinadi. Bu fikrimiz uning o'z Vatanini tobut deganidan keyin shu darajada qaltis joyga keladiki, biz buni qabul qilishga ojizmiz. Ro'y-rost aytmoqchimizki, qabul qilolmaymiz va qabul qilmaymiz"

Tasavvur to'liq bo'lishi uchun ushbu she'riy parchani ham ko'zdan kechiramiz.

Vatan deb atalgan beshik onajon,
Men uchun yopilgan eshik onajon,
Men sokin sollanib ilg'ab borarman
Vatan deb atalgan tobut qo'ynida,
Chuvalgan bulutni qordek qordek qorarman
Ruhimning panjasi chaqmoq bo'ynida.⁷

yoki,

Zanjirbandman, ona tilim Ona so'zingga,
Kundayin so'larman, oydek to'larman,
Mil kabi tortaman seni ko'zimga.⁸

R.Parfining keyingi yillar she'riyatida timsolli tafakkur yangi sifat belgilari bilan boyidi. Xususan, shoirning 70-yillar izlanishlarida poetik obrazlar, ramzlar va so'z obrazlarni majoziy idrok va ifoda birlashtirib, uyg'unlashtirib, estetik butunlik

⁷ R.Parfi "Sakina" Saylanma. Toshkent.2013. 342-bet.

⁸ R.Parfi "Sakina" Saylanma. Toshkent.2013. 342-bet.

bag'ishlab turgan bo'lsa, so'ngi o'n yilliklarda u yangi xususiyatlar kasb etdi. Masalan, uchta sonetdan iborat "Ona tilim" she'rida kuzatilganidek, ramzli idrok uyg'otgan tahayyular o'z navbatida yana yangi majoziy obrazlarni yuzaga keltiradi. Vatan – beshik – tobut bular serqatlam ramzlar. Ularni aynan so'zma-so'z tushunmaslik kerak. Ular Oftob nuridan to'kilgan shu'lalar, Ona Tilining ma'no zarralari. Badiiy So'z bir gal Vatan, ikkinchi o'rinda beshik, uchinchi joyda tobut ma'nolariga aylanadi. Har gal turfa-turfa ma'no tashiydi.

So'z – ruhiy Vatan. Lirik qahramon o'zini Vatan deb atalgan tobut qo'ynida ko'rarkan, o'lsam ham so'z bag'rida, xalqning tilida, muqaddas Ona So'zining og'ushida yashab qolaman degani. Muqaddas Ona So'zini mil kabi ko'ziga tortar ekan, u ona xalqining, turkiy ulusning ezgu ruhini ko'z qorachig'iga o'yib bitmakda. Xalqim, turkiy ulus bor ekan, uning tili ham, Ona So'zi ham tiyran, dunyo turguncha boqiy yashayveradi, degani.

Mabodo, ertaga bir she'rida shoir, yuragim – atom bombasi degudek bo'lsa, uni chindan ham qudratli, yovuz qurolni qo'yniga solib olibdi, endi nima bo'ladi, portlatib yuborsa-ya, nima bo'ladi, deb ayuhannos solmaslik kerak. Shoirning muqaddas So'zdan bo'lak quroli yo'q. So'zdan bo'lak boyligi ham yo'q. Mil deganda ham, tobut deganda ham, atom deganda ham u badiiy so'zning, muqaddas Ona So'zning oftob misoli buyuk qudratini, olamgir sharofatini tushunadi.

R.Parfi she'rlaridagi ramzlarning serqatlam ma'nodorligi, bu qadar badiiy go'zalligi, nafosati hazrat Navoiy she'riyatining tarovatini eslatmaydimi? Bu qadar sha'shador teranlik nafis san'at namunasiga aylangani, uni ko'z o'ngimizda yaratgan shoir mahorati, iste'dod qudrati adoqsiz hayratlar uyg'otmaydimi?

Ushbu mulohazalarham shoir she'riyatining salohiyatini tugal ifodalaydi, degan gap emas. Boisi, har bir go'zal, badiiy barkamolijod namunasining yuzaga kelishi, dunyo tanishi – bu iste'dod bilan Olloh o'rtasidagi kechadigan hodisa. Uni boshidan o'tkazgan, ko'nglidan kechirgan san'atkorning o'zi biladi. Bizning anglaganlarimiz esa – uning urvog'idek bir gap.

Ziyolilar – har bir xalqning tafakkur gullari. Shu ma'noda, har bir xalqning ma'naviy madaniyati tarixida ziyolilarning sajiya miqyosi, saviya darajasi davr didini, millat didini belgilab kelgan. Shaxs didini, millat didini jahon badiiyati

ko'lamlariga, Sharq adabiyotining mumtoz miqyoslariga ko'tarish esa barcha davrlar so'z san'atining, shu jumladan bugungi mustaqillik davri badiiyatining ham kechiktirib bo'lmas ehtiyoji, hayot da'vati, tarixiy voqelik taqozosidir. Zero, didlar tarbiyasidan, saviyalar takomilidan bo'lak ulug' va olijanob yumush bo'lganmi? Aslo.

Bu birgina Cho'lpon yoki Fitrat, Oybek yoki Mirtemir, Usmon Nosir yoki R.Parfi avlodininggina burchi emas, kelajak ijodkorlar zumrasining ham zimmasidagi bosh a'moldir.

Birinchidan, R.Parfi she'rlari o'zbek-Turkiy ulusining rivojlanish tarixiga, millat sifatidagi ma'naviy kamoloti fasllariga, milliy mustaqillik, erk, ozodlik kurashi bosqichlariga (arab, rus bosqinlari, mustamlaklari) retrospektiv nazar tashlaydi. Milliy ongning rivojlanish va namoyon bo'lish holatlarini, o'ziga xos tabiatini kuzatishga, betakro xususiyatini belgilashga intiladi. Xususan, XIX asr o'zbek-turklarining fojiali qismatini, erkka, hurfikrlikka intilgan shaxsning achchiq toleyini g'oyat sekin o'zgarishlarda kechgan millat ko'rguliklarini tarixiy jarayon sifatida poetik o'rganadi. Timsollar tilida tajassum etadi va yanayam muhimi – mafkuralashtirilgan siyosiy madaniyat bag'rida chinakam adabiyotni, go'zal poetik nafosatni, umumbashariy qadriyatlardan biri bo'lgan haqiqiy she'riyatni yaratdi. Chinakama she'riyat aslida hayot shakllidan biridir.

Ikkinchidan, o'zbek-turklarining o'zi va ona yurti erkin, ozod, mustaqil yashashga mahkum ekanligini millat onggiga singdirish, shu tariqa millatni "uyqudan" uyg'otish shoirning poetik iymoni-e'tiqodiga aylangan edi. Ana shu hayot haqiqati oldidagi o'z burchini tushunishi hamda amaliy faoliyatga intilishiga ko'ra R.Parfi Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Oybek va boshqa siymolarning izdoshidir. Hayotiy-ijodiy an'alarini davom ettirgan va yangi pog'onaga ko'targan san'atkordir. Bu narsa erkparvar shoirlar ijtimoiy, ijodiy, estetik pozitsiyalarining mushtarakligini ta'minlagan yetakchi xususiyatlardandir. R.Parfi she'riyatidagi kechinmalar samimiyligi, tuyg'ular haqqoniyligi, dildosh suhbatdosh-sirdosh ohangi, o'zaro ishonch ruhining kuchliligi kabi alomatlar badiiyatining o'ziga xos fazilatlari sifatida e'tiborga sazovordir.

Uchinchidan, R.Parfi yaratgan yangi she'ning mohiyati-bu kechinmalar falsafasidan iborat. His- tuyg'ularning barcha murakkabligini, ming bir holatlarini o'zida mujassamlashtirgan fikriy she'riyatdir. Uni falsafiy-psixologizm, badiiy-estetik tahlil madaniyatining yangi ko'rinishi, deyish mumkin.

Shoir she'riyati Olamga, Odamga, tiriklikdek bebaho ne'mat – hayotga tashna. U insonning buyukligi-yu tubanligi, qoshida cheksiz hayratda. Hayrat tuyg'usi g'azab, o'kinch, qayg'u-hasrat, sevinch, nafrat, tug'yon, taajub, inson singari turfa kechinmalar ranglarda tuslanadi. R. Parfi she'riyati – zo'ravonlikka, istibdodga, mute'likka qarshi vulqon. Faqat lovullab otilgan lavaning tarkibi-qondan, ko'z yoshlaridan, tuyg'ular –fikrlar olovidan iborat.

1.3. Lirikada adabiy-estetik qarashlarga doir masalalar

Iste'dod yorqin shaxs, betakror shaxsiyat egisi degani. So'z san'atkori faoliyatining ahamiyati, u qaysi masalaga munosabat bildirmasin, avvalo nuqtayi nazari va estetik xulosasining xosliligi, yangiligi – originalligi bilan belgilanadi. Bu adabiyot, tasviriy asn'at , musiqa bo'ladimi, olis zamonlardan beri suyak so'rib kelayotgan,yozilmagan qonuniyatdir. Ming- ming asrlik badiiy madaniyat tarixida o'z tasdig'ini topayotgan oydin haqiqatdir.

R.Parfining adabiy-estetik qarashlari, asosan, adabiy asar psixologiyasi, ijod falsafasi, adib shaxsi va so'z san'ati mas'uliyati bilan bog'liq. Shu ma'noda ularni shoirning dunyoni, shaxs va jamiyatni, voqelikni tahlil qiluvchi, baholovchi ijtimoiy-falsafiy konsepsiyadanayri anglay olmaymiz. Barchasi mujassamlashgan holda umrning ma'nosini, tiriklik xosiyati va ne'mati, shaxsning muqaddas so'z oldidagi burchi, millat va Vatan o'tmishi, buguni – ertasi – kelajagi (“ Men faqat Turkiston atalgan yorqin, Bir butun yurtimni istayman xolos”) xususidagi dardli o'ylar, iztirobli mushohadalardir.

R.Parfi estetik qarashlarining ildizlari Sharq va G'arb badiiyatining mumtoz namunalaridan suv ichadi. Shu boisdan ham, shoirni jahon estetikasidagi timsollar realizmiga, tuyg'ular realizmiga moyil san'at korlar ko'proq qiziqtiradi. Xususan, realizm estetikasiga ko'ra, shoirni dunyoviy zulm-istibdodga qarshi shaxs erki masalasi, tabiatning to'rt fasliga monand

kechinmalar tugʻyoni, hayoti band etadi. Shu boisdan ham, shoir adabiy asarlarning estetik qimmatini va ahamiyatini belgilashda ularning salohiyatini, badiiyatini bosh mezon, deb biladi. Boshiga qilich kelganda ham faqat rost soʻzlash, Haq va Haqiqatni yoqlash, har qanday yolgʻon, riyo, makr, zulm va xiyonat koʻrinishlarini inkor etish, ularga qarshi isyon koʻtarish R.Parfi estetikasining magʻzini tashkil etadi.

R.Parfi Turon-Turkiston mavzusiga bagʻishlangan sheʼrlarida falsafiy, ijtimoiy mazmuniga koʻra soʻzlarning qaddini-yu qadrini bir bahya baland koʻtaradi, qanotini yuksaltiradi, ularga parvoz beradi:

Tegramda zich havo – ona
Turkiston,
Yorgay tomirimni koʻr
hayajonim.
Bu maydon ichinda men
toʻkmagan qon,
Mening uning deya ayagan
jonim...
Parchin-parchin boʻldi yodim
simlari,
Simlar – koʻzlarimga mil
tortgan chizgu.
Oʻtgan ulugʻlarni eslayman
barin, Xotirotni mozori Turkiston
mangu.⁹

Shoirning “Soʻzlar”, “Sheʼriyat”, “Xarita”, “Ona tilim”, “Turkiston”, “Choʻli Iroq”, “Uygʻonar Turkiston, uygʻonar dunyo”, “Qadimiy turkiylardan”, “Oʻzingni ayama, borayotgan ildiz”, “Anglatgani anglagan boshlar qani” singari oʻnlab sheʼrlarida Turon-Turkistonning olis oʻtmishi, buguni va kelajagi bilan

⁹ R.Parfi “Sakina” Saylanma. Toshkent.2013. 194-bet.

bog‘liq turfa badiiy talqinlar silsilasini kuzatamiz. Badiiy So‘zning shunchalar katta salohiyati borligidan hayratlarga cho‘mamiz. Shoirning ko‘nglini, ijodini bilmoqchi bo‘lsang, uning ona yurtini borib ko‘r, degan hikmat bor. Shoirning Vatani – bu uning sehrli, purhikmat ma‘nolarni o‘ziga singdirgan sirli qiyofalar dunyosi. Rauf Parfi lirikasidagi So‘z, Ko‘z, Qushcha, Buloq, Daraxt, Chiroq, Xayol, Nur singari obrazlar tagdor, purma‘no mazmun ifodalashiga ko‘ra timsolga aylanayotir. Ular Turonzamin, Turkiston xalqlarining tarixiy hayoti sahifalarini suratlantiradi. Turkiy xalqlar taqdiridagi fojiali voqealar mohiyatini aks ettiradi. Millat taqdirida o‘chmas iz qoldirgan va ayni keyingi yuz yilliklarda mudragan jo‘mardlik, jangarilik, qahramonlik ruhini qayta tiriltirish, oyoqqa qo‘yish, faollikka da‘vat R. Parfining Turon-Turkiston mavzusidagi she‘rlarining yetakchi xususiyatlaridan biridir.

So‘z san‘atida hamma bir-biriga shogird, lekin har kim o‘z yo‘lidan ketadi, deydi adib. O‘zbek tilining ramzlarga, timsollarga boy ma‘no qirralarini aks ettirish R. Parfi izlanishlarining mag‘zidir. U so‘zning ta‘mini, hidini, rangini, bo‘yoqlarini g‘oyat his etadi. Shu ma‘noda, har bir she‘ridan shoirning qaynoq, ehtirosli nafasi shundoqqina sezilib turadi. Har bir so‘zning ortidan uning o‘zi qarab turgandek tuyuladi. U aytadigan gapi uchun so‘z tanlamaydi. Balki, fikrchan kechinmalari o‘z ma‘nosi, o‘z ifodasi bilan tug‘iladi. R.Parfi “Har bir so‘zim- oshkor jahonim”, deyishi ham shundan. U “So‘zlar” she‘rida yozadi: “So‘zlar. Tun qo‘ynida bo‘shliqning qo‘llari ko‘ksimni qisarkan, ruhim taslim bo‘lmaydir- da, olg‘a intilar, qarshimda bir oq bino paydo bo‘lur, oq binoda qalin va oq ko‘rpalariga o‘ranib-chirmanib qator so‘rilarda uxlab yotgan so‘zlarni ko‘raman. Yana tun qo‘ynida bo‘shliqning temir qo‘llari ko‘ksimni qisarkan: - Yordam bering, uxlab yotavermang, – deya hayqiraman. Shunday uyg‘otaman

qadimiy so‘zlarni”.¹⁰

R.Parfi O‘zturk she‘riyatida so‘z konkret ma‘no tashib kelishidan

¹⁰ She‘riyat va abadiyat. (Alisher Nazar bilan suhbat). “Mohiyat” g., 2002, 17-may, 4-bet.

tashqari, inson shaxsi va ma'naviyatidagi muayyan go'zallikni, timsolli yoki ibratli mazmuni ifodalashiga ko'ra ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. R.Parfi izlanishlarida so'zlar tabiatidagi shartlilik, kosa tagidagi nimkosa tarzida ifodalanadigan ko'chma ma'nodorlik, ayniqsa, ustuvor. R.Parfining so'z ustida ishlash zahmati shundan iboratki, "So'zlar" she'rida kuzatilganidek, u "Oq binoda qalin va oq ko'rpalariga o'ranib-chirmanib, qator so'rilarda" uxlab yotgan qadimiy so'zlarni uyqudan uyg'otadi. Ularni yashashga, kurashga, faoliyatga safarbar qiladi. Zero, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, she'riyat muttasil yangilanib turadi. So'zlarning ma'nosiga ko'ra doimo yangilanib turishi esa uning mohiyatini tashkil qiladi:

Darak gap: Inson. Undov gap. Inson!

So'roq gap: Inson? Yashamakni o'rgatar so'zlar.¹¹

Ba'zan ko'ksimizda tashigan qonni tashlamakni o'rgatar so'zlar. So'zlar kerak, Bosh harblarda yaralangan. Bosh harflardan yaralgan so'zlar. Bolari so'zdoni bir ajib, so'zlardir peshonada to'plangan ajin, qo'llarimiz fikrchan so'zlardir.

Ko'rinadiki, timsolli, majoziy lirizm Rauf Parfi uslubining o'tli nafasi, o'zak mag'zi, deyish mumkin. Davr voqeligiga, jamiyatdagi siyosiy vaziyatga, hodisalarga, inson sha'ni-erkini, haqini oyoqosti etuvchi, adolatsizlik ko'rinishlarini yuzaga chiqaruvchi ijtimoiy zulmga qarshi tug'yon Rauf Parfi she'rlarida tuyg'ular realizmi ustuvor deyishga asos beradi. Rauf Parfi XX asr o'zbek poeziyasida fikr bilan kechinmaning sintezini badiiy san'at darajasiga ko'targan, sof tuyg'uning tabiiy oqimini, qabariq majoziy ifodasini omuxtalashtirgan betakror uslub yaratdi. Bu – XX asr o'rtalaridan e'tiboran XXI asr o'zbek she'riyati taraqqiyotida alohida yo'nalish kasb etdi. Mustaqil badiiy idrok va ifoda madaniyati sifatida shakllandi.

¹¹R.Parfi "Sakina" Saylanma. Toshkent.2013. 208--bet.

R.Parfi estetik qarshlarining ildizlari – bahramandlik omillarini yolg'iz tog'-tosh, buloqlardan izlash mumkin edi. U Mag'rib-u Mashriq, badiiyatining mumtoz namunalaridan hayot suvini ichadi. Shu boisdan ham shoirni jahon estetikasidagi timsollar realizmiga, tuyg'ular realizmiga moyil san'atkorlar ko'proq qiziqtiradi. Xususan, realizm estetikasiga ko'ra shoirni zulm-istibdodga qarshi shaxs erki masalasi, tabiatning to'rt fasliga monand kechinmalar tug'yoni, hayoti band etadi. Shu bois shoir adabiy asarlarning estetik qimmati va ahamiyatini belgilashda ularning badiiyatini bosh mezon deb biladi. Boshiga qilich kelganda ham faqat rost so'zlash, Haq va haqiqatni yoqlash, har qanday yolg'on, riyo, makr, zulm va xiyonat ko'rinishlarini inkor etish, ularga qarshi isyon ko'tarish R.Parfi estetikasining mag'zini tashkil etadi.

R. Parfi estetikasida Turon-Turkiston mavzusi alohida sahifani tashkil etadi. "Turon-Turkiston mavzusi miloddan avvalgi yozma adabiyotlarda yuz ko'rsatib keladi, - deb yozadi R.Parfi. – Misr-Bobil, Xitoy- Hindiston, , Rum, Ovrupo, Amerika singari Turon-Turkiston, Turk dunyosi jahon ilm-u fani, madaniyati, adabiyoti va san'ati xazinasiga o'zining munosib me'rosini berdi va berajakdir".

Shoirning ko'nglini, ijodini bilmoqchi bo'lsang, uning ona yurtini borib ko'r, degan hikmat bor. Shoirning Vatani – bu sehrlil, purhikmat ma'nolarni o'ziga singdirgan poetik obrazlari, R.Parfi lirikasidagi **So'z, Ko'z, Qushcha, Buloq, Daraxt, Chiroq, Xayol, Nur** singari obrazlar tagdor, purma'no mazmun ifodalashiga ko'ratimsolga aylanayotir. Ular Turonzamin, Turkiston xalqlarining tarixiy hayoti sahifalarini suratlantiradi. Turkiy xalqlar taqdiridagi zilzilalal voqealar mohiyatini aks ettiradi. Millat taqdirida o'chmas iz qoldirgan va ayni keyingi yuz yilliklarda mudragan jo'mardlik, jangarilik ruhini qayta tiriltirish, oyoqqa qo'yish, faollikka da'vat R.Parfining Turon – Turkiston mavzusidagi she'rlarining yetakchi xususiyatlaridandir.

Ana shu yo'nalishda R.Parfi Cho'lpon estetikasidagi erk g'oyalarini nechog'lik rivojlantirganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, Cho'lpon estetikasidagi milliylik, asir Turkiston, erk istagi va erk ruhi yetakchilik qiladi. R.Parfi she'riyatima shu ruhni o'z tabiatiga singdirgan holda yangi-yangi qirralarni nurlantiradi. Masalan, milliy birliksiz shaxs ham, millat ham o'z borligini

saqlab qola bilmaydi. Vatan mustaqilligi , millat hurriyati, inson erki brvosita shxs ruhining erkinligi, millat ruhining uyg'oqligi bilan vosil bo'ladi, degan badiiy-falsafiy kkonsepsiya ustuvor.

Shoir ilgari surgan mazkur g'oyalar XX asr sho'ro zulmidan, kommunistik istibdod zug'umidan bolalagan mutelik ko'rinishlari orqali yoritiladi. "Turkiston yodi", "Turkiston – eng shirin bo'sa", "Ona tilim", "O'zingni ayama borayotgan ildiz", " Qadimiy turkiylardan", " Uxlama sen haqiqat", Uyg'onar Turkiston, uyg'onar dunyo kabi o'nlab she'rlari amna shu qutlug' g'oyalarning badiiy-falsafiy talqinlari o'laroq yuzaga keladi. (Turkiston yodi. Naqadar uzundir, og'irdir bu yo'l").

Yana yiroqlarga cholaydi moziy,
Vatan tushunchasi kelar yetaklab
Ayrilgan, xo'rlangam ulus ovozin,
Shoirning beshigi aytar ertaklar.
Yassaviy maqbari mung'aymish mag'rur,
Tovushga aylandi har bir g'isht rangi.
" Dunyo mening deganlar..." Nido kelur,
"Qarsak qushdek..." qadim so'zlar jarangi.¹²

"Vatanimizning eng buyuk olimlari, shoirlari Turkiston xalqlarining birligi uchun kurashadilar. Turkistonni bir butun holda ko'rishni orzu qiladilar, - deb yozadi R.Parfi. – Bu mavzu she'riyatda Vatan, Ona tuproq kabi muqaddas so'zga aylandi. Mustafu Kamol Otaturkning quyidagi so'zlarini eslaymiz: " Buyuk davlatlar qurgan ajdodlarimiz buyuk madaniyatlarga ham sohib bo'lganlar. Buni o'rganmak, tadbiiq etmak, Turkni jahonga bildirmaklik burchimizdir. Turk bolasi ajdodlarni tanib olarkan, yanada buyuk ishlar uchun o'zida quvvat sezajakdir".¹³

R.Parfi badiiyatining xizmatlaridan biri, bu – Cho'lponning erkchilik g'oyalarini rivojlantirganlikda ko'rinadi. Ya'ni u Cho'lpon yo'lini davom ettirdi.

¹²R.Parfi "Sakina" Saylanma. Toshkent.2013. 41-bet.

¹³ "Mohiyat", 2002, 17-may

XXasr o'rtalari – XXI asr boshlari o'zbek badiiy madaniyatida Turkistonda turkchilik ruhini barqaror etdi. Adabiyotda, millatsevarlik, vatanparvarlik, milliy ruhni yangi bosqichga ko'tardi. Shu ma'noda XXasr boshlari Cho'lpon va asr o'rtasi – XXI asr tongi R.Parfi estetikasining ma'naviy madaniyat uchun ahamiyati uzviy. Shu ma'noda Cho'lpon yo'lini tutgan R.Parfi o'zbek ruhini, o'zbek so'zining qadr-qaddini ko'targan madaniy-ma'naviy qadriyatlarni yangilashga, takomillashtirishga intilgan ilg'or munavvardir.

R.Parfi estetikasida Ruh erki masalasi ayricha ahamiatga ega. U inson hayotining har ikki dunyosiga daxldor, tayanch asosi. Odam ma'naviy faoliyati ko'rinishlarida o'zligi, demakki ruhi ham mujassamlashgan bo'ladi. Agar odamzod Ruh degan oliy masnadni bilmaganida edi, bashariyat tarixi ham bitilmagan bo'larmidi. Inson hayoti ma'naviy kuch-qudrat tajallisi emas, qup-quruq bo'shliqdan iboratligicha qolarmidi. Odamni inson degan oliy maqomga ko'targan ham, to'rt oyoqli jonzotdan farqlantirib turgan narsa ham, aslida ana shu Ruh. "Ruhsiz odam qul bo'ladi, - deydi R.Parfi. – Ichida Olloh qo'rquvi bor odam erkindir. U hamma narsadan erkan. Xudosiz odam qafasdagi odamdir.Ular o'zlarini o'zlari qafasga solishgan. Toki Allohni topmagunlaricha bu qafasdan chiqolmaydilar. Erda tirikchilik qilib yurgan odam uchun o'lim haqida ochiq gapirib bo'lmaydi. Guvillab, garangsib yurgan olomon buni anglashi og'ir. Sann'at hamisha odamni, odamlarni "ushlab" turgan.

San'at insonni shakllantiradi. Shakllangan odam o'zini yengib, o'z qalbiga singishadi. O'zini tekshira boshlaydi. Fikrlaydi. Shuncha imkonimiz bo'la turib shaytonning gapiga kirdim, deymiz. Shayton – ayanchli, go'zal timsol! Biz esa shuncha xatolarimizni bitta shaytonga yuklab ketaveramiz. Shayton bizning boy berilgan ruhimizni egallab olgan nafsimizdir. Shaytonga qarshi kurash butun ilmdan iborat ekanligini, kitob shaytonga qarshi yozilganligini bila turib, har qadamingizda shaytonga duch kelaverasiz.

R.Parfi estetikasida ruhiy erkinlik haqiqatning o'zidir, deya talqin etiladi. U Olloh jamoliga yetishish yo'llaridan biridir. Lirik qahramon tirikchilik vodiysidagi ko'rimli va sezimli narsalarni o'z hayot tarziga muvofiq kelmagani bois inkor etibgina qolmaydi. Aksincha, illatlar bo'lgani uchun ularni yo'qotishga oshiqadi. U

ruhning buyuk yaratuvchisi, bunyodkor kuchini alqaydi. Yo'qlik vodiysidan borlik saodati sari yo'nalgan ruhning zohir tuyg'ulari rangini ko'ratadi, ma'nolarini suratlantiradi.

Shu ma'noda tuyg'u va fikr R.Parfi estetikasida ruhiy erkinlikka erishish uchun olis safarga chiqqan yo'lovchi. U nihoyatda sezgir va dilgir. Xuxusan, ko'zlarida titragan tong shu'lalarini silkitib, shudringdek to'kib yubormaydi. Oppoq tong tuproqqa qorishib ketmaydi. U lirik qahramonning qorachig'ida kunlarini uzaytiradi. Tonglar lirik qahramon qorachig'ida yashab qoladi. Fikr-tuyg'uning ham joni bor, ruhi bor. Shoir she'riyatida ular millat va Vatan timsolida qaddini rostlaydi. Fikr- bu ulkan Vatan. Qirlar, adrlar, tog'lar, bog'-rog'lar, vodiylar, ko'llar va daryolar tafakkur tomirlari. Shu bois fikr ko'ngil buloqlaridan suv ichadi. R.Parfi estetikasida o'tmish o'z-o'zini anglash, yangi so'z aytish, kelajakka odimlash uchun suyanadigan tayanch tog'. Bir varaq qog'oz bamisoli joynamoz bo'lsa, shoirning Ollohga tazarrusi kechadigan maydon – bu she'r.

Kelajak deganda shoirning lirik qahramoni ruhining erkinlikka erishgan emin-erkin nafasini, dovqur ovozini tushunadi. Millat ravnaqi , Vatan iqboli bilan bog'liq ezgu intilishlar uning qanotlari. Har qanday mavfuraviy qoliplar, cheklash chegaralashlar unga xalaqit berolmaydi. Inson o'zligini , ko'nglini qanchalik teran anglay borsa, erkning yabiatini tushunishga tayyorlanadi.

Ruhiy erkinlik – ko'kdan quvilgan osmon farishtalari emas. Shoirning lirik qahramoni ana shunaqa erkin tafakkur, hur tuyg'ular sohibi. Tirikchilik – nafs manfaatdorligi ko'ngil erkini tushovlaydi. Shu bois lirik qahramon ushoqdek esada shukr qiladi. Shukronalik ila yana fikrlashga tutinadi. Dilni bilish – Haqqa yetishish yo'llaridan biridir. Bor ham o'tadi, yo'q ham yitadi. Dunyo qurg'ur omonat. Odam degani bamisoli bir piyola suv, to'kilding bas, tuproqqa shimilasan ketasan. Shu bois yorug' olamda hech kim tong otishi va kun botishini, subhidam shmoli va momoguldirak qaldirog'ini ummonlar shiddati va purviqor tog'lar salobatini, sukunatni meniki, deya uyiga olib kirib ketolmaydi. Ko'rpa-to'shak qilib, taxmonga tasxlab qo'yolmaydi. Ular erkin ruhoniyyat jilvalari. Yolg'iz bastakor qo'llarida, rassom bo'yoqlarida, she'rlarning baddiy sehri salohiyati orqali ko'ngillarda muhrlanib qoladi.

R.Parfi estetikasida soʻz oʻzini tanlash, oʻzlikni bilish, koʻngilga qaytishgina emas. Yana, jamiyat sir-sinoatlarini, xalqning dardi-alamalarini chuqur tuyush va tushuntirish ham demakdir. Qaynoq voqelikka singib ketish, xalq koʻnglida boʻlish, millat idealini bilishdir. Shoir taʼkidlashiga koʻra, sanʼatning bosh vazifasi insonni himoya qilish, insonni ulugʻlash, insondagi odamiylikni yuksak maʼnaviy-axloqiy xislat-fazilatlarini ardoqlash, kamol toptirish va shu tariqa Olloh jamoliga yetishishdir. Alalxusus, Soʻz Vatan demakdir. Zero, Chingiz Aytmatov taʼkidlaganidek: “Vatansiz Soʻz yoʻqdir. Inson Ollohga ibodat vaqtida ham sirli bir umid bilan uning ovozini tinglashga chogʻlanarkan, avvalo , oʻzining soʻzida oʻzida eshitadi. Soʻz bizning vujudimizdadir. Bizdan yiroqlashib va yana bizga qaytib, tugʻilganimaizdan to oʻlganimizga qadar minnatsiz xizmat qiladi. Soʻz Borliqning ruhini , koinotning cheksizligini bildirib turadi;bu hol hali hozircha bizning bilimlarimizdan tashqari , biz faqat buni Soʻzning sehridan deb hayol qilamiz. Shu bilan bir vaqtda Soʻz har qachon shaxsiyatimizning ayni tamgʻalangan foto nusxasidir.”

Ikkinchi bob

Muhammad Yusuf lirikasida mustaqillik mavzusi va Vatan talqini

2.1. M. Yusuf Vatan kuychisi

Shoir, yozuvchi – umuman ijodkorlar o'y hayollari, qalb haqiqatlarini o'z ijod na'munalarida ifoda eta olish imkoniyatiga ega bo'lgan, Alloh nazari tushgan iste'dod egalaridir. Ya'ni qalbidagi his – tuyg'ulari, kechinmalarini hech qanday zo'riqishlarsiz tiliga jo qila olgan, qalamida ifoda eta olgan insongina haqiqiy ijodkor sanaladi. Bunday ijodkorlarning asarlari insonning eng shaffof maskani – qalbdan chiqqanligi uchun o'z ihlosmandlarini tez topadi va yuraklarda mangu yashaydi.

Biz xalqimiz ardoqlagan shoir Muhammad Yusuf ijodini yuqoridagi fikrlarga eng yuksak namuna sifatida olishimiz mumkin. Zero, shoir qalami qalbi bilan hamohang ijodkor edi. U nimaiki yozsa qalbdan yozar, har qanaqa ortiqcha tashbehlersiz ifoda etar edi. Shu sabab ham uning she'rlari kirib bormagan xonodon, navolarini tinglamagan inson topilmaydi.

Muhammad Yusuf she'riyatining bosh mavzusi mehr – muhabbat, sevgi – sadoqat kabi insoniy tuyg'ular va bu tuyg'ularning bosh omili, gul toji bo'lgan vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat va ehtiromni tarannum etish sanaladi. Shoir “Izhori dil” she'rida shunday yozadi:

Vatan –

Yuragimning

Olampanohi,

Bu dunyo

Bukri bir

Jiydangning shoxi!.

Ko'zim yoshi bilan

Sug'orib gohi

Ko'ksimda o'stirgan

Gulday sevaman. ¹⁴

Vatan. Uni tarannum etmagan, kuylamagan ijodkor topilmasa kerak. Chunki, ijodkor uchu o'zi tug'ilib o'sgan maskani –Vatanini kuylashdek zavqli va sharfli baxt bo'lmaydi. Vatan mavzusida yozilgan asarlarning tub mohiyati bir bo'lsada, lekin ularning hech biri bir–biriga o'xshamaydi. Shu o'rinda Muhammad Yusuf ijodida asosiy o'rinlarda turuvchi Vatan mavzusidagi she'rlar o'zgacha ohang va takrorlanmas misralarda jo bo'lganligi sababli yorqin va ta'sirchan deyishimiz mumkin. Ya'ni shoir lirikasida hech kim tasavvur qilmagan, lekin mos keladigan tashbehlarni, o'xshatishlarni ko'ramiz. Bunday o'xshatishlar boshqa hech bir ijodkor she'riyatida uchramasligini shoir asarlarining o'ziga xos badiiy tili deyishimiz mumkin. Masalan, Vatan haqida yozgan shoirlarning hech biri hali Vatanni onaga, singilga o'xshatgan emas yoki Vatanning tol beshikdan boshlanishini faqat shu ijodkorgina o'z asarida ilk bor qo'llagan. Vatanning bog'–rog'larini, so'lim go'shalarini tarannum etganlar ko'pdir. Lekin hech kim Vatanni “ Yuragimning olampanohi” deb uning “Bukri bir jiydasining shoxi” ni kuylagan emas. Va yoki “Tilimning ostida navvot–zarimsan, sen mening yagona payg'ambarimsan” degan tashbehlarni Muhammad Yusuf she'riyatidagina ko'rishimiz mumkin.

¹⁴M.Yusuf Saylanma .Toshkent 2007 202-bet

Yuqorida takidlaganimizdek, shoir Vatan haqidagi she'rlarining ko'pchiligida Vatanni onaga, singilga va opaga mengzadi. Masalan, "Vatanim" she'rida:

Shodon kunim gul otgan sen,

Chechak otgan izimga,

Nolon kunim yupatgan sen,

Yuzing bosib yuzimga,

Singlim deymi,

Onam deymi,

Hamdardu – hamhonam deymi,

Oftobdan ham o'zing mehri,

Ilig'imsan vatanim.¹⁵

Darhaqiqat, bolasining ilk qadamini ko'rgan ona uchun bundanda ortiq quvonch bo'lmaydi. Ona kabi Vatan ham bag'rida yashayotgan xalqining yutuqlaridan, shodon kunlaridan sevinadi. Uning yo'llariga gul–u maysalar tutadi. Opa–singil kabi ko'ngli xira vaqtlarda hamdard-u hamroh bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, shoir oddiy hayotiy voqealar asosida ajoyib o'xshatishlar va teran falsafiy mushohadaga ega bo'lgan misralar yaratgan.

Shoir Vatanni qanday sevishini "Izhoril dil" she'rida shunday izohlaydi:

Cho'ksang, tur singlim deb,

Soching silayman.

So'ksang opam deyman,

Umring tilayman.

¹⁵M.Yusuf Saylanma. Toshkent 2017 9-bet

Sendan ranjimayman,

Gina qilmayman-

Xoh xo'mray, xoh jilmay,

Birday sevaman.¹⁶

Xalqimizda haqiqiy er yigit onasi va opa–singlini himoya qilishi, ularga tog'dek suyanch bo'lishi kabi hislatlar border. Opa–singil kabi Vatan ham himoyaga, tog'dek suyanch bo'ladigan er yigitlarga tayanadi. Shoir ushbu tushunchalarni teran anglab, Vatanni singilga va opaga mengzagan bo'lsa ne ajab.

Shoir she'rlarini tahlil qilar ekanmiz, misralardagi emotsionallikni tasirchanlikni yuzaga chiqarishda badiiy san'atlar poetik sintaksis va poetik fonekaning o'rnini katta bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Uning Vatan mavzusidagi she'rlarida badiiy san'atlardan talmeh, tashbeh va tazoddan keng foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, poetik sintaksis vositalari bo'lgan ritorik so'roq, ritorik, aniteza, apostrafa epifara kabi turlaridan foydalanib ajoyib misralar yaratgan. Masalan, o'zbek xalqining turmush tarzini ko'rsatib beruvchi "Qora qumg'on" she'rida apostrafa san'ati she'rning emotsianalligini vujudga keltirgan

Momom senga olov yoqqan,

Qora qumg'on, qora qumg'on.

Bobomni ham o'zing boqqan,

Qora qumg'on, qora qumg'on.¹⁷

Muhammad Yusuf ijodidagi Vatan mavzusidagi she'rlar o'zini teranligi va ohangraboligi bilan ajralib turadi. Bunday she'rlar esa o'z–o'zidan, oddiy so'zlarning ketma–ket saf tortishidan yuzaga kelmaydi. Balki, Vatanga bo'lgan mehr–muhabbat mevasi sifatida qalbdan to'kiladi. Shoir Vatanini kuylar ekan uni

¹⁶M.Yusuf Saylanma .Toshkent 2007 202-bet

¹⁷M.Yusuf Saylanma,Toshkent 2017. 159-bet

o'zligidan ajratib, maddohlik bilan kuylamadi. Ya'ni uning faqatgina yaxshi tomonlarini ko'rib, og'riqli nuqtalariga qo'l siltab ketmadi. Uni boricha sevdi, ardoqladi uni yuksaltirishga intildi. Zero, haqiqiy vatanparvarlik ham shunday bo'ladi. Haqiqiy vatanparvar inson o'zi tug'ilib o'sgan joyni xalqini bor-yo'g'i bilan sevadi.

Shoir she'riyatini kuzatsak "Vatan ostonadan boshlanadi" degan naqlning naqadar rost ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Chunki, Vatan mavzusidagi she'rlarining boshi o'zi tug'ilib o'sgan Andijon voqasiga, Qovunchi qishlog'iga uning o'ziga xoz udum va an'analariga bag'ishlangan. Masalan, "Nechun" she'ri fikrimiz dalilidir:

Nechun qulluq qilmay Andijonga men,

Shu yurtda tug'ildim, shu yurtda o'sdim,

Agar do'stim bo'lsa, bitta u do'stim –

Nechun qulluq qilmay Andijonga men!

Shu aziz tuproqdir, shu qadim qo'rg'on,

Dunyoga Boburdek shohlarni bergan,

Mohlaroyimlarning sochlarin o'rgan,

Nechun qulluq qilmay Andijonga men.

Shoir o'zi tug'ilib o'sgan joyini kuylar ekan also "mahalliychilikga" bormaydi. Balki, O'zbekiston yaxlit bir Vatan bo'lsa Andijon uning bir bo'lagi ekanligini ta'kidlaydi. Bu haqida quyidagi misralar keltiriladi:

Saylab yurt ajratmoq fe'limga yiroq,

Buxor minorlari ko'nghim etar tog',

Menga Samarqand ham azizdir biroq,

Nechun qulluq qilmay Andjonga men.

Keyingi misrada esa shoir o'zi tug'ilib o'sgn joyning bir vakili ekanligini, uning uchun jonini ham ayamasligini keltiradi:

Tuprog'i jannatdek qilguvchi g'amza,

Men o'sha yam–yashil vodiyydan maysa.

Ming jonim sadag'a, bitta jilmaysa -

Nechun qulluq qilmay Andijonga men. 18

Shoirning “Qora quyosh” dostoni xalq, Vatan mavzusidagi asarlar orasida eng o'ychanligi, achchiq alam va armonlarga to'laligi bilan ajralib turadi. Chunki bu doston mustabid tuzim davrida xalqimiz boshiga tushgan musibatlar xalqning asl, iste'dodli farzandlarining xalq dushmani sifatida yo'q qilinganligi, aslida kim dushman ekanligini bilmasdan, xalq boshiga qora kunlar solgan “Vallamat” larni e'zozlab kelgan sodda xalqimizga achinish qabilida yozilgan asardir. Qolaversa, bu dostonda shoir qalbining mustabid tuzimga bo'lgan cheksiz isyoni aks etgandir. Dostonning ayniqsa oxirga bandlari yuragi uyg'oq o'quvchini yig'latmasdan, o'ylantirmasdan qo'ymaydi:

Tushumga kiradi Qodiriy bobom:

Bolam, oqibating yo'q ekan bolam ...

Bo'lsa agar mening go'rimni top, der,

Keli ochiq qolgan ko'zimni yop, der

Yoki:

Yotar alpqomatli bahodirlar qator,

Akmallar,

Qodirlar,

¹⁸M.Yusuf. Saylanma. Toshkent 2017.234-bet

Shokirlar yotar,

Yotar Fayzullolar ,

Yotar Ahmadlar,

Xudo rahmat qilgur , xudo rahmatlar...

Muhammad Yusuf Vatanimiz mustaqillikka erishgan chog'da eng quvongan, buday dorilomon kunlar kelganiga shukronalar aytgan insonlardan biri edi. Zero, shoirning ijodi istiqloлга erishilgach keng quloch yoydi, ovozi baralla yangradi. Dilida qotib qolgan orzu-armonlarini she'rlariga to'kib soldi. Uning Vatan haqida yozgan har bir she'ri xalqimizning diliga kirib bordi va xuddi ularning dilidagi gaplardek yangradi. She'rlari qo'shiq bo'lib el orasida eng zo'r madhiyaga aylandi. Chunki, Muhammad Yusufgina "Hech kimga bermaymiz, seni O'zbekiston" deb mustaqillikning ilk ayozli davrlaridayoq baralla aytilgan edi". Uning "Xalq bo'l, elim" she'rini o'qisak, shoir qalbida kechgan jo'shqinlikni, shukronalik va faxr-iftixor tuyg'ularini sezamiz. She'rning birinchi bandida o'tgan buyuk ajdodlarga munosib bo'lish uchun birlashishga, xalq bo'lishga chorlanadi:

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,

Qumlar bosib qurimasin daryolarim,

Alpomishga alla aytgan momolarim.

Ruhini shod etay desang - xalq bo'l, elim!..

Ikkinchi bandida esa shoir o'zbek xalqining shonli o'tmishiga ishora qilib g'ururlanadi:

Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,

Dovrug'i ham dardi sendek kim bor yana,

Xalq bo'lishga haddi sendek kim bor yana,

Moziyni yod etay desang - xalq bo'l, elim

To'rtinchi bandda esa shoir O'zbekistonning istiqlolga erishganindan boshi ko'kka yetib, quvonchini yashirmasdan yozadi:

Daryo bo'lib jo'shgin endi zavqi ulug',
Bayramingd sevinch ko'z yoshingga qulluq,
Yurtim degan ja'sur Yurtboshingga qulluq,
Unga qanot bo'lay desang- xalq bo'l, elim.¹⁹

Shoirning "Inshaolloh" deb nomlanuvchi she'ri ham istiqoldan ilhomlanib yozilgan bo'lib, unda shukronalik ertangi yorug' keljakka bo'lgan to'la-to'kis ishonch tuyg'ularini ko'ramiz.

O'zbekiston, bo'yi basting ko'rsat endi,
Paxlavonim, yetdi senga navbat endi,
Olam uzra xilpirasin abad endi –
Sohibqiron Temur tug'i – yashil bayroq,

Inshaolloh!

Keyingi bandda esa erk, mustaqillikning naqadar ulug' ne'mat ekanligi, uning o'z-o'zidan qo'lga kiritilmasligi, uni asrash har bir farzandning muqaddas burchi ekanligi ta'kidlanadi.

Erk degani o'zi kelib eshik qoqmas,
Jon chekmasang osmonlardan omad yog'mas.
Qatoringda botirlaring bo'lsin og'mas,
Gurkirasin Alpomishlar o'tgan tuproq.

Inshaolloh! ²⁰

¹⁹M.Yusuf .Saylanma. Toshkent 2017.9-bet

Shoirning mustaqillik shukuhi baralla yangragan she'rlari orasida "O'zbekmomo" she'rini eslamaslikning iloji yo'q chunki bu she'rda o'zbek xaqining o'ziga xos xususiyatari, turmush tarsi, buyuk daholarga beshik ekanligi aks etilgandir:

Farishtalar fayzi yog'ar yuzlaringizdan,

Arimasin quvonch endi, O'zbekmomo.

Yursang oftob ergashadi izlaringizdan,

Oftob bo'lib nur soch endi O'zbekmomo.

Ikkinchi bandeda ota-bobolarimizning asriy orzusi bo'lgan mustaqillikka erishganimizga ishora etiladi:

Keldi qaytib yot yurtlardan karvonlaring,

Qo'ng'irog'i ko'ksingdagi armonlaring,

O'zingniki o'zing yopgan shirmonlaring-

Senga tegmas qirmoch endi, O'zbekmomo.

Keyingi sarlarda xalqimizning o'sha yetmish yildan ziyod sohta g'oyalar olamida yashaganligi va ularning sarob bo'lib chiqqanligi, endilikda Vatanimiz o'z erkini qo'lga kiritgan bu davrda uning keljagi buyuk davlat bo'lishi uchun astoydil kurashmoq lozimligi ifodalangan.

Saroblarga sajda qildik yetmish yil biz,

Yo'q Vatanni Vatan bildik yetmish yil biz,

Chin Vatanning poylariga cho'kaylik tiz,

Sen yo'l boshla, yo'l och endi, O'zbekmomo.²¹

²⁰M.Yusuf .Saylanma. Toshkent 2017.9-bet

²¹M.Yusuf. Saylanma. Toshkent2017. 143-bet

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusufning har bir she'rida hayotga bo'lgan tashnalik, teran o'ychanlik, samimiy tuyg'ular tarannumini ko'ramiz. Ayniqsa, Vatan mavzusidagi she'rlarida shoir Vatan haqida yozar ekan uni shunchaki ta'riflab, bayon etib qo'ymaydi. Balki, kuchli harorat cheksiz muhabbat bilan muhimi har bir kitobxom yuragiga kirib boradigan o'ziga xoslik ila o'z misralarida ijod qiladi. Shuni unutmaslik kerakki, shoir she'riyati shunchaki chiroyli so'zlar majmuasi emas bunda shoir she'riyatni jozibali qilgan sir mavzuyimiz boshida tilga olingan shoirning samimiy qalbidir va bu qalbda to'lib toshgan vatanparvarlik, xalqparvarlik, erksevarlik kabi tuyg'ulardir. U Vatan mavzusida she'r yozar ekan qalbidagi bor kechinmalarni yashirmasdan aks ettirar edi. Bunda Vatanning xoh shonli o'tmishi, xoh qora kunlari bo'lsin, xalqining fazilatu-qusurlari bo'lsin bari – barini yurakdan yozar, ijobiy xususiyatlaridan faxr - iftixor tuyg'usini tuysa, salbiy illatlardan qalbi iztirobga to'lar edi. Bu emotsiyalarning barchasi Muhammad Yusuf asarlarining o'ziga xosligini, ta'sirchanligini yuzaga keltirar edi.

Shoirning Vatan mavzusida yozilgan she'rlarining yana bir o'ziga xozsligi shundaki, shoir Vatanni jonsiz bir materiya deb bilmaydi. Ya'ni u Vatanni kuylaganda faqat to'gu – toshlarni, dashtu – dalalarni – maftunkor tabiatini kuylamaydi. Balki, bularga hamohang tarzda bu ob'yektlarning harakatlantiruvchisi – millatini, xalqini u tug'ilib o'sgan maskan bilan birgalikda Vatan deb biladi va shu xalqqa millatga bo'lgan cheksiz ehtiromini o'z asarlarida bayon etadi. Bu xalqning mentalitetini, urf – odatlarini ochib beruvchi ko'z – ko'z qiluvchi asarlar shoir ijodida juda ko'p uchraydi. Masalan, “Xalqona” she'rida :

Qiz deganning ko'ksi to'la o'y bo'lar ,

Yigit bir kun yetilib bo'y bo'ladi,

Bir tandir non o'rtada, bir kosa suv,

O'nta o'zbek yig'ilsa to'y bo'ladi.

Ro'yoblarga chiqadi shirin tushlar,

Kelinchakning yengidan kuyov ushlar,
Beshiklarni bo'shatib bir - biriga,
Tug'iladi To'maris, Alpomishlar
Suyungandan onalar ko'zida yosh,
Otalar yuzida porlar quyosh.
Nabiralar to'ladi hovlilarga,
Bari bir xil - qora sochu – qora qosh,
Bola gapin yoqtirmas qaytganini,
Bizda bola qildirar aytganini,
Mayli sodiq o'ssa bas, yurtiga u,
Boshlariga ko'tarib vatanini.
Dabdabasiz davralarda nur bo'ladi,
Kuyov to'ra kelinchak hur bo'ladi ,
Qayda yalla yangrasa kelavering.
O'zbeginning to'ylari zo'r bo'ladi. ²²

O'ziga xos ohangrabolikda yozilgan bu she'r har bir o'quvchini o'ziga rom qiladi va shu el , millatning o'ziga xosligini , urf – odatlarini, sodda va samimiyligini , qisqasi o'zbek xalqi mintaliteti haqida boy taassurot beradi. Biz shuning uchun ham Muhammad Yusuf she'riyatini xalqona she'riyat deb bilamiz shu narsa ayonki, Vatan, xalq, millat haqida Muhammad Yusufdek asarlar yozish uchun Vatanni, millatni Muhammad Yusufdek sevish , ardoqlash kerak, buning uchun esa yana bir bor Muhammad Yusuf bo'lib tug'ilish kerak.

2.2. Shoir she'riyatida obrazlilik

²²M. Yusuf. Saylanma. Toshkent 2017. 135-bet.

Istiqlol davrida Muhammad Yusuf ijodida mustaqillik mavzusi tamomila yangicha ohanglarda ifoda qilindi. Shoirning ona-Vatan va erk-ozodlik mavzusidagi she'rlari o'zining samimiyligi, soddaligi, badiiy mukammalligi bilan keng jamoatchilik mehrini qozondi. Xususan, «Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor», «Vatanim», «Xalq bo'l, elim», «Dunyo», «Inshoolloh», «O'zbekmomo» kabi she'rlari bu borada alohida ahamiyat kasb etdi. Ta'kidlash kerakki, M.Yusuf she'rlari o'zining samimiyligi, sodda va ravon tili, badiiy tasvirning nihoyatda nozikligi bilan ajralib turadi. Uning she'rlarida o'z qalb kechinmalarini, dardu hasratlarini anglamagan kitobxon bo'lmasa kerak. Zero, shoir she'rlarida inson ichki olami, orzu istaklari shunday tasvirlanadiki, ular bugungi kunda M.Yusufgagina xos obrazlar sifatida e'tirof etiladi.

Ma'lumki, “Obrazlilik – san’atning asosiy xususiyati, hayotni o’zlashtirishning o’ziga xos shakli va usuli, uning “tili” va shu bilan birga hayot hodisalari ustidan chiqargan “hukmi”. Badiiy obraz – obrazlilik tushunchasining o’zagi. Obrazlilik – adabiy ijodning mohiyatini, umumiy xususiyatlarini: adabiy qahramon, badiiy til, tabiat, buyumlar, jismlar, narsalar, hayvonot dunyosi tasviri va hakovolarni o’z ichiga qamrab oladi. Obraz – san’at asaridagi inson tasviri”²³

Muhammad Yusuf ijodida turli mavzular hamda turli xil badiiy tasvirlarni ko'ramiz. Ular ba'zida kishida ertak va dostonlardagidek o'zgacha bir shukuh kasb etadi. Shuningdek, shoir tasvirlangan obrazlarda hayotiy va badiiy haqiqat uyg'unligi o'ziga xos mutanosiblikni vujudga keltiradi. Xususan, “O'ksimagin, o, yurak” she'rida shunday satrlarni uchratamiz:

O'ksimagin, o, yurak,

Bo'lma xomush, bo'lma lol.

Mening otam – oq terak,

²³Bobojev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'zbekiston, 2002. 41-bet

Mening onam – majnuntol.

Mazkur satrlarda inson va tabiat orasida uzviy aloqa mavjudligi ifoda etiladi. Ma'lumki, oq terak – baquvvat, shamolu bo'ronlarga bardosh beradigan, qaddini tik tutib boshqalarni himoya qilishga shaylangan daraxt; majnuntol – ma'suma, ayollarga xos iboni o'zida musassamlashtirgan daraxt sifatida taassurot qoldiradi. Shu ma'noda, ushbu misralarda shoirning badiiy tafakkuri orqali juda sermazmun, falsafiy umumlashmalarga ega obraz yaratilgan.

Shoir she'rlarida hech kimga o'xshamagan badiiy tasvirlar, o'ziga xos ifodalarni ko'plab uchratish mumkin. Ularni o'qiganda kitobxon olam va odam sir-sinoatlarini tasavvur qiladi. Shoirning “Surat” she'rida ushbu fikrlarning tasdig'ini ko'rish mumkin.

Mening kimligimni,
Bilmaydi hech kim.
Men bir g'alatiman,
Men alohida.
Ko'zimning yoshini
Keladi ichgim,
Tilimni chaynagim,
Kelar gohida.²⁴

Ushbu she'r xususida mulohaza yuritir ekan Sh.Qurbon shunday ta'kidlaydi: “Muhammad Yusufning “Surat” she'ri shoirning o'z ichki dunyosini kashf etishga urinishi aks etgan asardir. She'ring lirik qahramoni “Men bir g'alatiman, Men – alohida” der ekan, uning bu e'tirofini aslo kibrga, manmanlik da'vosiga yo'ymaslik lozim. Uning boshqalardan birgina biroq nihoyatda muhim fazilati bor. Olam va odamni ko'ngil ko'zi bilan ko'rishi, idrok etishidir”²⁵

²⁴Muhammad Yusuf. Saylanma. –T.: Sharq, 2006. 125-bet

²⁵Shukur Qurbon. Muhammad Yusuf saboqlari. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2012. 50-bet

Muhammad Yusuf she'riyatida o'zining betakror ifodasini topgan mavzulardan biri ona-Vatan obrazidir. Ma'lumki, ona-tuproqni ardoqlash hamma davrlar adabiyoti uchun mushtarak hodisadir. M.Yusuf ijodida mazkur mavzuga juda ko'p murojaat qilinadi. Shoirning Vatan haqidagi she'rlarida badiiy tasvirlar shu qadar nozik misralarda ifodalanadiki, ularda hech qanday yasama tuyg'ular, balandparvoz so'zlarni uchratmaysiz. Adabiyotshunos olim, Q.Yo'ldoshev ta'kidlaganidek: «Olovli she'riy nafas, kutilmagan tashbehlar, o'tkir va serma'no timsollar, mayin ohanglar shoir bitiklariga xos xususiyatlardir. M.Yusuf ijodini o'rganish o'zbekning ko'nglini yaxshiroq bilish imkonini beradi. Shoirning she'rlari turli yo'nalishda, ular muallifning turfa kayfiyatini ifoda etgan. Lekin Muhammad Yusufning butun ijodi uchun mehrga tashnalik, insonni ayashga intilish yetakchi belgi edi, desak adashmagan bo'lamiz»²⁶

Muhammad Yusuf o'zbek she'riyatida she'rlarining oddiyligi va samimiyligida, fikrlarining xalqchilligi va falsafiy teranligida, obrazli mushohadalarining o'tkirligi va originalligida, eng asosiysi, oddiy kitobxon qalbiga yaqinligida. Har qanday shoir she'riyatiga jon bag'ishlaydigan fazilatlardan biri obrazlilikdir. Muhammad Yusufning barcha she'rlarida fikr majoziy shaklda ifodalanadi. Mana bir misol. Biz kapalaklarga ham ko'p e'tibor beravermaymiz, oddiy bir hashorat deb qaraymiz. Lekin shoir tabiat yaratgan "na kulbasi yo'q, na qo'shig'i, kuyi yo'q", atigi bir kungina yashaydigan "odamlardan mehribon" kapalakni poetik obrazga aylantirib, insoniy munosabatlarga xos fikrni ifodalash uchun foydalanadi.

Gulga qo'nsa qanotlari botmaydi,

Ojizlarim birovga tosh otmaydi.

Bir kun yashar, bir-birlarin sotmaydi,

Kapalaklar odamlardan mehribon...

²⁶Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.290-bet

Muhammadga ishongan ey, mo'minlar,

O'lsam so'zim eslab, o'yga cho'minglar:

Kapalakning qanotiga ko'minglar,

Kapalakar odamlardan mehribon...²⁷

Shoir mahorati shundaki, u tabiat ko'rinishlari, turli-tuman jonzorlar, o'simliklar, daraxtlar va boshqa predmetlar va hodisalar misolida falsafiy ma'nolarni ifodalay oladi. "Turnalar", "Cho'loq turna", "Qora qumg'on", "Yalpiz", "Oq tulpor", "Erka kiyik", "Qizg'aldoq", "Do'ppi", "Qaldirg'och" kabi she'rlarida qo'llanilgan ramzlar, aytilgan fikrlar xalqona ruhi, soddaligi nuqtayi nazaridan badiiy kashfiyotlar desam, mubolag'a bo'lsam.

Yoki:

Qizg'aldog'om, qirdan bo'lak koshonang yo'q,

Kokil yoysang, yerdan bo'lak toshoynang yo'q,

O'ksib-o'ksib turganingda o'zim borib,

Peshonangdan o'pay desam, peshonang yo'q.

Birinchi to'rtlikda bosh kiyim bilan bog'liq milliy qadriyatlardan chekinish, bir vaqtlar Mirtemir, G'afur G'ulomlar faxr va g'urur bilan kiygan, "Munchoqdek Marg'ilon do'ppilar"ni kiymay qo'yayotgani unutilayozgani shoirni tashvishlantiradi. She'rda oddiy do'ppi timsolida muhim poetik umumlashma yaratilib, chuqur ma'noli g'oya ilgari surilgan. "Qizg'aldoq" haqidagi ikkinchi she'rda esa, lirik qahramonning yolg'izlik, mehrga tashnalik tuygulari qizg'aldoq obrazi orqali ochib beriladi. Qadrini ham, dardini ham hech kim bilmaydigan, "Oh ursa ohini tinglaydigan ostonasi yo'q" atrofida "parvona bo'lgudek biror kimsasi yo'q", hatto "kelib- ketar bahor ham unga ham bevafo" qizg'aldoqqa achinadi.

²⁷M. Yusuf. Saylanma. Toshkent 2017. 43-bet

She'ning ichki mazmunidagi dramatik kechinmalar, ayniqsa oxirgi banddagi poetik yechim, yolg'izlikning dahshati va oqibati to'g'risidagi iztirobli fikrlar o'quvchini befarq qoldirmaydi.

Oldingga men borolmasam, o't gunohim,

Bir yo'qlab qo'y, men dunyodan o'tgan chog'im-

Qabrim uzra hilpirab tur, qizg'aldog'im,

Muhammaddan bo'lak do'sti-devonang yo'q.²⁸

Muhammad Yusufning har bir she'ri, mana shunday hayot yoki tabiatning kichik bir lavhasi, oddiy bir ko'rinishi orqali ham katta ma'noni yoritishi bilan xarakterli.

Shoir she'rlarining g'oyasi yaratgan obrazlarining jon-qoniga singib, ularni hayot bilan bog'laydi. Shoir obrazlarni tabiatdan tanlaydi. Gul, shabnam, olma, oy, yulduz, yalpiz, majnuntol, maysa, ufq, qush, ohu va shu kabi timsollar Muhammad Yusuf sevib ishlatgan obrazlar tarkibiga kirgan. Yuqorida aytib o'tganimizdek uning she'riyatida eng ko'p uchraydigan va sevib ishlatadigan obraz – qizg'aldoqdir. Bu obraz uning o'ndan ortiq she'rlarida yaratilgan. Ijodkor qizg'aldoq obrazini she'rlariga rangli ohanglarda, rangli qirralarda kiritadi va unga insoniy his-tuyg'u bilan boqib, jonlantirib, tabiatning bir jonli bo'lagiga aylantiradi. O'quvchini bu gulaga oddiy ko'z bilan emas, balki qalb ko'zi bilan boqishga undaydi. "Sevgi bamisoli..." deb boshlanuvchi she'rida qizg'aldoq obrazi muhabbat timsoli sifatida tasvirlanadi:

Sevgi bamisoli lolaqizg'aldoq,

Teginmay bo'lmaydi,

Tegsang to'kilar.

²⁸M. Yusuf. Saylanma. Toshkent 2017. 40-41-betlar

Alvon bir gumbazning o'rtasi oppoq

Buni bir men-u bir kapalak bilar.

Muhammad Yusuf lirikasida ona yurtidan faxrlanish, umr mazmuni haqida falsafiy-lirik o'ylarga berilish, ma'naviy soflik, oliyjanoblik, ezgulik haqida mushohada yuritishesh kabi xususiyatlar bo'rtib ko'rinadi. Lirikada oshiq va mashuqa obrazlari badiiy sayqal topgan timsollardandir.

Shoir ijodida ona, ayol obrazlari katta ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir ijodkorning onaga, ayolga mehr-muruvvati, mehr-shavqati nechog'li cheksiz ekanligi uning "Bag'ishlov" she'rida yorqin ko'ringan. Muhammad Yusuf ijodida ona yoki xotin-qizlar obrazi hech bir shoir she'rlarida o'xshamagan bir jo'shqinlik bilan yaratilgan. "Onamga", "Tuzalmaydi dardim mening", "Onamga xat", "Onajon, onajon", "Armon", she'rlari shunday xususiyatga ega. Shoirning ushbu mavzudagi ko'pchilik she'rlarida ona vafotidan o'rtangan farzand kechinmasi ifodalanadi. "Onajon", "Armon", "Beshinchi o'g'il", "Ahmad Zohir qo'shig'i" kabi she'rlarida shu kabi holat nomayon bo'ladi.

Shoir she'riyatida bir obraz bor. U andak to'pori, andak dumbul, biroq o'ta samimiy yuragi toza. Aynan shu obraz nigohi bilan nazar solar ekansiz, boshqa vaqtda sizga g'alati bo'lib ko'rinadigan gaplar, holatlar ham erish tuyulmaydi. Masalan, "Ozoda" she'rini olaylik. Lirik qahramon Ozodani sevgan, hanuz sevadi... Biroq uning yoshi ham, yorning yoshi ham, o'n sakkizda yo yigirma birda emas, balki allaqachon qirqa kirgan.

Tushunmaslar kuladi: esiz-esiz,

Kimdur ermak qiladi esiz-esiz,

Xotanim ham biladi, nima deysiz?

Ozodani sevaman men, Ozodani.

Lekin oshiqning bular bilan ishi yo'q, to'g'rirog'i u bundaylardan qo'rqmaydi, hatto do'lvor xarakteri bois "tushunmaslarga" do'q-po'pisa qiladi:

“Xotinim ham biladi nima deysiz?” Ehtimol, she’rni she’r etib turgan unsur aynan shu o’rindagi “po’pisa”dir – “Nima deysiz?”. Keling, bolalikka, bolalar hayotiga qaytaylik. Ular o’rtasidagi o’zaro muomalani, ayniqsa ikki o’g’il bola tortishib qolib bir-biriga jo’jaxo’rozdek tashlanish oldidan aytadigan so’ngi jumlanı eslaylik: “Nima deysan?” Yuqoridagi she’rda ham lirik qahramon o’z tuyg’ularini bir tekisda bayon etib kelarkan, bir o’rinda birdan bolalik dengiziga tushib ketadi va bolaga o’xshab, yo’q, bola bo’lib do’q uradi: “Nima deysiz?”.

Muhammad Yusuf o`zbek nasrining buyuk vakili Abdulla Qodiriyga alohida bir mehr bilan qaragan. Ayniqsa, “O`tkan kunlar” romani, Otabek, Kumush, Zaynab obrazlari shoir uchun alohida mavzu bo`lgan. Muhammad Yusuf o`zining “Kumush”, “Zaynab qo`shig`i”, “Bibi”, “Otabek qo`shig`i”, “Kumush bibi nolasi”, “Kundoshli uy” kabi qator she`rlari va “Qora quyosh” dostoni bunga misol bo`ladi:

Tushimga kiradi Qodiriy bobom,
Bemador, bemajol, behol, beorom.
Egniga eski bir to`n kiyib olgan,
(Shineldir balki u, kimdandir qolgan).
O`sha to`n egnida poxol ham borday,
Bobomning yuzlari oqargan qorday.
Yo`q, yuzi somonga o`xshaydi uning,
Charaqlab turuvchi ko`zi to`la mung...

“Qora quyosh” dostonidagi bir dialog keltirilganki, kulib turib yig`laging keladi, yig`lab turib jilmayasan. Bu satrlarda Abdulla Qodiriyning, aybsiz aybdor ekanligi yaqqol ko`rinib turibdi:

Mana

Qodiriyni qilishar so`roq:

“O`tkan kunlar” degan she`r siznikimi?

- Ha.

Ammo u she`r emas ...

- Jim bo`ling, axir.

She`rmi yo boshqami, avtori siz-da

Tamom.

Boshqa gapga qolmaydi hojat.

A.Qodiriy, Cho`lpon va Fitratlarning hukmdan bir kun qorog`i tunda otib tashlangani shoir qalbida ezgin tuyg`ularni uyg`otadi:

Ko`zimga yosh to`lar mana shu yerda.

Qo`ynimga tosh to`lar mana shu yerda,

Oh, oltin bobom-a, voh tillo bobom...

O`tgan kuning qursin, Abdullo bobom!²⁹

Muhammad Yusuf Kumush obrzini alohida bir mehr bilan tasvirlaydi:

Marg`ulonda Kumushni ko`rdim,

Ko`ziga yosh to`lib turibdi.

Sochlarini maydalab o`rib

Otabekni izlab yurubdi.

Shoir Zaynab qalbidagi iztirobni, qalbidagi og`riqni teran his qila olgan. U bu fojiada Zaynabni ayblamaydi, oqlamaydi ham. Lekin bu satrlarni o`qir ekanmiz, beixtiyor qalbimizda Zaynabga nisbatan rahm-shafqat hislari uyg`onadi:

²⁹M. Yusuf. Saylanma. Toshkent 2017. 212-213 betlar

Kulgu ketmay ko`zimdanda
Yog`ar bo`ldi ko`z yoshim.
Ko`z-ko`z qilib baxtini
Yoqar bo`ldi kundoshim.
Taqdir dedim, shum taqdir,
Ko`nglim ko`nisa-ko`nmasdim.
Begim, sizni men axir,
Kumushdan kam suymasdim...

Qalbi Kumush sevgisi bilan limmo-lim to`lgan Otabekning Zaynabdan uzr so`rashi ham o`ta ta`sirchan bayon qilingan:

Sen Shirun-u, Men ham Farhod emasman,
Sen achchig`u men ham novvot emasman.
Zaynab, menga aytma zoringni,
Sen dilxun-u men ham dilshod emasman.

Muhammad Yusuf nafaqat Zaynab, balki Kumush ham bebaxt ekanligini, kundoshli uy vayrona ekanligini yorqin satrlarda bayon eta olgan:

Xoh Kumush bo`l, xoh bo`l Zaynab,
Baxtliman deb aytolmaysan
Kundoshli uyda sen yayrab
Yasholmaysan, yasholmaysan.
Kundoshli uy vayronadir,
Osh o`rniga - ayron tatir.

Koshonang bo`lsa ham qasr,

G`amxonadir, g`amxonadir.

Shoir she`rlarida Kumushning ochiq ko`ngilligi, hatto kundoshiga ham yomonlikni ravo ko`rmasligi, Otabekning baxti uchun qayg`urishi ham o`z ifodasini topgan:

Yorginam ruxsoriga jonim fido,

Bu jahonda boriga jonim fido,

Xayr, ey shirin zabonim, alvido!

Men o`lay, Zaynab bilan qoling, begim

A.Qodiriyning “O`tkan kunlar” romani asosida tayyorlangan kinofilmni qiziqib tomosha qilmagan odam yo`q bo`lsa kerak oramizda. M.Yusuf ham bu kinofilm uchun biletlar topilmasligi, xalqimiz bu asarni qayta-qayta tomosha qilishga qiziqishlari, biletlari topilmasligini bayon qilgan:

Bilet topilmaydi “O`tkan kunlar”ga

Qizlar qaytib kelar ko`z-yosh qilishib

Xayr uyqu, deyman-u, menda yo`q orom,

Muqovasiz kitobimga muk tushib...

Ko`zimni yumaman, kulguchlari yayrab,

Kumush bolasiga ro`mollar to`qir.

Demak, Muhammad Yusuf ijodidan foydalangan holda o`quvchilarga A.Qodiriy hayoti va ijodi, “O`tkan kunlar” romani haqida ko`proq ma`lumotlar berishimiz, o`quvchilarni bahs-munozaraga

undashimiz mumkin.

A.Qodiriyning “O`tkan kunlar” romani xalqimiz uchun qadrlil, sevimli bo`lgani kabi, Muhammad Yusuf ijodi ham asrlar osha yashagay, inshoalloh.

M.Yusuf she'riyati mana shunday serqirra. Uning har bir qirradi o'zbek ma'naviy hayotining bir lavhasi. U nainki hayotdan ilhom oldi, balki ijodda buyuk kashfiyotlar yaratgan qalam ahlidan, ularning umrboqiy aloqalaridan ruhlandi. Agar A. Qodiriy "O'tgan kunlar"ni yozganida qanchalar ilhomlangan, zavqlangan bo'lsa, M.Yusuf bu roman, uning qahramonlari to'g'risida ham shu darajada zavqlanib qalam tebratdi. Otabek, Kumush va Zaynablarning taqdiriga bir jihatdan achindi, ikkinchi tomomdan shunday betakror obrazlar yaratgan A. Qodiriyga tahsinlar aytdi.

A.Qodiriy tavallud sanasining 125 yilligi va M.Yusuf tavalludining 66 yilligi nishonlanayotgan shu kunlarda shoirning "O'tgan kunlar" romani taqdiriga bag'ishlangan she'rini eslash adabiyot ixlosmandlari uchun ham qarz ham farzdir. M. Yusuf qatag'on qurbonlarini nainki eslash, balki ularning vatanparvarlik, millatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilgan ijodkor sifatida ham e'zozga munosibdi

2.3 Oddiylikka yo'g'irilgan falsafiylik

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf o'zbek she'riyatiga yangi ohang, yangi tafakkur jilolarini, yangi milliy ruh olib kirgan iste'dod sohiblaridan biri edi. U atoqli shoir Cho'lpon ijodi ruhida qalam tebratdi. Millatning baxtini, taxtini kuylab o'tdi. Vatanim, xalqim, deb yashadi, ijod qildi. Shoir qisqa umr ko'rdi. Lekin shu qisqa hayoti davomida asrlarga tatigulik asarlar yaratishga ulgurdi. Shoirning har bir katta-kichik she'rlari, dostonlari o'zbek she'riyatining yorqin sahifalari sifatida e'tirof etildi. Ular nafaqat mavzusining dolzarbligi, balki badiiy salmog'i, shoirlik mahorati jihatidan ham o'ziga xos kashfiyotlar edi desak mubolag'a bo'lmas.

Adabiyotda har bir shoirning o'ziga xos qalam tebratish salohiyati bo'ladi. Shu xususiyati bilan u boshqalardan ajaralib turadi. M.Yusuf bu masalada betakror so'z ustasi edi. Oddiy so'zlar, oddiy ifodalar, xalqona tashbehtar orqali katta ma'noni ifodalash M.Yusuf she'riyatining o'ziga xos qirralaridir. Bunday fazilat kamdan-kam ijodkorda uchraydi. Shoirning qaysi she'rini o'qimaylik, undagi fikr

teranligi, tashbehlarning originalligi o'quvchi qalbiga osonlik bilan yetib boradi, bir umrga yod bo'lib qoladi.

Vatan haqida ko'p she'rlar yozilgan. Vatanni ulug'lamagan shoir yo'q hisobi. Lekin M.Yusufning Vatan haqidagi she'ri hech bir shoirga o'xshamaydi, butunlay yangi ohang, yangi mazmunda qalblarga singib ketadi.

Men dunyoni nima qildim,
O'zing yorug' jahonim,
O'zim hoqon,
O'zim suton.
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg'izim,
Yagonam deyman,
Toppingan koshonam deyman,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim...

Bunday ta'rif hech bir shoirda uchramaydi. Yurt o'g'lonlariga beshik bo'lgan Vatan, Yassaviy, Navoiy, mashrablar taqdiri, Muqanna-yu Temur Malik mardligi, Jaloliddin Manguberdi, Bobur Mirzolarining Vatan deb qilgan nolalari, Ulug'beg-u Qodiriyni bergan zamin farzandlari qiamati she'rda shunday ta'riflandiki, vatandan faxrlinish tuyg'usi har bir kitobxon qalbiga aks-sado beradi. Shoir shunday vatan farzandi ekanligidan g'ururlanadi.

Bosh egib turgan chinorim,
Qo'ynimdagi iftixorim,

Bo'ynimdagi tumorim,

O'zing mening ulug'lardan

Ulug'imsan, Vatanim!³⁰

She'ning ko'pchilikka yod bo'lib ketgani, san'atkorlar repertuariga kiritilib ijro etilayotgani she'ning qanchalar ommaviy va badiiy yuksakligidan darak beradi. She'rni ona Vatan haqidagi madhiya desak xato emas. Shoirning she'rlaridan birida “Yurtim jonim to'shay soyangga” degan satr bor. Shu bir misraning o'ziyoq shoirning Vatanga sadoqati, mehri qanchalar buyuk ekanligini ko'rish mumkin. Muallifning “Yurtim,ado bo'lmas”, “Andijon”, “Samarqand” “Turkiston madhiyasi”, “Vatanni seving”, “Chamanistonim”, “Xalq bo'l elim” va yana o'nlab she'rlari borki, har birida vatanning betakror qoyofasi, milliy ranglari bilan ta'riflanadi.

M.Yusuf she'riyati mavzu tomonidan xilma-xil. Talqin ham rang-barang. Insoniy munosabatlar, milliy qadriyatlar, unutilib borayotgan an'analar, insoniylik diyonat, mehr-oqibat, sevgi-sadoqat kabi mavzular talqinida ham shoir uslubiga sodiq qoladi, oddiy misralarda mavzuni juda go'zal tashbehlar bilan ochadi. Do'ppi haqida juda kam yozilgan. Yozilganlari ham eslab qoladigan darajada emas, tezda unutilib ketadi. Lekin M.Yusufning “Do'ppi” nomli she'ribir o'qishdayoq yuragingizni jiz ettiradi. Nega? She'r juda hayotiy faktga qurilgan.

Do'ppi kiymay qo'ydi odamlar,

Ko'ngil esa ko'rmoq tusaydi,

Madaniyat gullagan damlar,

Kallaga e'tibor susaydi.

Yoki:

³⁰M.Yusuf Saylanma. Toshkent 2017 9-bet

Do'ppi kiymay qo'ydi odamlar,

Na uyda, na ko'chada,

Mirtemirlar, G'afur G'ulomlar,

Yechgan do'ppi qoldi tokchada...³¹

Chindan ham hozir do'ppi kiyadigan insonlar yo'q hisobi. Shoir do'ppilarni “yolg'on do'ppi”, “rost do'ppiga” ajratadi. Chust, Andijon, Marg'ulon do'ppilari faqat “kinolarda ko'rinadi” deydi. Boshga munosib do'ppi yo'qmi yoki do'ppiga munosib bosh yo'qmi? Shoir “Kallaga e'tibor susaydi” deganda nimani nazarda tutayotganini sezgan bo'lsangiz kerak. M Yusuf kichkina hayotiy haqiqatdan katta badiiy haqiqat yarata oladigan iste'dodli shoir edi.

M. Yusufning har bir she'ri o'ta xalqchilligi, ommabobligi, oddiyligi bilan o'quvchini o'ziga sehrlaydi. Shoir merosida bunday she'rlar juda ko'p. Biz kapalakarni kundalik hayotimizda bot-bot ko'ramiz va ularga ko'p ham ahamiyat beravermaymiz. M.Yusuf kapalakdan biror ma'noni ifodalash uchun poetik obraz sifatida foydalangan. Ularning yashash tarzini insonlar taqdiri bilan bog'lab, muhim falsafiy xulosa chiqaradi. Kapalaklar eng beozor, birovlariga zarar yetkazmaydigan, yolg'onni, aldanchilikni bilmaydigan hasharot. Boshqacha aytganda, hasharotlarning eng “ideali”. Shoirning quyidagi ta'rifida shu g'oya ilgari surilgan.

Gulga qo'nsa qanotlari botmaydi,

Ojizlarim birovga tosh otmaydi,

Bir kun yashar, bir-birlarin sotmaydi,

Kapalakar odamlardan mehribon...

³¹M.Yusuf Saylanma. Toshkent 2017 168-bet

Yana bir misol:

Bir qarasang , na kulbasi uyi yo'q,

Na tovushi, na qo'shig'i, na kuyi yo'q,

Kapalakning kambag'ali, biyi yo'q,

Kapalaklar odamlardan mehribon.

She'r ifoda shaklining oddiyligidan tashqari, fikr juda hayotiy va salmoqli. Muallif g'oyani kapalak obrazi orqali juda ta'sirli talqin etgan. Odamlararo munosabatdagi murakkabliklar, birov-birovga tosh otishi, qalbga ozor yetkazish, hiylagarlik va sotqinlik, hiyonat kabi illatlar inson zotiga nomunosib ekani haqidagi shoir qarashlari, insonlarni mehr-oqibatli bo'lishga chaqiriq g'oyalari she'rni bezab turgan fazilatdir. Shoir bir o'rinda "Muhammadga ishongan ey, mo'minlar, O'lsam so'zim eslab, o'ygacha cho'minglar, Kapalakning qanotiga ko'minglar" deb yozadiki, bu falsafiy xulosani o'qib shoir mahoratiga tan berasiz. M.Yusuf she'riyatining qudrati ham shunda, betakror obrazlarda insonlarni mehr-oqibatga da'vat etishda. Bu masalada shoirga kapalak obrazi qo'l kelgan deb o'ylaymiz.

M.Yusuf ijodida o'zbek xalqi tarixida o'tgan buyuk siymolarni, ularning ulug' ishlarini hozirgi avlodga ibrat qilib ko'rsatish yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu bir jihatdan, milliy qadriyatlarga ega bo'lgan e'tibor va hurmatning bir belgisi hamdir. Shoirning "Navoiy", "Amir Temur", "Bobur nidosi", "Usmon Nosir", "Fayzulla Xo'jayev marsiyasi" va yana boshqa bir necha avlod ajdodlar haqidagi she'rlari samimiyligi, talqinning o'ziga xosligi ajralib turadi. Muallif onalar mavzusiga ham bir qator she'rlar bag'ishlagan. "Onamga", "Onamga xat", "Onajon, onajon", "Ona, meni nega", "Onaizor", "Onamdan xat", "Onam yig'lar" kabi she'rlarida shoirning onaga, onalarga mehri, sadoqati, farzandning onasiga ko'rsatgan oqibatidan qoniqmaslik kechinmalari, qarzdorlik hissi juda ta'sirli bayon etilgan. Muallif o'z onasi timsolida barcha onalarga xos fazilatlarni umumlashtirib berishga muvaffaq bo'lgan. Shoir bir she'rida yozadi:

Oh, mening ortimdan ovvora onam,
Bir parcha yuragi ming pora onam.
Har baloni ko'rib yorug' dunyoda,
Toshkanni ko'rmagan bechora onam.
Bolang bo'lib bir bor boshlab keldimmi,
Endi men ham senga o'g'il bo'ldimmi?...

Shoir ona haqidagi boshqa bir she'rida onaning farzandga mehrini, fidoiyligini juda ta'sirli misralarda ifodalagan.

Gulday kulib yurmasmidi, o'g'lim deb,
Ko'rib ko'ngli to'lmasmidi, o'g'lim deb,
Ona o'lsa bo'lmasmidi o'g'lim, deb
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u ...

O'zbek adabiyotida juda ko'p she'rlar yozilgan. Lekin hech bir shoir, onaning farzandga mehrini bunchalar hayotiy va ta'sirli misralarda bermagan bo'lsa kerak. Umuman, M.Yusuf she'riyatida ona obrazi rang barang qirralarda bilan o'ta samimiy va jozibador talqin etilgani bilan ibratlidir. Har bir o'quvchi ona obrazi timsolida o'z onasini ko'z oldiga keltira oladi va onasiga mehr-oqibatli bo'lish, uni qadrlashni qalbiga tugib qo'yishi shubhasiz. M.Yusufning otaga bag'ishlangan turkum she'rlari ham borki, ularda ham otani ulug'lash, mehr ko'rsatish g'oyalari ilgari suriladi va chiqarilgan xulosalar ham ibratli.

She'riyatni obrazlilikdan xoli tasavvur qilish mushkul. She'r qanchalar obrazli fikrga yo'g'irilgan bo'lsa, u shunchalik ta'sirli va badiiylilikda barkamol bo'ladi. Bu ilmda isbotlangan haqiqat. M.Yusuf she'riyatining betakror xususiyatlaridan biri ham shunda – obrazli mushohadada. Shoir ba'zi she'rlarida bu mezunga amal qilib qalam tebratganini yuqorida qisman ko'rdik. Shoirning “Iqror” degan bir she'ri bor. She'r chinakam milliy ruhda yozilgan.

O'zbekistonning buyukligi, betakrorligi obrazli shaklda shunday ta'riflanadiki, boshqa bir shoirida bunday talqinni ko'rish amri mahol. Qiyos o'ta original. Betakror obrazlilik she'rni bezab turibdi:

O, ota makonim,
Onajon O'lkam.
O'zbekiston jonim to'shay soyangga,
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam
Rimni alishmasman bedapoyangga ...

Bandning oxiriga satriga e'tibor bering. Qiyos juda original. Vatanni ulug'lashni, unga sadoqatni bundan oshirib ta'riflash juda qiyin bo'lsa kerak. Quyidagi bandda kashfiyot darajasidagi yana bir obrazli fikr bor.

Ko'rdim suluvlarning eng faranglarin,
Yo xudbinman, yo bir soda kasman men:
Parijning eng go'zal restoranlarin,
Bitta tandiringga alishmasman men ...

“Farang suluvlari”, “Parij restoranlari”, “O'zbekning tandiri” – bular shoirning topinmalari, badiiy kashfiyotlari desak, mubolag'a emas. Bitta “tandir” atamasi butun boshli she'rga milliy jilo berib turibdi. She'r o'zbekona poetik ohang sug'orilgani shoir mahorati belgisidir. She'rning mantiqiy xulosasi mana bunday:

Sen bilan o'tgan har kun bayram-bazm,
Sensiz bir on qolsam rahmim keladi.

Seni bilganlarga qilaman ta'zim,

Seni bilmaslarga rahmim keladi.

M.Yusuf ona Vatanni shu tarzda madh etdi, boshqalarni ham Vatanni sevishga, uni qadrlashga, uning bir siqim tuprog'iga ham sajda qilib yashashga chorladi. Bu fikrlarni shunchaki, oddiy axborot tarzida emas, chinakam badiiy ifodalarda obrazli shaklda talqin etdi. Shoirning "Jayron", "Qushlar ham yig'lar", "Kuzda ketgan turna", "Ko'klamoyim", "Qizg'aldoqlar qo'ynida", "Qaldirg'och", "Qizilgul", "Qora qumg'on", "Cho'loq turna", "Lolaqizg'aldoq" kabi she'rlarida ham obrazli qiyoslar, ishoralar, ramzlar vositasida olam va odamlar haqidagi qarashlarini, xulosalarini majoziy shaklda berishga erishgan. Umuman shoirning bir she'ri yo'qki, ma'no salmog'i yengil, ifoda usuli mohiyatan sayoz bo'lsin. Barchasi badiiyatning mezonlariga to'la-to'kis javob bera oladi va bu holat M.Yusufning badiiy mahorat bobida o'ziga xos talant yo'nalishiga ega so'z san'atkori ekanligidan darak beradi.

Ixcham bir maqolada M.Yusuf she'riyatining barcha fazilatlarini qamrab olish imkoni yo'qligi o'z-o'zidan ma'lum. Biz shoirning adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilikda tan olingan, yuqori baholangan, xalqimiz orasida ommalashib ketgan ba'zi she'rlari to'g'risida, xususan, shoir uslubiga xos oddiylilik negizida katta falsafiy ma'nolarni ifoda eta olish salohiyati to'g'risida fikr bildirdik. Chunki, M.Yusuf aynan shu xususiyati, yani fikrni soda adabiy shaklda ifodalash jihati bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi. Bu xislat biz tahlilga tortgan she'rlardagina emas, shoirning har bir to'plamiga kirgan she'rlariga ham xos. Aytaylik, muallifning "Bulbulga bir gapim bor", "Iltijo", "Uyqudagi qiz", "Ishq kemasi", "Ko'nglimda bir yor", "Erka kiyik", "Biz baxtli bo'lamiz", "Saylanma"lariga kirgan she'rlarida, shuningdek "Qora quyosh", "Ko'hna quduq" singari dostonlarida mazkur uslubiga sodiq qolgan, ya'ni soda yozishga harakat qilgan va bunga erishgan ham.

Umumiy xulosamiz shundan iboratki, M.Yusuf o'zbek she'riyatiga o'ziga xos poetik ovoz, o'ziga xos yozish uslubi bilan kirib keldi. Qisqa umr

davomida o'zbek she'riyatini betakror asarlari bilan boyitdi, uning taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdi. O'ziga xos maktab yaratdi. Bu maktab yosh ijodkorlar uchun o'qish, o'rganish, ibrat olish chashmasi vazifasini o'tamoqda. Shunday ekan, shoir merosi hech qachon unutilmaydi, bu ijod abadiylikka daxldordir.

Uchinchi bob

Muhammad Yusuf she'riyati qoraqalpoq tilida

1.1 She'riyati qoraqalpoq tilida

Badiiy tarjima adabiy aloqalarning, jumaladan, o'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalarining muhim sahifalaridan biri. Bu hamkorlikni badiiy tarjimalarsiz tasavur qilish mumkin emas. Ilmda isbotlangan haqiqat bu. Qoraqalpoq-o'zbek adabiy aloqalari haqida so'z ochilgudek bo'lsa, birinchi navbatda, ikki qardosh adabiyotidan qilingan o'zaro tarjimalar tilga olinishi bejiz emas. Qoraqalpoq mumtoz va zamonaviy shoirlarining qator asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib nashr qilinganidek, o'zbek adabiyotining nodir namunalari ham qoraqalpoq tiliga o'girilib kitobxonlarga taqdim etilganiga ko'p yillar bo'lgan. Hozir har ikki adabiyotdan o'zaro tarjimalarni ro'yxat qilsak, bir necha sahifa bo'lishi aniq.

Qoraqalpoq kitobxonlarida o'zbek adabiyotiga, jumadan, o'zbek she'riyatiga qiziqish katta ekanligidan darak beradigan faktlar juda ko'p. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek shoirlari asarlarining qoraqalpoq tiliga tarjima qilinishi misolida bu fikrni dalillash mumkin. H. Olimjon, Zulfiya, G'. G'ulom, Mirtemir, E. Vohidov, O. Hojiyeva, S. Rahmon va yana o'nlab o'zbek shoirlarining asarlari qoraqalpoq tiliga o'girilib, kitob shaklida chop etilgan. Biz faqat ba'zi she'riy tarjimalarnigina tilga oldik. Agar bu sanoqqa o'zbek yozuvchilarining nasriy asarlari tarjimalarini ham qo'shsak, bu jarayonning naqadar salmoqli va salohiyatli ekanligini tasavvur qilish mumkin.

O'tgan asrning 70-80-yillarida o'zbek adabiyotiga, aytaylik, she'riyatiga kirib kelgan atoqli shoirlar asarlarini qoraqalpoq tiliga o'girishda bir qator

qoraqalpoq tarjimon-shoirlarning mehnatini alohida tilga olishni istardik. O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning she'riy to'plamlarining qoraqalpoq tiliga tarjima qilinib alohida kitobcha tarzida chop etilgani muhim voqealardan biri bo'ldi desak mubolag'a emas. M. Yusuf she'riyati salohiyatli, go'zal she'riyat. U nafaqat o'zbek kitobxonlarini, balki qardosh adabiyot ixlosmandlarini ham qiziqitirdi. Shoir ijodi bilan qiziqish, uning asarlari bilan tanishish ishtiyoqi tarjimonlarni bu ishga ilhomlantirdi. M. Yusuf she'rlari bir necha qardosh tillarga tarjima qilishga ilhomlantirdi. Shoir she'rlari "Goshgular" degan nomda turkman tilida alohida kitob shaklida bosib chiqarildi. Ba'zi she'rlari qozoq va qirg'iz tillarida ham e'lon qilindi. Uning she'rlari va dostonlardan iborat to'plami rus kitobxonlariga ham yetkazildi. Shoirning ba'zi she'rlari ingliz va nemis tillarida ham bosilib chiqqanligi to'g'risida ma'lumotlar bor

Yuqorida tilga olganimizdek, M. Yusufning qoraqalpoq tilidagi to'plami

"Biz baxitli bolamiz" degan nomda, 2004-yilda nashrdan chiqarildi. She'rlarini taniqli qoraqalpoq shoiri Bazarbay Seytayev qoraqalpoq tiliga o'girdi. Kitobning annotatsiyasida quyidagi misralarni o'qiyimiz: "Ózbekistan xalıq shayı, márhum, Muhámmed Yusuf tábiyat ilahiyda talant bergen, tatli lirika táńkarlıq obrazlarǵa toli poemalardıń avtorı edi. Onıń lirikasi Ózbekistan xalıqlarınıń, sonıń ishinde qaraqalpaq xalqınıń-da ruuhiy mulkine aylanıp ketken. Takirarlanbas talant iyesi, ásirese, qosıqshılıq óneriniń rauajlaniuna ulken ules qostı".³²

Bu ma'lumotlar M. Yusuf she'riyati to'g'risidagi o'zbek adabiyotshunosligida aytilib, yozilib yurgan fikrlarga nihoyatda hamohang. Demak, qoraqalpoq kitobxonlari, ijodkorlari ham M. Yusuf talantiga, noyob iste'dodiga, o'zbek qo'shiqchilik san'atiga qo'shgan hissasiga yuqori baho berishgan, shoir merosini g'oyat qadrlaydi. Ayni paytda, kitobning ilk sahifasida shoir tarjimayi holiga doir ma'lumotlar berilgan. Muallif nashr qildirgan kitoblar tilga olingan. "Saylanma" asarlarining o'zbek tilida bir necha marta chop etilgani

³² M. Yusuf. Biz baxitli bolamiz. B. Seytayev tarjiması. Nusus-2004.2-bet

to'g'risidagi ma'lumotlar qoraqalpoq o'quvchisining M. Yusuf ijodi haqidagi tasavvurlarini to'ldirishi shubhasiz.

B.Seytayev talantli qoraqalpoq shoirlaridan biri. Tarjimachilikda ham ozmi-ko'pmi tajriba to'plagan qalamkash. O'zbek adabiyotining boshqa shoirlari she'riyatidan namunalarni qoraqalpoq tiliga o'girib matbuotda e'lon qilgannidan xabarimiz bor. Bu tajriba unga M. Yusuf she'rlarini muvaffaqiyatli tarjima qilishda qo'l kelgani shubhasizdir. Mazkur to'plamga shoirning o'ttiz olti she'ri va ikki dostoni tarjima qilib kiritilgan. Tarjimon tarjima uchun M. Yusufning eng mashhur, o'zbek kitobxonlari o'rtasida juda ommalashgan she'rlarini tanlagan. “ Biz baxtli bo'lamiz”, “ Lolaqizg'aldoq ”, “ Vatan ”, “ Mashrab nolasi ”, “ Bir qiz yig'lar ”, “ Ko'nglimdagi yor ”, “ Onamdan xat ”, “ Jayron ”, “ Iqror ” kabi she'rlarining tarjima uchun tanlangani va ularni asl nusxaga moslashtirib juda muvaffaqiyatli o'g'irgani tarjimonning katta yutug'idir. Har bir she'rning tarjimasi to'g'risida keng doirada fikr bildirish imkoni yo'q. Ba'zilarigagina yo'l-yo'lakay fikr aytish bilan cheklanamiz. “ Biz baxtli bo'lamiz ” she'ri shior lirikasining go'zal namumalaridan biri. She'rning ifoda usuli ham o'ziga xos, erkin she'r shaklini eslatadi. Tarjimon she'rni so'zma-so'z o'girish yo'lidan borgan. Bu usul tarjima tajribasida qo'llanadi. Agar asliyatdagi so'zlarning muqobili tarjima qilinayotgan tilda shu shakl va mazmunda mavjud bo'lsa, ularni tarjima qilishga zarurat yo'q. Quyidagi misollarni solishtirib ko'rsangiz o'zingiz ham shu xulosaga kelishingizga ishonamiz:

Mayli-da, kimgadir

Yoqsa ,

Yoqmasa.

Ularga qo'shilib

Yig'lasharmidik,

Biz baxtli bo'lamiz

Xudo xohlasa –

Xudo xohlamasa

Uchrasharmidik.³³

Tarjimada:

Meyli-dá, kimgedur

Jaqsa,

Jaqpasa

Olarǵa qosılıp

Jilasarmedik?

Biz baxıtlı bolamız

Quda qálese –

Quda qálemese

Ushirasarmedik...³⁴

Ko'rib turganingizdek, she'r misrama-misra, so'zma-so'z o'girilgan. She'rning ifoda shakli ham buzilmagan. Qofiya, bo'g'in o'lchovlari bir xil. Biror misra, hatto so'z ham tushirib qoldirilmagan. Lekin bundan, bu shunchaki, ko'chirma tarjima deb xulosa chiqarish to'g'ri emas. She'r tarjimasida qoraqalpoq tiliga xos ohang, ritm bor. Bu, bizningcha, tarjimaga ijodiy yondashuvning bir belgisi. Tarjimada biror kamchilik borligini sezmadik.

M. Yusuf lirikasida barmoq usulida yozilgan she'rlar ham ko'p. Tarjimada bu she'rlarni tarjima qilishda ham asl nusxadan uzoqlashmaslikka intilgan va bunga erishgan ham. "Jayron" nomli she'r shoir lirikasining go'zal,

³³ M. Yusuf. Saylanma. Toshkent-20017. 19-bet.

³⁴ M. Yusuf. Biz baxitli bolamiz. B. Seytayev tarjimasi. Nusus-2004.3-bet

obrazlikka yo'g'rilgan lirika namunalaridan biri. Muallif jayron poetik obrazi orqali ezgulik bilan yovuzlik orasidagi azaliy va abadiy qarama-qarshilikni ma'juziy ma'noda berishga muvaffaq bo'lgan. Jayron beozor hayvon, ezgulik timsoli. Biroq uni ta'qib qiladigan " bag'ritoshlar ", " ezgulikni ko'rolmaydiganlar ", " tosh otadigan gumrohlar " jayronga ozor yetkazadi. Bundaylarga shoirning aytadigan gapı bor. She'rdagi bu ezgu go'ya tarjimada ham yaxshi saqlangan. Quyidagi misolni solishtirib ko'raylik:

Asl nusxada:

Qon yig'latdi qaysi bag'ritosh,
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?
Oyog'ingga qo'yib yotay bosh,
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?
Yurak qoning to'kilgan so'qmoq
Bag'ri alvon lolaqizg'aldoq,
Senga toshlar otdi qay gumroh,
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?...³⁵

Tarjimasi:

Qan qaqsatqan qaysı tasbaur,
Jeyran, nege kózlerińde jas?
Bul qusiumet ne degen aıur
Jeyran, nege kozlerińde jas?

³⁵ M.Yusuf.Saylanma.Toshkent-20017. 12-bet

Jurek qanıń tógilgen soqpaq,

Qushaq tolı lala qizg'aldaq,

Saǵan taslar attı qay aqmaq,

Jeyran, nege kózlerińde jas?³⁶

Tarjimaning umumiy saviyasiga e'tiroz bildirish qiyin, uni ijobiy baholasa bo'ladi. Biroq ba'zi misralarni tarjima qilishda tarjimon asliyat mazmunini yaxshi tushunmaganligi oqibatida ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'ygan. Masalan, birinchi bandning uchinchi misrasidagi "Oyog'ingga qo'yib yotay bosh" ning tarjimada "Bul qusuimet ne degen auir" deb tarjima qilingani o'zini oqlamagan. Shoir jayronga sadoqatini shu shaklda, "oyog'ingga bosh qo'yib yotay" mazmunida ifodalayapti. Tarjimada lirik qahramonning jayronga sadoqati haqidagi fikr yo'qolib ketgan, qandaydir mavhum og'ir taqdir haqida gapriladi. Ikkikchi bandning ikkinchi misrasidagi "Bag'ri alvon lolaqizg'aldoq" tarjimasi ham yaxshi chiqmagan. Shoir jayronning bag'ri lolaqizg'aldoqqa to'lib ketgan demoqchi. Misrada shoirning jayronga achinish tuyg'ulari ifodalanyapti, uning qismatidan, bag'ri qonligidan qayg'uryapti. Tarjimada esa bu fikr shunchaki "Qushaq toli lalaqizg'aldaq" qa aylanib qolgan. Tarjimada iztirob kechinmalari yo'q. Boshqa bandlar tarjimasida ham shunga o'xshash mayda-chuyda kamchiliklar uchraydi. Lekin bular tarjimaning umumiy bahosini tushira olmaydi. U yaxshi tarjimalar qatorida turishga haqli.

O'zbek-qoraqalpoq yoki qoraqalpoq-o'zbek adabiy aloqalarining muhim janrlaridan biri badiiy tarjimadir. Badiiy tarjimalarsiz adabiy aloqalarni tasavvur qilish mushkul.

Tarjima — bir tildagi matni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima - millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra tafsir, tabdil, sharh kabi

³⁶ M. Yusuf. Biz baxitli bolamiz.B.Seytayevev tarjimasi. Nusus-2004.28-bet

ko‘rinishlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og‘zaki turi hozirda ham saqlangan.

Zamonlar osha tarjimaga bo‘lgan talablar yangilana boradi. Ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san’ati ekanligi o‘zgarmaydi. Tarjimaning ko‘lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma’rifiy darajasiga bog‘liq va o‘z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta’sir etadi. "Tarjima" atamasi bir tildan ikkinchi tilga o‘girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi.

Badiiytarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidankelib chiqadi. Til badiiyasarda estetik hodisa, san’at faktiga aylanadi. Adabiyasar tili — alohida "badiiy voqelik" unsuridir. Tarjimada anashu obrazli ifodaviy tildagi badiiy ma’noni boshqatilning obrazli ifodaviy zaminiga o‘tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun zamonaviy tarjima

talablariga asosantarjimonasliyatning san’at asarishakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlash ilozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an’analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi.

Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimining imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tarjima jarayonida tarjimon hamma vaqto‘z ona tilida fikrlaydi, ona tili ungatahlil quroli, sinov mezon bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, Nizomiyning "Xisravva Shirin" dostonini o‘giran Qutb ("...Nizomiy bolidan hol vapishurdim") tarjimanusxako‘chirish kabibirish bo‘lmay, ijodiy jarayon ekanini, tarjimon esa "boldan hol vapishiruvchi" mohir yozuvchi bo‘lishi kerakligini aytadi.

Turli davrlarda muayyan hududdagi adabiy muhit, ayniqsa, maxsus tarjima maktablarining yuzaga kelganligining o‘ziyoquningshakllangantamoyi llari, an’analari bo‘lganligini ko‘rsatadi. Tarjima xalqlarda o‘stligini ta’minlovchi ommalardan biri hamdir.

Xalqimizning ardoqli farzandi, O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf she’rlari dunyoning bir qancha tillariga, jumladan, ingliz, rus, uyg‘ur va qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan. Shoirning she’rlarini Bazarbay Seytayeov,

Sharafaddin Ayapov, Kengesbay Karimovlar qoraqalpoq tiliga tarjima qilishgan. B. Seytayeov 2004-yili shoirning bir qancha she'rlarini o'zbek tilidan qoraqalpoq tiliga o'girib, "Biz baxitli bolamiz" degan nom bilan alohida kitob shaklida nashr ettirdi. Bundan tashqari, Sh.Ayapov va K.Karimov M.Yusuf tavalludining 60 yilligi munosabati bilan shoirning she'rlarini ("Iqrar", "Shukir deyseng sen qashan?", "Studentler gimni", "Anama") "Amudarya" jurnalida e'lon qilishgan. Endi e'tiboringizni tarjimonlarning o'zbek tilidan qoraqalpoq tiliga qilingan ba'zi tarjimalariga qaratamiz.

M.Yusuf ijodidagi 2017-yil chop etilgan "Saylanma" sida "O'zbekiston" deb nomlangan she'ri hissiy bo'yoqdorligi, jozibadorligi bilan ko'plab muxlislarning Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatini ifoda etib kelganligi bilan diqqatga sazovor.

Tarjimon, shoirning birinchi to'rtligini misrama –misra tarjima qilishda ijodiy tayyorgarlik bilan kirishilganligiga guvoh bo'lamiz. Tub nusxaning mazmuni, poetik ruhi, tarjimada yaxshi aks etgan. Fikrimizning isboti sifatida she'rning birinchi to'rtligini qiyoslab ko'raylik:

Asliyatda: O, ota makonim,
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, **jonim to'shay soyangga.**
Senday mehribon yo'q,
Seningday ko'rkam,
Rimni alishmasman **bedapoyangga.**³⁷

Tarjimada: O, ata makanim,
Anajan ulkem.
O'zbekistan! **Janim pida sayana**
Sendey mexriyban joq,
Senindey korkem,
Rimdi alispayman **bedapayana.**³⁸

³⁷. M.Yusuf.Saylanma.Toshkent-20017. 267-bet

Misralar deyarli so'zma-so'z o'girilgan. Ba'zi misralardagi ijodiy yonashuv o'zini oqlagan. Masalan, asl nusxadagi "jonim to'shay soyangga" ning "janim pida sayanga" mazmunida o'girilgani juda muvaffaqiyatli chiqqan.

Mutarjim K.Karimov shoirning "Onam"ga nomli she'rini tarjima qilishda ikkinchi misradagi mazmuni to'laligicha tushirib qoldirgan. Misralarni qiyoslab ko'ramiz.

Asliyatda:

Garchi bisotingda "bayram" so'zi yo'q,

Bilaman, kutasan **sandal** to'la cho'g'.

Tarjimada:

Tiliñniñ ushında bayram sózi joq,

Sağan jetkilikli **oshağında** ot.

Tarjimon "**sandal**" so'zini ovqat ya'ni taom pishiradigan "**o'choq**" deb tarjima qilgan. Ammo sandal bilan o'choq ikkisi ikki xil narsa. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "sandal-qish kunlari isinish uchun, xonaning o'rtasiga chorburchak chuqurchaga o'rnatilgan, ustiga ko'rpa yopilib atrofiga ko'rpachalar to'shalgan xontaxta". Sandal so'zi qoraqalpoq tilining "Tusindirme sozligi" kitobida mavjud emas. Nazarimda shoir asliyatda qish kunlari sandal atrofida o'tirib o'g'lini intizorlik bilan kutgan ona siymosini gavidalantirgan bo'lsa, mutarjim tarjimasida esa, bolalari, farzandlari ko'pligidan o'chog'idagi o't ertayu-kech o'chmagan degan ma'noni anglatib turibdi. Demak, mazmuni tarjimada buzilgan.

M. Yusufning "Saylanma" sidagi "Shukr deysan, sen qachon?" nomli she'rini B. Seytayev va Sh. Ayapovlar tarjima qilishgan. Ushbu she'r ikki tarjimonda ikki xil variantda tarjima qilingan. Asliyat va tarjimalarni qiyoslab ko'ramiz.

Asliyatda: **Ta'magirni** tortqilab,

Nafsi qo'ymas deydilar.

Nokas o'zi to'ysa ham,

Ko'zi to'yimas deydilar. ³⁹

B. Seytayeв tarjimasida:

Alimsaqtı tartqılap.

Nápsi qoymas deydiler,

Nakas ózi toysa hám,

Kózi toymas deydiler.⁴⁰

Sh. Ayapov tarjimasida:

Dámegóydi tartqılap,

Napsi qoymas deydi eken.

Nakas ózi to'ysada,

Kózi toymas deydi eken. ⁴¹

Bir she'rni ikki tarjimon ikki xil o'giran. "Ta'magir" so'zi ba'zi tarjimonlarni chalg'itgan.

Asl nusxada berilgan "ta'magir" so'zini tarjimonlar ikki xil variantda tarjima qilishgan. B. Seytayeв variantida "alimsaq" deb tarjima qilingan bo'lsa, Sh. Ayapov bu so'zni "damegoy" tarzida keltirgan. Endi e'tiboringizni qoraqalpoq tilining "tusindirme sozligi" da izohlangan "alimsaq" va "dámegóy" so'zlariga qaratamiz. "Alimsaq"- tinenshi, esbin tawip ala beretug'in, aliwdi jaqsi koretug'in adam. "Damegoy"- umit etiwshi, dame etiwshi.⁴²

Ko'rinib turibdiki, Sh. Ayapov tarjimasidagi "damegoy" so'zi asliyatdagi ma'noni to'laligicha ochib bera olgan.

Har ikkala tarjimonlarning tarjimalarini o'rganib chiqar ekanman, yuqoridagi she'r tarjimasidagi yana bir holatni keltirib o'tmoqchiman.

Asliyatda|:

Shukr qilar hattoki,

Qumursqa-parrandalar.

³⁹ M. Yusuf. Saylanma. Toshkent-20017. 129-bet

⁴⁰ M. Yusuf. Biz baxitli bolamiz. B. Seytayeв tarjiması. Nusus-2004. 3-bet

⁴¹ "Ámudárya" jurnali. Nukus-2014. 6-son. 70-bet

⁴² Qaraqalpaq tiliniń tusindirme sózligi II tom. Qaraqalpaqstan.. Nukus-1984, 63-bet

Shukr deysan sen qachon,

Xom sut emgan **bandalar?.. 43**

Sh. Ayapov tarjimasida:

Shukir eter háttaki,

Qus- qumirsqa óngeler.

Shukir deysen sen qashan,

Qam sut emgen **bandelar?..44**

B. Seytayev tarjimasida:

Shukr qilar hátteki

Qumirisqalar hám quslar.

Shukr deyseń, sen qashan

Qam sut emgen **bayg'uslar?..45**

“Tusindirme sozlik”da “bayg’uslar”- musofir, bechora, baxtsiz degan ma’nomlarni anglatsa, “bandalar-Allahning quli”⁴⁶ degan ma’noni anglatadi. B.Seytayev “bandalar” so’zini “bayg’uslar” deb tarjima qilgan. Ammo, bayg’uslar so’zi bandalar so’ziga mutlaqo zid. Shoirning o’zi ham asliyatda g’arib, bechora, baxtsiz insonlarni emas, balki Allahning quli, unga itoat etuvchi insonni nazarda tutgan.

Muhammad Yusufning tarjima qilingan she’rlaridagi ba’zi bir kamchiliklarni sanab o’tdik. Lekin, bu kamchiliklar yutuqlarni yashira olmaydi. Umid qilamizki, tarjimonlar ijod qilishdan charchashmaydi! M.Yusuf she’riyatining qoraqalpoq tiliga tarjima qilinishi adabiy jarayonda yangi hodisa. Bu an’nana kelajakda izchil davom etishini istaymiz. Bu ish amalga oshgudek bo’lsa, qoraqalpoq-o’zbek adabiy aloqalari yangi manbalar bilan boyigan bo’ladi. Eng muhimi, qoraqalpoq

⁴³ M.Yusuf.Saylanma.Toshkent-20017.129-bet

⁴⁴Ámudárya ” jurnali. Nukus-2014. 6-son. 70-bet

⁴⁵.M. Yusuf. Biz baxitli bolamiz.B.Seytayev tarjiması. Nusus-2004.3-bet

⁴⁶.O’zbek tilining izohli lug’ati. “ O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti.I jild.157-bet.

tarjima adabiyotining mundarijasi ham kengayadi. Endi shoirning dostonlari tarjimalari haqida ba'zi mulohazalar.

3.2 “Osmonning oxiri ” va “Ko’hna quduq” qoraqalpoqcha ohanglarda

M.Yusuf lirik she’rlar yozish bilan birga, doston janrida ham ijodiy kuchini sinab ko’rdi. Shoirning dostonlari ham uning lirikasi ynglig’ badiiy jihatdan barkamol, g’oyalari salmoqli, o’qimishli. O’zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida bu asarlar ijobiy baholandi, shoirning dostonchilikdagi jiddiy yutuqlari tarzida e’tirof etildi. M. Yusuf butun ijodiy faoliyati davomida uch doston yaratdi. “Ko’hna quduq”, “Osmonning oxiri” va “Qora quyosh” dostonlari shular jumlasidan. Dostonlar mavzu jihatdan turlicha. Hayotning rang-barang qirralari qalamga olingan. Koinot va inson taqdiri bilan bog’liq falsafiy qarashlar (“Osmonning oxiri”), Buxoro tarixi va buguni bilan bog’liq tasvirlar, Orol taqdiriga doir qarashlar (“Ko’hna quduq”), qatag’on yillari fojialari qalamga olingan. “Qora quyosh” kabi dostonlar, nainki, M.Yusuf ijodida, balki o’zbek dostonchiligida ham o’ziga xos o’ringa ega asarlardir.

M.Yusuf dostonlari janri, ifoda shakli jihatidan ham an’anaviy dostonchilikka ham mutlaqo o’xshamaydi. Muallif voqealar bayonida ba’zan nasrga, ba’zan nazmga murojaat etib, g’oyani ochishga, olam va odam haqida original mulohaza yuritishga intilgani shoirning o’ziga xos uslubini belgilaydi. Ba’zi dostonlarning ifoda usuli o’zbek xalq dostonlarini (nasr bilan nazmni aralashtirib berishi) eslatadi. Dostonlarning yana bir o’zgachaligi, ularda ko’zga tashlanib turadigan yaxlit syujet chizig’i, yoki biror konkret obraz borligi ko’zga tashlanmaydi. Shoir hayot haqidagi falsafiy qarashlarini , xulosalarini betakror badiiy uslubda yoritgani, o’zbek dostonchiligida yangi hodisalardan biri desak xato bo’lmas.

B. Seytayev shoirning faqat ikki dostoni – “Osmonning oxiri” va “Ko’hna quduq” dostonlarini qoraqalpoqchalashtirgan. Afsuski, “Qora quyosh” qoraqalpoq tiliga o’girilmagan. “Osmonning oxiri”, yuqorida aytganimizdek, ham she’r, ham nazmda bitilgan. Muallif faqat uch o’rinda she’riy satrlarga murojaat etgan. Dostonda shunday parcha bor: “Ko’rpangga qarab oyoq uzat, dedim o’zim

o'zimga bir kuni. Keyin o'ylanib qoldim. Kim aytgan ekan bu gapni birinchi marta. Ehtimol, Odam Ato Momo Havoga aytgandir. Yo'q, bu yaqin kishilar bir-biriga aytadigan gap emas. Bu gap ko'rpasi bir odamlarning gapi emas." Tarjimon matnni qanday bo'lsa shunday o'girgan, so'z ham qo'shmagan, so'zni tushirib ham qoldirmagan. Qiyoslab ko'raylik: "Kórpeńe qarap ayaq soz, dedim ozim-ozime bir kuni. Keyin, bul gapti birinshi marte kim aytqan eken-ay dep oylanıp qaldım. Báلكim, birinshi marte bul sozdi Adam-Ata Xaua-Enege aytqandur? Yaq, bul jaqın adamlardıń-da bir-birine aytatuđın gápi emes. Bul gáp korpesi bir adamlardıń –da bir-birine aytatuđın gapi emes".⁴⁷

Asl nusxada M.Yusuf bir obrazli ifodani keltirgan: "Ko'rpasi bir odamlar". Tarjimon tarjimada shu iborani xuddi shunday shakl va mazmunda qo'llagan. Qoraqalpoq tilida bu ibora qanday ma'noda qo'llaniladi? Yaqin, bir ko'rpada yotadigan odamlar ma'nosini berarmikin? Har holda bu iboraning qoraqalpoq tilidagi muqobilidan foydalanganda o'rinli bo'lardi degan o'yimiz bor.

"Osmonning oxiri" dostoni alohida-alohida sarlavhalardan iborat. Har bir lavhaning o'z mavzusi, g'oyasi, zamin va insoniy munosabatlar bilan bog'liq fikrlar o'rtaga tashlanadi. Shoirning o'z xulosalari bor. Asarning bu kompozitsion o'zgachaligi tarjimada aynan berilgan. Fikr va g'oya salmog'i tarjimada ham yaxshi chiqqan. Yana bir lavhaning kichkina bir parchasini tarjimaga solishtirib ko'raylik. Koinot, yer-u zaminga egalik qilish kimgadir bog'liqmi? Uni insoniyat boshqara oladimi? M. Yusufning bu fikrlari asarda quyidagi shaklda talqin etildi.

"Osmon hech kimga qaramaydi,

Bulutlarning ham egasi yo'q.

Hech kim quyoshni ham "meniki", deb aytolmaydi. Agar shunday da'vogar topilsa, uni devonaga chiqarishadi. Xo'sh, nega odamlar yerga egalik qilishadi. Atrofni o'rab olishadi-da, bu yer "meniki" deyishadi. Yer talashib bir-birini o'ldirishadi. Menga aytingchi, bahorning egasi kim?...

⁴⁷ M. Yusuf. Biz baxitli bolamiz. B.Seytayev tarjimasi. Nusus-2004. 15-bet

Shoir mushohadalarida qanday falsafiy ma'no, g'oya yashiringanini sezayotgan bo'lsangiz kerak. Tarjimon parchaning ma'no-mohiyatini chuqur idrok etgan holda uni qoraqalpoq tilida yaxshi bera olgan. Qiyoslang:

“Aspan xesh jerge qaramaydi,
Bulutlardiń-da iyesi joq.

Hesh kim quyashti “meniki” dep aytalmaydi. Eger sonday dáuáger tabılsa, jillige shig'aradi. Xosh, adamlar nege jerge iyelik etedi. Atrapın qorshap aladıda bul jer “meniki” deydi. Jáne talasıp birin-biri óltiredi. Mag'an aytıńshı, báhárdiń iyesi kim?...”.

Tarjimada ba'zi juz'iy nuqsonlar borligi ko'rinadi. Asl nusxadagi “Osmon hech kimga qaramaydi” misrasi “Aspan xesh jerge qaramaydi” mazmunida o'girilgani asl nusxadan birmuncha uzoqlashishga olib kelgan. “Hech kim” bilan “Hech yer” mazmunan bir-biridan farq qiladi. Asl nusxada yer haqida emas, odamlar haqida so'z yuritilyapti. Shunday ekan, tarjimon aslini o'zicha qoldirgani ma'qul edi. “Devona” so'zini “jilli” ma'nosida qo'llash ham biroz qo'polroq. “Telba” yoki “darvesh” so'zlarini ham ishlatsa bo'lardi.

Mazkur tarjima xususidagi xulosaviy fikrimiz shundan iboratki, tarjimon samarali mehnat qilgan. Dostonning barcha fazilatlarini qoraqalpoq tilining imkoniyatlaridan foydalanib yaxshi o'girgan. Muhimi asarni qisartirib tarjima qilish yo'lidan bormagan. Qozonda nima bo'lsa, tarjimada shuni chiqarishga muvaffaq bo'lgan.

Endi “Ko'hna quduq” tarjimasini haqida. Asarda nasriy parchalardan ko'ra she'riy bandlar ko'proq. Doston she'r bilan boshlanadi. She'rlarning aksariyati barmoq usulida bitilgan. Lekin ba'zi she'rlarda an'anaviylikdan chekinish hollari ham uchraydi. Doston Buxoro ta'rifi bilan boshlanadi. Asl nusxada shunday satrlarni o'qiymiz:

Qanday go'zal eding, Buxoro,
Osmono'par gumbazlar aro.
Men ziyorat qilib ovvora,
Topolmadim bir sog' minora.

Sen cho'kibsan, kim o'sdi, aziz,
Tomiringni kim kesdi, aziz,
Qanday topay qabringiz endi,
Buyuk bobolarim qaydasiz?...

Tarjimasi:

Qanday gozzal ediń, Buxara,
Kókti qushqan gumbezler ara.
Men ziyarat áylep auara,
Tabalmadım bir saw minara.

Sen shógipseń, kim ósti, aziz,
Tamırıńdı kim kesti áziz?
Qayda eken qábringiz endi,
Ullı babalarım qaydasız?...

Tarjimon bu yerda ham so'zma-so'z tarjima usulidan foydalangan. Muhimi, tarjimada muallifning Buxoro qismati bilan bog'liq iztirobli tuyg'ulari qoraqalpoqcha ohangda, milliy koloritni yo'qotmagan holda, to'la berishga erishgan. Buxoro ta'rifiga bag'ishlanib ko'p she'rlar yozilganu, lekin hech bir shoir Buxorning o'tmishi-yu buguniga qayg'urib, uning tarixidan faxrlanib M.Yusufdek qaynoq satrlar bitmagan bo'lsa kerak. Quyidagi to'rtlikda shoirning azim Buxoroga mehri naqadar ulug'ligini his qilish mumkin:

Buxoro, Hotamga o'xshaysan,
Yov kelsa ham to'shak to'shaysan.
Qo'ling ochiq, ko'zlaring yumuq –
Sen mening otamga o'xshaysan...

Tarjimada:

Buxara, Xatamtayga uqsaysan,
Jaw kelse de tosek toseysen,
Qolın ashıq, kózleriń jumıq –
Sen meniń atama uqsaysań...

Buxoro buyuk insonlarga beshik bo'lgan diyor. Ibn Sinodek alloma, Fayzulla Xo'jayevdek qatag'on qurboni bo'lgan insonlar dostonda faxr bilan tilga olinadi, ularni tahqirlagan zamonga la'nat toshlari yog'diriladi. Buyuk-buyuk minoralar barpo etgan me'morlar ulug'lanadi. Shukur Burxondek san'at olamining darg'alariga hamdu sanolar o'qiladi. San'atkorning o'limiga marsiya yanglig' bir she'r bitadi. Bu ham dostonning ta'sirli lavhalaridan biri. Tarjimon ulug' san'atkorga bag'ishlangan she'rni tarjima qilishni nazardan soqit qilmagani o'rinli bo'lgan. O'quvchi she'rning asl nusxasini o'qiganda qanday hayajonlanib, ta'sirlansa, uning qoraqalpoq tilidagi varianti ham shunday zavq va hayajon beradi. She'rning ikki bandini solishtirib ko'raylik:

Shukur Burxonni ham kuzatib qo'ydik,
Ketdi qon yuragi uztida qo'li,
Ortidan ergashib borib biz qo'ydik,
Yerga qo'yib keldik o'pkamiz to'lib...

Tirigida hech kimga aytmagan gaplar,
Hali sovumagan tuprog'iga yog'di,
Yig'ladi umrida yig'lamagan arboblari,
Ko'zidan yoshlari sel bo'lib oqdi.

Bu qayg'uli kechinmalarning qoraqalpoqcha tarjimasi ham juda ta'sirli chiqqan. Tarjimon o'zining shoirlik talantini ishga solib, bandlarni juda me'yorida tarjima qila olgan.

Shukir Burxandi da uzatip saldiq,
Ketti ju'egi qan ustinde qoli,
Qoyday erip izinen telmirip qaldiq,
Jerge berip kedik opkemiz tolip.

Tirisinde xesh kim aytpagan gaplar,
Suvimag'an topiragina burshaqtay japti
Jiladi omirde jilamag'an ulken arbaplar,
Koziniñ jasları sel bolip aqtı...

Tarjimaning poetik ohanggiga gap yo'q, yaxshi. Lirik qahramonning qalb iztiroblari, buyuk san'atkorga munosabatdagi soxtaliklar, ba'zi shaxslardagi ikkiyuzlamachilik illatlari ochib tashlangani tarjimada ham aks etgan. Lekin tarjimon ba'zi o'rinlarda asl nusxaga muvaffaqiyatsiz ijodiy yondoshgan. Birinchi bandning uchinchi misrasiga qo'shilgan "orqasidan qo'ydek ergashib" jumlasini yaxshi chiqmagan. Asliyatda "qo'y" haqida umuman gap yo'q. Bu juz'iy nuqson tarjimaning saviyasini pasaytirishga qodir emas.

"Ko'hna quduq" dostonida bir lavha tasviri diqqatimizni tortdi. Bu dostonning oxiridagi Orol haqidagi tasvir. M. Yusuf ijodida, umuman, qoraqalpoq mavzusida biror asar borligini uchratmadik. Lekin shoir mazkur dostoniga Orol mavzusini olib kirgani ushbu asarning o'ziga xos fazilatlaridan biri deb hisoblaymiz. "Men ham Orolman, Buxoro ham – Orol" deydi shoir. Yana bir o'rinda M.Yusuf: "Biz barchamiz Orol va orolchalarmiz. Toki bir-birimizni asrashni bilmas ekanmiz, bitta-bittadan quriyveramiz. Orolning joni orolchalar qo'lida. Orolchalar esa odamlarning ko'ksida. Odamlarning ko'ksi esa bir-biridan suv ichadi".

Muallif fikrlarining ma'no-mohiyatida nainki Orolga achinish, balki dengizning taqdiri odamlar taqdiri bilan bog'liqligiga ishora ham bor. Orolni quritgan insoniyat, uni tiklash esa yana insonlar irodasiga bog'liq degan g'oya ilgari surilmoqda. Shoir Orol haqida yeti band she'r ham bitadi. She'r boshdan oxiriga qadar Orol taqdiriga achinish ruhida yozilgan.

Orol dengiz, Orol bechora dengiz,
Zilol dengiz, uvol-ovvora dengiz,
Baxti qora, manglayi qora dengiz,
Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon...

Qani qadim qirg'og'ida bog'lari,
Tuproq'i yuzida ajal dog'lari,
Somonday sarg'ayib qizg'aldoqlari,
Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon...

Tarjimada:

Aral teńiz, Aral biyashra teńiz,
Tiniq teńiz, kewli jara teńiz,
Baxtı qara, mańlayı qara teńiz,
Kóz aldımda, kóz aldımda berer jan...

Qáne eski jaǵasınıń baǵları,
Topираq betinde ájel daǵları
Sabınday sarǵayıp qızǵaldaqları,
Kóz aldımda, kóz aldımda berer jan...

Orol dengizi to'g'risida qoraqalpoq adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham adabiyotning turli janrlarida ko'plab asarlar yozilgan. Biroq hech bir shoir she'rlarida Orol taqdiriga bu xildagi achinish tuyg'ulari bilan yozilgan she'rlarni juda kam uchratganmiz. Doston o'tgan asrning 80-yillarining oxirida yozilgan. O'sha yillarda dengiz haqiqatan ham M. Yusuf ta'riflagandek ko'rinishda bo'lgan. Agar shoir hayot bo'lganida, Orol dengizi bo'yicha hozir olib borilayotgan ishlarni ko'rib, ko'kalamzorlashtirishlarga guvoh bo'lib, dengiz haqida boshqacha yozgan bo'lardi. Butun boshli she'r faqat tushkunlik kayfiyatida yozilgan emas. Shoir butunlay umidsiz ham emas, zamondoshlariga dalda beradi, qachonlardir bu kulfatning barham topishiga ishonadi va yozadi:

Ruhi joning cho'kmasin, ey, qadrdon,
Ko'ylagi qon, ko'kragi qon pahlavon.
Sensiz menga tor kulbadek bor jahon,
Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon.

Osmonlarga qo'li yetgan davronim,
Top bir chora, bo'lmagil bezabonim,
Peshonamga bitgan yolg'iz ummonim,
Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon.

Bunday hayotbaxsh, jozibador misralarni o'z ona tiliga o'girish uchun nafaqt tarjimonlik yoki shoirlik iste'dod, balki vatanparvarlik burch ham zarur. B.

Seytayev qoraqalpoq farzandi. U yurtini, Orol dardini yaxshi biladi, his qiladi. Tarjimon she'rni shu tuyg'ular bilan o'g'irgani uchun ham she'r juda tabiiy va koloritli chiqqan. Yuqoridagi ikki bandning tarjimasi bilan tanishsangiz o'zingiz ham shu xulosaga kelishingizga ishonamiz.

Ruxin janiń shokpesin, ey qadirdan,
Koylegi qan, kókreği qan paluan,
Sensiz mağan tar koriner keng jaxan,
Kóz aldımda, kóz aldımda berer jan...

Egerde qalmasın demeseń ızsız,
Bir sharasın tabıń, bolmań umitsiz.
Mańlayıma pitken jalğız teńizim,
Kóz aldımda, kóz aldımda berer jan!

M. Yusufning Orol dengizi bilan bog'liq bashorati bugun amalga oshmoqda. Garchi dengiz suvi qayta tiklanmagan bo'lsa-da, Orol halokati tufayli sodir bo'lgan ekologik halokatning oldi olinmoqda. Dengizning tortilgan joylariga saksovullar ekilib, ko'kalamzorlashtirilayapti. Xalqimizning azaliy orzusi amalga oshisha shubha yo'q. M. Yusufning "Ko'hna quduq" dostonidan o'rin olgan bu syujet qoraqalpoq hayotining muayyan bir qismini ifodalashda, o'quvchilarni tabiatga befarq bo'lmaslikka chorlovchi asar sifatida ham ahamiyatlidir.

Muxtasar qilib aytsak, M. Yusufning qator she'rlari va "Osmonning oxiri" va "Ko'hna quduq" dostonlarining qoraqalpoq tiliga tarjima qilingani nafaqat kitobxonlarga munosib sovg'a bo'ldi, ayni paytda, o'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalariga ham sezilarli hissa bo'lib qo'shildi. Istagimiz shundan iboratki, kelgusida shoirning boshqa she'rlari va "Qora quyosh" dostoni ham qoraqalpoq tiliga o'girilib nashr ettirilsa, qoraqalpoq tarjima adabiyoti boyishi bilan birga o'quvchilarning M. Yusuf ijodi bilan to'laroq tanishishga imkoniyat yaratilgan bo'lar

3.3 M.Yusuf she'riyatining yangi tarjimalari haqida ba'zi mulohazalar

M. Yusuf she'riyatiga qiziqish doimo davom etgan. Shoir lirikasi tarjimonlarining ham safi kengayib bordi. Shoirning she'rlar to'plami qoraqalpoq

tilida ilk bora nashr qilingandan qariyib o'n yildan keyin qoraqalpoq tarjimonlari shoir she'rlari tarjimasiga yana qo'l urdi va yangi tarjimalar turkumini yaratdi. Bu tarjimalar "Amudaryo" jurnalining 2014-yil 2-sonida e'lon qilindi. She'rlarni taniqli qoraqalpoq shoirlari K.Karimov, Sh. Ayapov, A. O'teniyazovalar qoraqalpoq tiliga o'girishdi. Tilga olingan tarjimonlar qoraqalpoq she'riyatida o'z o'rniga ega qalam sohiblaridir. K.Karimov shoirning "Qizg'aldog'im", "Onamga", "Xavotir" kabi she'rlarini, Sh. Ayapov esa "Anjijon", "Shukur deysan sen qachon", "Ko'hna quduq" dostonidan parchani, B. Seytaye M.Yusufning "Inson", "Vatan" nomli she'rlarini qoraqalpoq tiliga o'girishgan. Jurnalning ushbu sonidan A. O'teniyazovaning "Palaxmon" nomli tarjimasi ham o'rin olgan.

Jurnalda e'lon qilingan tarjimalar 2004-yilda B.Seytaye tomonidan o'girilgan ba'zi she'rlarning qayta tarjimalari deyish mumkin. Masalan, "Iqror", "Xavotir", "Palaxmon", "Vatan" kabi she'rlar yangi tarjimalardir. Biz tarjimalarni B.Seytaye tarjimasiga qiyoslab ko'rdik. Ba'zi she'rlar tarjimalari yaxshi chiqqan bo'lsa, ayrimlari, B.Seytaye tarjimasidan deyarli farq qilmaydi. Ba'zi misollarni solishtirib ko'raylik. "Xavotir" she'rini B.Seytaye quyidagicha tarjima qilgan edi:

Qorhaman kun erteń ólip ketsem,
Jatar bolsam qumǵa basıp júzlerim,
Keulimdi kóshkidey basadı bir ǵam –
Joqlaudi bilmaydi meniń qızlarım.

Tilden qalsam kózde qatıp jaslarım,
Keulimnen basqa bardı ne zarım?
Iyilip jerge tiygen kuni baslarım,
Joqlaudi bilmeydi meniń qızlarım.

K.Karimov tarjimasi:

Qorqaman, bir kuni men ólip ketsem,
Jatar qumǵa batıp meniń kózlerim.
Kóńlimdi kóshkindey basadı bir ǵam,

Jilaudi bilmeydi-au, meniñ qızlarım.

Tilden qalsam kózde qatıp jaslarım,

Keulimniñ ozge ne aqır, zarım?

Jerge iyilgen kun qara baslarım,

Jilaudi bilmeydi-au, meniñ qızlarım.

Tarjimalardan ko'rinib turibdiki, ular o'rtasida, garchi, misralar so'zma-so'z o'girilgan bo'lsada, K Karimov tarjimasida ancha silliq chiqqan. Asl nusxadagi shoirning afsus-nadomat ohangi yaxshi saqlangan. "Jilawdi bilmeydi-aw" degan satrga "aw" qo'shimchasining qo'shilgani shoirning iztirobini juda ta'sirli bera olgan. B.Seytaye "Joqlawdi bilmeydi" deb qoygani she'rdagi iztirob ohangini pasaytirib yuborgan. K.Karimov tarjimasidagi "Jatar qumg'a batip mening kozlerim" yoki "Jerge iyilgen kun qara baslarim" misralari yaxshi o'girilgan, badiiy saviyasi yaxshi.

K.Karimov iste'dodli shoir. Yaxshi tarjimon. O'zbek tilini yaxshi biladi. Ko'pgina o'zbek shoirlari she'rlarini qoraqalpoq tiliga o'giran. Bu tajriba unga M.Yusuf she'riyatidan namunalarni qoraqalpoqchalashtirishda ham qo'l kelgani shubhasizdir. "Qizg'aldog'im" she'ri M.Yusuf she'riyatining mukammal namunalaridan biri ekanligini oldingi sahifalarda aytgan edik. Bunday go'zal she'rni muvaffaqiyatli o'girish hamma tarjimonning qo'lidan kelavermaydi. K.Karimov she'rni juda yaxshi o'giran. She'ring qoraqalpoq variantini o'qigan kitobxon uning asl nusxasini o'qigandek zavq va yaxshi taassurot oladi. She'ring ikki bandini solishtirib ko'raylik.

Asl nusxada:

Qizg'aldog'im, qirdan bo'lak koshonang yo'q,

Kokil yoysang yerdan bo'lak toshonang yo'q,

O'ksib-o'ksib turganingda o'zim borib,

Peshonangdan o'pay desam, peshonang yo'q.

Qadring bilgan, darding bilgan, ayt kimning bor?..

Kelib ketar bahor senga bevafo yor,

Go'zalsanki senga bari gullar ag'yor,
"Oh" ursang, bir ohing tinglar ostonang yo'q...

Tarjimada:

Qizgaldagim qirdan ozge kashanañ joq,
Shashing jaysañ jerden ozge tas aynañ joq,
Óksip-óksip turganında ózim barıp,
Mañlayıñnan suyer edim – peshanañ joq.

Dártleriñdi tıñlaytuğın ayt, kimiñ bar,
Kelip-keter báhár misli biyopa yar,
Sen gozzalsañ barlıq güller sağan bağar,
Bastı ursañ, baratuğın astanañ joq...

Tarjimada biror jiddiy kamchilik borligi sezilmaydi. She'ring ifpda shakli ham, qogiya radiflarigacha aslidagidek saqlangan. "Lolaqizg'aldoq" obrazi orqali shoir ifodalamoqchi bo'lgan fikr tarjimada to'la aks etgan. Ba'zi so'zlar tarjimasida "Kokil yoysang", "Shashiñ jaysañ", "Gullar ag'yor", "Sağan bağar" kabilarda poetik ohang zaiflashgandek tuyuladi. Biroq bular tarjimaning umumiy saviyasini tushira olmaydi. K.Karimov qalamiga mansub "Onamga" she'ri ham juda mukammal chiqqan. Onalarni ulug'lovchi bu she'rda onaga hurmat, shu bilan birga, onaga xizmat qila olmagan farzandning iztiroblari shunday berilganki, o'qigan har bir o'quvchi ona oldida farzandlik burchini ado etishga intilsa kerak. She'rdagi mana shu g'oyani K.Karimov tarjimada to'la berishga erishgan. Bir bandini asliyatiga solishtirib ko'raylik:

Garchi bisotingda "bayram" so'zi yo'q,
Bilaman, kutasan sandal to'la cho'g',
Menda yurak deganlarning o'zi yo'q:
Men sovg'a bermagan qiz yo'q bu oqshom,
Senga na gul berdim,na shirin kalom,
Endi men ham senga o'g'ilmi onam?..

K.Karimov bu bandni quyidagicha o'g'irgan:

Tilińń ushında “bayram” sózi joq,
Saǵan jetkilikli oshaǵında ot,
Mende jurek degen neme ozi joq,
Men sauǵa bermegen qız joq bul aqsham,
Saǵan gil berip, ya aytpadım kalam,
Endi men ham seniń ulıńba anam?..

Tarjimada mazmun saqlangan. Lekin ba’zi misralar tarjimasida koloritdan chekinish holatlari kuzatiladi. Masalan, “sandal” so’zi o’choq ma’nosini bermaydi. O’choq hamma turkiy xalqlarda bor. Lekin “sandal” hamma xalqlarda yo’q. Andijon va boshqa ba’zi viloyatlarda sandaldan foydalanishadi. Tarjimon “sanal” ning o’zini qoldirib, izoh bersa bo’lardi. She’rning milliy o’ziga xosligi ham yo’qolmasdi. Qoraqalpoq tilida “kalom” so’zi bormikin? Tarjimon “onam” so’ziga mos tushsin uchun “kalom” so’zini qofiya tarzida ishlatgan ko’rinadi. U izohga muhtojdek ko’rinadi.

Sh.Ayapov tarjimalarini ham bir sidra nazardan o’tkazdik. Sh. Ayapov iste’dodli shoirlardan biri ekanligini bilamiz. O’zbek adabiyotini ham, o’zbek tilini ham yaxshi biladi. U Toshkent davlat universiteti (hozirgi O’zbekiston Milliy universiteti” ning jurnalistika fakultetini tamomlagan. Shoir ko’pgina o’zbek adabiyoti vakillari asarlarini qoraqalpoq tiliga o’giran. Uning tarjimasida H. Olimjon, Zulfiyaning bir qator she’rlari, E. Vohidov, A. Oripovning bir necha bir necha she’rlarini qoraqalpoq tiliga o’giran va ular alohida to’plam sifatida ham chop etilgan. Shoir A. Oripovning “Sohibqiron” dramatik dostonini ham qoraqalpoq tiliga tarjima qildi va alohida kitob shaklida nashr ettirdi. Bularning barchasi Sh. Ayapovning katta tarjimon ekanligidan darak beradi. Uning M.Yusuf she’riyatidan qilgan tarjimalari, tarjimonlik faoliyatida muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Shoirning “Andijon”, “Shukur deysan sen qachon?” she’rlarini mahorat bilan o’giran.

Tilga olingan she’rlar ham M.Yusuf lirikasida muhim o’ringa ega ijod namunalari. Andijon M.Yusuf tug’ilib voyaga yetgan Vatan. Shoir ozi tug’ilgan maskanga mehrini ,uning qayg’uli o’tmishi va bugunini, sho’rolar davrida Andijon boshiga tushgan kulfatlar birma-bir tilga olinadi. Bobur-u, Cho’lponlarni

sig' dirolmagan Andijon nega shunday taqdirga giriftor bo'lganidan iztirob chekadi va yozadi:

Nahoringda paxta, shomingda paxta,
Ayvoningda paxta, tomingda paxta.
Oqar og'u bo'lib qoningda paxta,
Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?

Qayinzor qa'ridan uzildi bir o'q,
Yurakda dog' qoldi, yurakda bir cho'g',
Cho'lponing bor edi, Cho'lpon endi yo'q,
Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?

She'r shu mazmunda davom etadi. Bu voqealar yaqin o'tmishning qora dog'lari edi. Sho'rolar tuzumining paxta yakka hokimligi siyosati zulmi va zug'umi ostida Andijon shu ahvolga tushib qolganidan shoir afsus-nadomat chekadi. She'r yaqin o'tmishdagi adolatsiz tuzum ustidan o'qilgan hukmdak yangraydi. Tarjimon Sh.Ayapov she'rdagi mana shu norozilik ohangini, shoirning qalb nidosini tarjimada ta'sirli va hayajonli chiqara olgan. Mana, qiyoslang:

Sáhárinde paxta, shamında paxta,
Ayuanında paxta, tamında paxta,
Záhár bolıp aǵar qanıńda paxta,
Nege jilamaysañ jurtım, Andijan?

Qayınlar arasında atıldı bir oq,
Júrekte daq qaldı, júrekte bir shoq,
Bar edi Sholpanıń, Sholpan endi joq,
Nege jilamaysañ, jurtım Andijan?

Tarjimada katta farq yo'q. Asl nusxadagi poetik ohang, ichki ziddiyat, kolliziya, shoirning mavjud vaziyatga munosabati asliyatda qanday bo'lsa tarjimada ham xuddi shunday aks-sado berib turadi. Tarjimon she'rga sayqal

bergan. Har bandining to'rtinchi misrasidagi "ahli Andijon" ning tarjimada "jurtim Andijan" deb berilgani o'rinli bo'lgan, o'zini oqlagan. Yuqorida aytganimizdek, M.Yusuf andijonlik. Tarjimonning shunga urg'u qilgani hech qanday e'tiroz tug'dirmaydi. Bir istak. Ba'zi so'zlarni tarjima qilmasdan aslicha qoldirgani, ularning qoraqalpoqcha nusxalaridan foydalanmagani bir muncha e'tiroz tug'diradi. Masalan, asl nusxadagi "shomingda" (kechqurun degan ma'noda) so'zi tarjimada xuddi shunday "shamingda" deb qo'llanilgan. Bu so'z qoraqalpoq tilida kecha ma'nosini berarmikin?

Sh.Ayapov "Ko'hna quduq" dostonini ham tarjima qilgan. Afsuski, u mazkur dostonning faqat qirq misra she'rini tarjima qilgan, xolos. Qolaversa, dostonning Orol taqdiri bilan bog'liq oxirgi qisminigina tarjima qilgan. Balki tarjimon to'g'ri yo'l tanlagandir. Dostonning faqat Qoraqalpog'istonga bog'liq bo'limini tarjima qilish bilan cheklanib o'quvchilarga shu haqda ma'lumot berishni lozim topgan ko'rinadi. Buning uchun tarjimonni ayblash fikridan yiroqmiz. Ushbu parchani o'qigan har bir qoraqalpoq o'quvchisi Orol taqdiriga achingan o'zbek shoirining qalb nidolari bilan tanishish imkoniga ega bo'ladi. Shu kichkina lavhaning o'ziyoq Orolning achchiq qismati to'g'risida iztirob tuyg'ularini uyg'ota oladi. Biz tadqiqotimizning oldingi qismlarida mazkur dostonning fazilatlari to'g'risida fikr bildirgan edik. Magistrlik dissertatsiyamizning ushbu bobida uning tarjima saviyasiga ham murojaat qilishni lozim topdik. Parchaning qoraqalpoqcha tarjimasiga biroz e'tiroz bildirish qiyin. Sh.Ayapov tarjimada asl nusxaga poetic jilo bergan, boshqacha aytganda, shoirlik tajribasidan foydalanib, nasrga xos xususiyatlarni tarjimada she'rga aylantirgandek taassurot qoldiradi. Dostonning Orolga bag'ishlangan muqaddimasi quyidagi tasvir bilan boshlanadi.

"Men ham Orolman. Buxoro ham – Orol. Men Orol haqida yangi qo'shiq qildim. Uni Buxoroga bag'ishlayman, dedi hofiz. Agar Orolni qo'shiq bilan tiriltirib bo'lsaydi. Agar Buxoroni qo'shiq bilan asrab qolish mumkin bo'lsaydi. Hofiz joni chiqquncha qo'shiq aytgan bo'lardi! Buxoroning ko'hna qudug'idan suv ichgan hofiz... Biz barimiz Orol va orolchalarmiz. Toki bir-birimizni asrashni bilmas ekanmiz, bitta-bitta quriyveramiz. Orolning joni

orolchalar qo'lida. Orolchalar esa odamlarning ko'ksida. Odamlarning ko'ksi esa bir-biridan suv ichadi...".

Matn nasrga o'xshab ketadi. Biroq uning mazmun-mohiyatida, ifoda shaklida sharqona talqin, tahlil, muallifning shoirlik talanti ufurib turganini ko'rish, his qilish mumkin. Sh.Ayapov matnning mana shu o'ziga xosligini tarjimada berishga harakat qilgan va bunga erishgan ham. Mana, solishtirib ko'ring:

Men de Aralman, Buxara da Aral,

Men Aral haqqında jańa qosıq dórettim.

Onı Buxaraǵa baǵıshlayman, dedi baqsı.

Eger Araldı qosıq menen tiriltiriu bolǵanda edi

Eger Buxaranı qosıq penen saqlap qalǵanda edi

Baqsı janın pida etip qosıq aytqan bolar edi!

Buxaraniń góne qudıǵınan suu ishken baqsı...

Biz bárimiz Aral hám kishi arallarmız.

Eger bir-birimizdi saqlamasaq, birme-bir keuip-qurıyberemiz

Araldın janı kishi arallardın qolında

Kishi arallar bolsa adamlardıń keulinde,

Adamlardıń keuli bolsa bir-birinen suu ishedı...

Ramziy ma'noga obrazli mushohadaga qurilgan "Ko'hna quduq" dostonining qoraqalpoq tiliga o'girilgan parchasi asl nusxaning to'la ma'nosini beradi. Biror misra yoki so'z tushirib ham qoldirilmagan, ortiqcha biror jumla ham qo'shilmagan ham. Bu tarjimonning mahorati, qolaversa, asl nusxaga hurmati ramzi. Parchaning qurilishi she'rga ham o'xshab ketadi. Tarjimon shoir bo'lgani bois, har bir jumлага imkon qadar she'riyat ruhini singdirishga intilgan. Parchani she'r o'qigandek o'qiysiz va ta'sirlanasiz.

"Ko'hna quduq"ning Orol mavzusiga bag'ishlangan qismida bir she'riy parcha bor. Biz bu parchani ham ishimizning dostonlar tahliliga bag'ishlangan faslida qisman tadqiq qilgandik. Mazkur she'rning tarjimasi ham bizni qiziqtiradi. Shu boisdan ham she'rning qoraqalpoq tiliga tarjimasiga ham munosabat bildirishni o'rinli hisobladik. She'r tarjimasi Sh.Ayapovga tegishli. She'r hammasi

bo'lib yetti band. Tarjimon uni to'la o'girgan, qisqartirgan emas. She'ning ikki bandini qiyoslab ko'raylik.

Orol dengiz, Orol bechora dengiz,
Zilol dengiz, uvvol-ovvora dengiz,
Baxti qora, manglayi qora dengiz,
Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon...

Osmonlarga qo'li yetgan davronim,
Top bir chora, bo'lmagil bezabonim.
Peshonamga bitgan yolg'iz ummonim,
Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon!

Tarjimasi:

Aral teńiz, Aral biyshara teńiz,
Moldir teńiz obal-auara teńiz,
Baxtı qara, manglayı qara teńiz,
Kóz aldımda, kóz aldımda berer jan.

Al-aspanǵa qolı jetken dáuranım,
Bir ilaj tap, soyle sirli zibanım,
Peshanama pitken jalǵız ummanım,
Kóz aldımda, kóz aldımda berer jan!

Tarjimonda shoirlik talant bo'lsa, nur ustiga nur bo'ladi. U she'rni shoirlik qalami bilan o'giradi, poetik jilo beradi, ruhini to'la saqlaydi. Sh.Ayapovning shoirlik iste'dodi M.Yusuf she'rlarini qoraqalpoq tiliga o'girishda qo'l kelganini alohida ta'kidlashni istaymiz. Garchi, u "Ko'hna quduq" dostonini qisqartirib o'girgan bo'lsa-da, shu tarjimaning o'ziyoq shoirning o'zbek she'riyatiga, qolaversa, M.Yusuf ijodiga bo'lgan hurmatining ifodasi bo'la oladi.

M.Yusufning yana bir tarjimoni haqida qisman fikr aytib o'tishni lozim ko'rayapmiz. Bu – Altingul Uteniyazova. U professional shoira yoki tarjimon bo'lmasa-da, she'riyatda ancha-muncha tajriba to'plagan, hatto to'plamlar ham chop ettirishga muvaffaq bo'lgan ijodkorlardan biri. Shoira M.Yusufning "Vatan"

va “Paloxmon” nomli she’rlarini qoraqalpoq tiliga o’girib, “Amudaryo” jurnalida e’lon qildi. Har ikki she’r ham M.Yusuf she’riyatining yaxshi namunalaridan sanaladi. Ayniqsa, “Palaxmon” she’rining tarjimasi bizga juda ma’qul bo’ldi. She’r barmoq usulida yozilgan, xalq qo’shiqlarini eslatadi. O’ta hayotiy mazmunga qyirilgan. Tarjimon she’rning ushbu xususiyatlarini hisobga olib, tarjimada berishga intilgan.

Osmon yerga engashib,
Bulut sog’di kun bo’yi.
Yolg’onchi yor to’yida,
Yomg’ir yog’di kun bo’yi.

Yomg’ir emas, bu halqob,
Kelinchak ko’z yoshlari,
Yig’lama yor qiz bola,
Palaxmonning toshidir.

Tarjimasi:

Aspan jerge enkeyip,
Bulutlar saudı kun boyı.
Jalganshi yar toyında,
Jamgır jaudı kun bo’yı.
Jamgır emes, bul usı,
Kelinshek ko’z jasidur,
Jilamağan qız bala-
Palakmannıñ tasıdur!

She’rning qolgan bandlari ham shu tarzda yaxshi tarjima qilingan. Misralar tarjimasida ko’zga tashlanib turadigan jiddiy kamchilikni kuzatmadik. Tarjimonga faqat bir e’tiroz bildirish mumkin. She’rning quydagi go’zal bir bandi tarjimada negadir tashlab ketilgan:

Taqdir,emas,ayirgan,
Yorning qalam qoshidir.
Qolaversa qiz bola

Palaxmonning toshidir.

Bu to'rtlik she'ring umumiy g'oyasiga nihoyatda mos va ta'sirli. Qiz taqdiri bilan bog'liq muhim bir fikr aytilayapti. Shunday ekan unu ortiqcha sanam tarjimada bermaslik to'g'ri emas degan fikrdamiz. Tarjima, umuman, ijobiy bahoga munosib.

A.Oteniyazova tarjimasida M.Yusufning "Vatan" nomli she'ri ham alohida jaranglaydi. Vatanga sadoqat, unga mehr qo'yish, ardoqlash, suyub yashash g'oyalari shu yerning ichki mazmunini tashkil etadi. Quyidagi satrlarni qoraqalpoq tilida o'qigan har bir kitobxonda Vatanga mehr, unga sadoqat tuyg'ilari uyg'onishiga ishonchimiz komil.

Eski talbesikten baslangan dunyam,
Sagan xesh bir giyne qilmay suyeme.
Bir kun qarindasim, bir kun anam,
Uatan kimligindi bilmey suyemen...

Uatan-juregimni oziñ panasi,
Bul dunya bir qiysiq jiydeñ shaqasi,
Kóзде jasim menen suugarish,tasip,
Kóksimde ósirgen guldey suyemen.

Mazkur tarjimaning asl nusxasini keltirib o'tirmadik. Asliyat ham tarjimaga nihoyatda hamohang ham. Mazmun-mohiyat ham, poetic ifodalar ham, hatto bo'g'in va qofiya o'lchovlarigacha asl nusxadagidek taassurot qoldiradi. Bu esa tarjimonning "Vatan" nomli she'ring ifoda shaklini ham, g'oya talqinini ham chuqur idrok etib, so'ng tarjimaga kirishganidan darak beradi.

Muxtasar qilib aytsak B.Seytayevedan keyin M.Yusuf she'rlari tarjimasiga qo'l urgan K.Karimov, Sh.Ayapov, A.Oteniyazovalar shoir she'riyati tarjimalariga ma'suliyat bilan yondoshganlarva kitobxonlarga ma'qul tarjima asarlarni yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Tilga olingan tarjimalarda ba'zi maydachuyda kamchiliklar o'tib ketgan bo'lsa-da, ular ijobiy bahoga munosib deb hisoblaymiz. Kelajakda bu tarjimonlarning safi kengayib borishini xohlagan bo'lardik.Chunki, M.Yusufdek isde'dodli she'riyatiga qiziqish hamma avlod

vakillari uchun ma'naviy ehtiyoj bo'lib qolaveradi. Shu bilan birga, bunday tarjimalar har ikki qardosh adabiyotlarni bir-birlariga yaqinlashtiradi, ular o'rtasidagi mavjud adabiy aloqalarni yanada yuksaltirishga xizmat etadi.

Xulosa

O'zbekistonda qo'lga kiritilgan mustaqillik ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalari qatorida adabiyot va san'atning rivojlanishiga ham keng imkoniyat yaratdi. Adabiyotning barcha janrlari teng darajada rivojlana boshladi. Ayniqsa, shoir va yozuvchilar uchun ijod erkinligi ta'minlandi. Xohlagan mavzuda, xohlagan adabiy shaklda qalam tebratish imloniyati yaratildi. Sho'rolar davrida ijod qilagan, o'sha davr siyosati va mafkurasi ta'sirida shakllangan shoirlar va yozuvchilar uchun bu ne'mat bebaho edi. E. Vohidov, A.Oripov, Sh. Xolmirzayev, O'. Hoshimov, H.Xudoyberdiyeva, R.Parfi, O. Hojiyeva, M.Yusuf va yana o'nlab so'z ustalarining ijodi mustaqillik yillarida yanada gullab yashnadi. Sho'rolar davrida yopiq bo'lib kelgan mavzular, ta'qiqlangan shaxslar haqida yozish, gapirish uchun muhit vujudga keldi. Bir so'z bilan aytganda, o'zbek adabiyoti mustaqillik g'oyalari ruhida rivojlana bordi.

Mustaqillik yillarida qalam tebratgan shoirlar juda ko'p va ularning ijodi ham rang-barang bo'lib, har biri istiqlol g'oyalari bilan yo'g'irilgan. Bu shoirlarning har biri to'g'risida tadqiqot olib borsa arziydi. Lekin bizning tadqiqotimizning hajmi bunga imkon bermaydi. Shu boisdan biz ishimizda ba'zi

shoirilar ijodi xususidagina, aniqrog'i ularning she'riyati to'g'risida so'z yuritish bilan cheklandik. Bunday shoirlardan biri, O'zbekiston xalq shoirlaridan biri M.Yusufdir. Garchi, shoir qisman sho'rolar davrida tug'ilib ijod qilgan bo'lsa-da, shoirning ijodi mustaqillik yillarida har tamonlama yuksaldi. U yangi-yangi asarlari bilan o'zbek adabiyotini, qolaversa o'zbek she'riyatini yangi bosqichga ko'tarishga katta hissa qo'shdi deb ayta olamiz.

Biz tadqiqotimizning kirish qismida mavzuning o'rganilish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hali mavzuning o'rganilmagan qirralari borligini kuzatdik va bu jarayon kelajakda ham o'rganilish zarurligini qayd etdik. Ishimizning birinchi bobida mustaqillik davri she'riyatiga umumiy tavsif berishga intildik. Bu davrda faol qalam tebratgan R.Parfi, M.Yusuf va boshqa shoirlar lirikasida badiiy mahorat oshganligini misollarda ko'rsatishga intildik. Har bir shoir lirikasida obraz va obrazlilik mezonlarining qo'llanilishi haqidagi fikrlarimizning xulosasi shu bo'ldiki, har bir shoir shunchaki she'r yozmagan, har bir misrasidagi fikrni obrazli ifodalashga intilgan. Chunki shoirning shoirliigi, mahorati uning fikrni obrazli tarzda ifodalay olishi bilan o'lchanadi. Bu davrda o'zbek she'riyati bu masalada ancha yutuqlarni qo'lga kiritganiga guvoh bo'ldik.

Dissertatsiyamizning ikkinchi bobida M.Yusuf lirikasi haqida so'z yuritib, shoirning obraz va obrazlilikdan foydalanish san'ati haqidagi qarashlarimizni bayon etdik. M.Yusuf lirikasining o'ziga xosligi shundaki, shoir she'riyati hech bir shoirga o'xshamaydi. U she'rlarida o'quvchi hayotda ko'p ham e'tibor beravermaydigan oddiy masalalarga she'r bag'ishlaydi va ulardan katta ma'nolar chiqara oladi. She'rlarining tili murakkab emas, oddiy. Lekin mazmuni teran, falsafiy. Shoirning shunday she'rlari borki, bir o'qishdayoq yod bo'lib qoladi. Bu shoir she'riyatining o'ta xalqchilligidan darak beradi. Fikr doirasi keng, tafakkur ufqi kuchli shoirgina shu xilda she'r yoza oladi. "Kapalaklar" yoki "Lolaqizg'aldoq" she'rlarini ularda shoir kuylagan poetik obrazlarni, obrazli fikrlarni eslab ko'ring. Ularning ma'no-mazmuni naqadar xalqona, g'oyasi chuqur va ibratli.

“Qora quyosh” va “Ko’hna quduq” dostonlari nainki, M.Yusuf ijodi, balki o’zbek dostonchiligida kashfiyot darajasidagi asar bo’lgani adabiyotshunoslar tomonidan ham e’tirof e’tildi. Qora quyosh ham ko’hna quduq ham shunchaki, asl ma’nosidagi so’zlar emas. Ular poetik obrazlar, ramziy ma’noga yo’g’irilgan iboralar. Chinakam iste’dodlarga shunday betakror obrazlar yarata oladi. Qatag’on yillarining dahshatlari, xalq boshiga kelgan fojialar stalincha siyosatning salbiy oqibatlari shu tarzda badiiy talqin etilgani shoirning betakror mahorati belgisidir. “Ko’hna quduq”da ham xalq taqdiri bilan bog’liq voqealar ramzlarda talqin etilgan. O’z xalqining tarixini chuqur bilgan, taqdiriga befarq bo’lmagan shoirgina unday asar yozishi va xalqi tarixining salnomasini yaratishi mumkin. M.Yusuf tom ma’nodagi xalqparvar, xalq orzu-armonlari bilan yashagan, unga chin dildan xizmat qilgan haqiqiy ma’nodagi xalq shoiri edi.

Badiiy tarjima adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning hamisha dolzarb masalalaridan biri bo’lib kelgan. Bu jarayon hech qachon ahamiyatini yo’qotmaydi. Biz ishimizning uchinchi bobini M.Yusuf she’rlarining qoraqalpoq tiliga tarjimalariga bag’ishlaganimizning bir sababi ham shunda. Mavzuning dolzarbligi va ahamiyatida. M.Yusuf she’rlarining qoraqalpoq o’quvchilariga ham taqdim etilgani o’zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalarining ko’rinishi. Shoir lirikasi bilan qoraqalpoq kitobxonlarini tanishtirishdagi xayrli tadbir. Shoirning she’rlari va dostonlari tarjimalari taniqli shoirlar B.Seytaye va Sh. Ayapovlar qalamiga tegishli. Har ikki shoir ham qoraqalpoq she’riyatining taniqli vakillari, qalami chiniqqan ijodkorlar. M.Yusuf she’rlarini tarjima qilish ishlari aynan shularga nasib etgani, bu shoirning omadi. Tarjimalarni asl nusxalariga solishtirib shunday xulosaga keldikki, tarjimalarda asl nusxa mazmuni, shoir uslubiga xos unsurlar yaxshi saqlangan. Tarjimonlar shoirlik talantini ishga solib, she’rlarni yaxshi o’g’irgan. Sh.Ayapovning tarjimalari bizga ko’proq ma’qul bo’ldi. “Qora quyosh”ning tarjimalari yaxshi taassurot qoldirdi. Asl nusxadagi shoir uslubiga doir barcha xususiyatlar, dostonning dramatik ruhi, poetik obrazlari tarjimada ham yaxshi chiqqan. Ishni yozish jarayonida ko’p marotaba ta’kidlab aytganimizdek,

M. Yusuf obrazli fikrlaydigan shoir. Oddiy so'zlar negiziga katta falsafiy ma'noni yashira oladigan ijodkor. Tarjimalarda bu muhim xususiyat saqlangan.

Tarjimaning yaxshi chiqishi, eng avvalo, tarjimonning asliyat tilini mukammal bilishiga bog'liq ekanligi ilmda tasdiqlangan. Sh,Ayapov va B.Seytayevlarning ham shoirlik talanti, ham o'zbek tilini ancha puxta bilishi tarjimalarning myvaffaqiyatini ta'minlagan omillardan biri edi degan xulosaga keldik. Tarjimalarda ba'zi kamchiliklar ham bor, albatta. Ba'zi she'rlarning qisqartirib tarjima qilingani, dostonlar tarjimasida ayrim epizodlarning tashlab ketilgani ijobiy fakr emas. M.Yusufdek iste'dodli shoirning ijod namunalari qisqartirib tarjima qilish tarafdori emasmiz. Kelgusida qoraqalpoq kitobxonlari M.Yusuf she'riyatidan namunalarnigina emas, shoir ijodini to'liqroq shaklda o'qish istagida ekanligini eslatsak, ortiqchalik qilmas. Umuman, ishimizning mazkur bobida tarjima va tarjimashunoslik ham qoraqalpoq ham o'zbek adabiyotshunosligi va tarjimashunosligi uchun muhim soha, uni kelajakda rivojlanishi zarurligini qayd etishni o'rinli hisobladik.

Magistrlik dissertatsiyamizning umumiy xulosasi shundan iboratki, mustaqillik yillarida o'zbek adabiyoti, aytaylik, she'riyati, mahorat bobida qator yutuqlarga erishdi. Shoirlarning har bir asarida obrazli fikrlar tarzi kuchayib bordi. O'zbek she'riyatida milliy ruh kuchaydi. Bu jarayonlarga O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf salmoqli hissa qo'shdi. Shoir asarlarining qoraqalpoq tiliga o'girilishi va kitob shaklida, matbuotda muntazam e'lon qilinib kelayotgani o'zbek adabiyotiga, jumladan, M.Yusuf lirikasiga bo'lgan hurmat razmzidir. Bu jarayon kelajakda ham xuddi shunday yo'nalishda davom etsa, ba'zi shoirlarning o'rganilmagan ijod qirralarining sirlari ochilib boradi. Bizning ushbu magistrlik dissertatsiyamiz bu sohaga kichkina bir hissa bo'lib qo'shilsa maqsadimizga erishgan bo'lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //Xalq so'zi gazetasi.– Toshkent, 2017 yil. 4- avgust.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent, O'zbekiston, 2009.

II. Ilmiy-nazariy va badiiy adabiyotlar

3. Ámudárya ” jurnali. Nukus-2014. 6-son.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, O'zbekiston . 2001.
5. Parfi.R. Sabr daraxti. – Toshkent., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti., 1986-yil.
6. Parfi. R. Xotirot. – Toshkent., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti., 1975-yil.
7. Parfi. R. Qaytish. – Toshkent., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti., 1981-yil.
8. Parfi.R . Tavba. – Toshkent. Yozuvchi, 2000

9. Parfi. R. Ona Turkiston – Toshkent , 2007
11. Parfi.R. Sakina. Saylanma. – Toshkent , Muharrir , 2013.
12. Rahimjonov .N. Davr va o'zbek lirikasi. – Toshkent , Fan, 1979.
13. Rahimjonov.N. Istiqlol va bugungi adabiyot. – Toshkent, O'qituvchi, 2012
14. Rahimjonov.N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent, Fan, 2007
15. Xolova.M. Rauf Parfi ijodida metafora. – Toshkent, Muharrir, 2013
16. Sharafiddinov O.Ijodni anglash baxti. – Toshkent, Sharq, 2014
17. Karimov N. Muhammad Yusuf va hozirgi zamon o'zbek she'riyati. // O'zbek tili va adabyoti jurnali. – Toshkent. 2004. 5-son
18. Yusuf M. Biz baxtli bo'lamiz. – Toshkent. Nihol,2008
19. Yusuf M. Xalq bo'l elim. – Toshkent, O'zbekiston, 2005
20. Yusuf M. Ulug'imsan Vatanim. – Toshkent. O'zbekiston, 2010
21. Yusuf M. Saylanma. – Toshkent, Sharq, 2017
22. Yusuf M. Biz baxitli bolamiz. B.Seytayev tarjimasi. Nusus-2004
23. She'riyat va abadiyat. (Alisher Nazar bilan suhbat). “Mohiyat” gazetasi., 2002, 17-may
24. Qosimov Y. Istiqlol she'riyati. // Qo'shjonov M, Meli Suvon, Abdulla Oripov. – Toshkent. Ma'aviyat, 2000.
25. Qurbon Sh.. Muhammad Yusuf saboqlari. –Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2012
26. Qurbon .Sh.Rauf Parfi saboqlari. – Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2014
27. Quramboyev K. Tarjima va tarjimon ma'suliyati. “Cho'lpon” – Toshkent, 2007
28. Qaraqalpaq tiliniñ tusindirme sózligi II tom. Qaraqalpaqstan.. Nukus-1984
29. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –Toshkent. Yangi asr avlodi, 2006.
30. O'zbek tilining izohli lug'ati. “ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti.I jild

III. Internet saytlari

31. <http://ziyo.net.uz>

32. [http:// www. kh.davron.uz](http://www.kh.davron.uz)

NDPI, O'zbek adabiyoti kafedrası o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs magistranti S.Nurmanovanning "Mustaqillik davri o'zbek lirikasida obraz va obrazlilik"(M.Yusuf she'riyatı misolida) nomli magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarning

Xulosasi

Hozirga kelib mustaqillik davri adabiyoti alohida bosqichga aylanib ulgurdi. Adabiyotning deyarli barcha janrlari mustaqillik g'oyalari bilan sug'orilgan asarlar majmuasiga ega bo'ldi deb aytish mumkin. Demak, bu davr adabiyotini o'rganish uchun ham adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Jumladan, o'zbek she'riyatini har xil yo'nalishlarda tadqiq etish jarayoni kun tartibida turgani ham sir emas. Shu mantiqqa asoslanib S.Nurmanova ushbu mavzuga qo'l urdi va imkoni darajasida uni yoritadi.

Magistrant mavzuga doir ko'p ilmiy adabiyotlarni o'qib chiqdi. Obraz va obrazlilikning mohiyati, M.Yusufning obraz yaratish, obrazli fikrlash tarzi yuzasidan izlanishlar olib bordi. Ishning birinchi – "Mustaqillik davri she'riyatida obraz va obrazlilik masalasi" bobida, umuman o'zbek she'riyatida obrazli fikrlash mezonlari, bu yo'nalishda qalam tebratgan taniqli shoirlar (qisman R.Parfi), ayniqsa, M.Yusuf va boshqa shoirlar lirikasi misolida mavzu ochib berildi. Adabiy-estetik qarashlarning har bir ijodkorning badiiy mahorat mezonı ekanligi misollar tahlilida ko'rsatildi. Tadqiqotning ikkinchi bobi, bevosita M.Yusuf lirikasi tahliliga bag'ishlandi. Shoir lirikasi mavzu rang-barangligi, muallifning obrazli fikrlash mahorati, she'riyatı va dostonlarida oddiylik negiziga singdirilgan falsafiy ma'no tahlil qilindi. Bobning uch faslida ham M.Yusufning shoir sigfatidagi salohiyati, o'zbek she'riyatiga qo'shgan hissasi, fikrimcha, me'yorida tahlil qilib berildi.

Tadqiqotning uchinchi bobi muhim bir masalaga bag'ishlandi. Mazkur bob va uning uch faslida M.Yusuf she'riyatining qoraqalpoq tiliga tarjimalari to'g'risida so'z yuritiladi. Bu mavzu hozirgacha mutlaqo o'rganilmagan, ochiq turgan mavzu edi. Ishda M.Yusuf she'rlari va dostonlarini qoraqalpoq tiliga o'g'irgan B.Seytayev va Sh. Ayapovlarning tarjimonlik mahorati tahlildan o'tkaziladi. Bobning birinchi faslida shoir she'rlarining tarjimalari, ikkinchi faslda "Qora quyosh" va "Ko'hna quduq" dostonlarining tarjimalari haqida fikr bildirilsa, uchinchi fasl, M.Yusuf she'rlarining yangi tarjimalari tahlilga tortiladi. Magistrant tarjimalarning yutuqlarini ko'rsatish bilan birga, ularda yo'l qo'yilgan xatolarni ham real ko'rsatadi. Fikrimcha, ishning shu bobi nainki M.Yusuf tarjimalari haqida yangi qarashlar, balki tarjimashunoslikka ham ma'lum darajada yangilik qo'shilgan tadqiqot deb hisoblayman. Va uni bemalol matbuotda e'lon qilib, mutaxassislar diqqatiga jalb qilsa arziydi.

Tadqiqotning xulosa qismi ham talab darajisida yozildi. Asosiy boblardagi fikrlar aynan takrorlanmagan holda yakunlandi. Adabiyotlar ro'yxati ham qoidaga binoan tuzildi. Bir so'z bilan aytganda, S.Nurmanovanning mazkur magistrlik dissertatsiyasi DAK talablari asosida yozildi. Va o'ylaymanki, aytilganlar mazkur tadqiqotni yakunlangan, himoyaga tayyor magistrlik dissertatsiyasi deb xulosa chiqarishga, himoyaga tavsiya qilishga ilmiy rahbar sifatida menga huquq beradi.

K.Quramboyev
filologiya fanlari doktori, professor



**NukusDPI O'zbek adabiyoti kafedrası magistranti S.Nurmanovaning
“Mustaqillik davri o'zbek lirikasida obraz va obrazlilik” (M.Yusuf she'riyati
misolida) mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga**

TAQRIZ

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotini o'rganish hech qachon dolzarblik xususiyatini yo'qotmaydi. Shu ma'noda mazkur dissertatsiyaning aynan mustaqillik davri adabiyotiga, yana she'riyatiga, yana muhimi M.Yusuf lirikasi tahliliga bag'ishlangani, menimecha, ishning katta fazilati. M.Yusuf o'zbek she'riyatining yorqin siymolaridan biri. Betakror shoir. U haqda qanchalik ko'p yozilsa, ijod sirlari ochilib boraveradi. M.Yusuf lirikasini obrazliliksiz tasavvur qilish amri mahol. Shoirning shoirliigi ham uning obrazli fikrlash tarzi bilan belgilanadi. Bu mezonni chuqur anglagan S.Nurmanova shoir lirikasiga xos bu xususiyatni ochib berishga erishgan deb hisoblayman.


Ishning birinchi “Mustaqillik davri she'riyatida obraz va obrazlilik” nomli bobida istiqlol davri she'riyatining yetakchi xususiyatlaridan biri obrazli tafakkurning kuchayganida, shoirlar badiiy mahoratining oshib borganida deb xulosa qiladi magistrant. Bu fikr bobning uch faslida ilmiy asoslanadi. She'riyatda lirik qahramon yaratish masalalari “She'riyatda obrazlilik” degan fasllarda qator o'zbek shoirlarining bu masaladagi shoirlik mahorati tahlil qilinadi. “Lirikada adabiy-estetik qarashlar” nomidagi uchinchi faslda shoirlarning adabiy-estetik qarashlari, ularning dunyoqarashi tafakkur salohiyati bilan bog'liq ekanligi asoslanadi.

Tadqiqotning navbatdagi ikkinchi bobi – “M.Yusuf lirikasida mustaqillik mavzusi va Vatan obrazi talqini” ga bag'ishlangan. Chindan ham M.Yusuf lirikasi mavzu jihatidan rang-barang. Xususan, mustaqillik mavzusi uning ijodida yetakchi o'rinda turadi. Xoh she'rlari bo'lsin, yoki dostonlarini, Vatan taqdiri, uning buguni va istiqboli ba'zan quvonch, ba'zida kuyunchaklik bilan qalamga olinadi. To'g'ri, Vatan haqida yozmagan shoir yo'q. Lekin, M.Yusuf she'riyatida Vatan boshqacha kuylanadi. “O'zbekiston”, “Xalq bo'l elim”, “Vatan”, “Onajon” va yana boshqa turkum she'rlarida, ‘Qora quyosh”, “Ko'hna quduq” dostonlarida Vatan obrazining o'ziga xos tahlilini ko'rdim. Tadqiqotning yana bir fazilati menga juda ma'qul bo'ldi. M.Yusuf she'riyatining boshqa o'zbek shoirlaridan ajralib turadigan bir fazilati bor. Bu shoir she'rlarida milliylikning kuchliligi. Oddiy misralarga katta ma'no yuklay olish tajribasi. S.Nurmanova shoirning bu mahorat qirralarini to'g'ri anglagan va yaxshi tahlil qilib bera olgan.

Menda tadqiqotning yaxshi taassurot qoldirgan yana bir bobi bor. Bu ishning uchinchi – “M.Yusuf she'riyati qoraqalpoq tilida” degan bobi. Hozirgacha, hech bir tadqiqotchi M.Yusuf she'rlarining qoraqalpoqcha tarjimalarini o'rganmagan edi. Dissertant bu mavzuga ilk martaba qo'l urdi va yaxshi, jajji tadqiqot yozdi. Mazkur bob ham uch faslga bo'lingan. Birinchi faslda she'rlari, ikkinchi faslda shoirning “Qora quyosh”, “Ko'hna quduq” dostonlari tarjimalari o'rganiladi. Uchinchi faslda shoir she'rlarining yangi tarjimalari tadqiq qilinadi. Tadqiqotchi M.Yusuf she'rlarini nisbatan yaxshi tarjima qilgan B.Seytayev,

Sh.Ayapovlarning bu sohadagi faoliyatiga ijobiy baho berish bilan birga, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ham xolis ko'rsatadi. S.Nurmanovning o'zbek va qoraqalpoq tillarini mukammal bilganligi bobning muvaffaqiyatli yozilishiga asos bo'lgan.

Mazkur tadqiqot yuzasidan ba'zi istaklarim ham bor. Bu M.Yusuf she'rlari tarjimalariga ikki bob ajratilsa yaxshi bo'lardi. Bir bobida she'rlari tarjimalari o'rganilsa, ikkinchi bobi dostonlari tarjimalariga bag'ishlanganida edi, ishning ahamiyati va qimmatini, yangiligi yanada oshgan bo'lardi. Tadqiqotning ba'zi sahifalarida uslubiy g'alizliklar uchraydi, imloviy xatolari ham yo'q emas. M.Yusuf lirikasida milliylik degan yo'nalish alohida bob yoki faslda o'rganilganda uzukka qosh qo'ndirgandek bo'lardi. Bu aytilganlar ishning kamchiligi emas, mening istaklarim, xolos. Tadqiqotchi kelgusida shu sohada biror ish yozgudek bo'lsa, ularni hisobga olar degan maqsadda aytdim. Dissertatsiya menda juda yaxshi taassurot qoldirdi va men uni yuqori bahoga munosib tadqiqot deb hisoblayman.


F.Sapayeva
NukusDPI O'zbek adabiyoti kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



Nukus davlat pedagogika instituti, o'zbek adabiyot kafedrasida magistranti S.Nurmanovning "Mustaqillik davri o'zbek lirikasida obraz va obrazlilik"(M.Yusuf she'riyati misolida) nomidagi magistrlik dissertatsiyasiga

Taqriz

Obraz va obrazlilik tushunchalari adabiyot nazariyasining muhim unsularidan biri. Har bir ijodkorning badiiy saviyasi obrazli fikrlash salohiyatiga qarab baxolanadi. Bu mahorat belgisi. Ayniqsa, she'riyat uchun suv bilan havodek zarur kategoriya bu. Dissertant mavzuni mustaqillik davri she'riyati, xususan, M.Yusuf lirikasi misolida ochib berishga bel bog'lagani juda o'rinli ekan. Ish kirish qismi, uch bob, har bir bob uch faslga ajratib o'rganilgani tadqiqotning xarakteriga mos keladi. Kirish qismida mavzuning o'rganilish tarixi haqida yetarli ma'lumot berilgan. Maqsad aytilgan. Har holda tadqiqotchi mavzu va uning metodologik asoslari bilan yaxshi tanishligi ko'rinib turibdi.

"Mustaqillik davri she'riyatida obraz va obrazlilik masalalari" nomli birinchi bobning birinchi faslida she'riyatda lirik qahramon yaratishning o'ziga xos qirralari, ikkinchi faslda obrazlilik she'riyatning bezagi, shoir mahoratining namoyishi ekanligi misollarda yaxshi ilmiy asoslangan. Shoirlar ijodidan keltirilgan misollar ham muallif fikrini tasdiqlay oladi. Uchinchi faslda lirik asarlarda adabiy-estetik qarashlar shoir dunyoqarashi bilan bog'liqligi, muhimi, shoirning badiiy mahorati bilan bog'liq ekanligi bir necha ijodkorlar misolida isbotlanadi. Adabiy-estetik qarashi zaif shoir yaxshi yoza olmasligi ham to'g'ri ko'rsatilgan. Bob haqidagi umumiy fikrim yaxshi, bobda jiddiy nuqsonlar ko'rmadim.

Tadqiqotchi ikkinchi bobni "M.Yusuf lirikasida mustaqillik mavzusi va Vatan obrazi talqini" deb nomlagan. Va uni ham uch faslga ajratgan. Darhaqiqat, M.Yusuf ijodini Vatan mavzusidan ayri tasavvur qilish mumkin emas. Muallif Vatanni shunday ta'riflaydiki, tandır-u beda poyalari, tuprog'i odamlarining

tantiligi va bag'ri kengligini hali hech bir shoir shu kungacha M.Yusufchalik mahorat bilan ta'riflagan emas. Shoir O'zbekistonni shu darajada sevadiki, "O'zbekiston jonim to'shay soyangga" deb yozadi she'rlaridan birida. Demoqchimanki, S.Nurmanova shoir ijodidagi bu yetakchi motivni to'g'ri topa olgan va imkon qadar yoritishga erishgan. Bobning birinchi faslida bu to'g'risida mufassal fikr yuritiladi. Ikkinchi faslda M.Yusufning she'riyatda obrazlilikdan foydalanish mahorati ochib beriladi. "Lolaqizg'aldoq", "Kapalaklar", "Do'ppi kiyamay qo'ydi odamlar" kabi mashhur she'rlari, "Qora quyosh", "Ko'hna quduq" nomli dostonlarida shoirning obrazli tafakkur ufqi kengligi va rang-barangligi misollarda ko'rsatiladi. "Qora quyosh" timsoli inson taqdiri bilan bog'lab tahlil qilingani o'rinli bo'lgan. Shoir lirikasida qo'llanilgan har bir poetik obraz va uning funksiyasini muallif to'g'ri sharhlagan. M.Yusuf she'riyati, bir qarashda, juda oddiy, misralar jo'ndek ko'rinadi. Lekin uning ma'nosi teran, falsafiy chuqur ekanligini birdek tushunib yetish oson emas. Bu shoirning tom ma'nodagi mahoratidan darak beradi. Bobda M.Yusuf ijodining yetakchi xususiyatlari yaxshi ochib berilgan va men ular haqida biror e'tirozli fikr aytolmayman.

Ishning oxirgi bobi M.Yusuf she'riyatining qoraqalpoq tiliga tarjimalarini o'rganishga bag'ishlangani menga juda ma'qul bo'ldi. Men ushbu bobni va uning fasllarini tadqiqotning ahamiyatli dolzarb mavzularidan biri deb hisoblayman. Ochig'i, men hozirgacha Muhammad Yusuf she'rlari va dostonlarining qoraqalpoq tiliga tarjimalari to'g'risida biror ish borligini bilmayman. Demak, bu tadqiqot shu xususiyati bilan ham tarjimashunoslik uchun yangi izlanish. M.Yusuf asarlarining qoraqalpoq tiliga o'girilganiga ancha yillar bo'ldi. Biroq shu kungacha bu tarjimalar to'g'risida biror taqriz ham yozilmaganini oqlab bo'lmaydi. S.Nurmanovaning bu ishga qo'l urgani va tarjimalarning saviyasi haqida ilmiy ish yozgani tahsinga loyiq degan fikrdaman. Mazkur bob ham uch fasldan iborat. Birinchi faslda M.Yusuf she'rlarini birinchi marta qoraqalpoq tiliga o'giran va kitob shaklida nashr ettirgan B.Seytayeov faoliyatiga to'xtaydi. Har bir she'rni asliyatiga solishtirib yutuqlari va kamchiliklarini haqqoniy ko'rsatadi. Ikkinchi faslda "Qora quyosh" va "Ko'hna quduq" dostonlarining tarjimalariga to'xtaydi.

Bu tarjimalar taniqli shoir Sh.Ayapov qalamiga mansub bo'lib, tadqiqotchi ularni ham tahlildan o'tkazadi. Sh.Ayapov talantli shoir. O'zbek tilini ham yaxshi biladi. Bu tajriba unga M.Yusuf she'rlarini qoraqalpoq tiliga o'girishda qo'l kelganini tadqiqotchi to'g'ri izohlagan. Yutuqlari aytilgan, kamchiliklari ham ko'rsatilgan. M.Yusuf she'rlari so'nggi yillarda ham qoraqalpoq tilida gazeta-jurnallarda bosildi. Ishning uchinchi faslida M.Yusuf she'rlarining yangi tarjimalari xususida fikrlar bildiriladi. Bu yerda ham tadqiqotchi she'rlarining tarjimalariga xolis baho bera olgan. Yana bir bor ta'kidlaymanki, bob menday yangilik sifatida yaxshi taassurot qoldirdi va uni matbuotda e'lon qilish kerak ekan, degan xulosaga keldim.

Ish yaxshi xulosalangan. Asosiy boblardagi fikrlar umumlashtirilib berilgan. Tadqiqotchining takliflari ham borligi menda ijobiy fikr tug'dirdi. Umuman olganda, tadqiqotchining o'z fikrlarini ixchamlashtirib, yakun tarzida bera olish uqubi shu qismda seziladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxatiga mavzuga tegishli adabiyotlar ro'yxati kiritilgan. Va tadqiqotchi ro'yxatdagi har bir adabiyot bilan tanishligi ishning ichki mazmunida ko'rinib turibdi. S.Nurmanova dissertatsiya mavzusi bo'yicha bir necha teziz, maqolalar e'lon qilgan. Ularning barchasi ishning mazmuniga to'la aloqador, mavzuni yoritadi.

Har qanday mukammal deb tan olingan ilmiy ishda ham o'ziga yarasha nuqsonlar bo'lishi tabiiy. Bu tadqiqot ham bundan istisno emas. Ishda obraz bilan obrazlilikka yetarli ta'rif berilmagandek. Bu tushunchalar bir-biridan qisman farq qiladi. Aytish kerak edi. Boblardagi ayrim fasllar bir-birini takrorlaydi, umumlashtiribroq bergan ma'qul edi. Bu nuqsonlar ishning umumiy bahosiga mutlaqo tasir ko'rsatmaydi. Tadqiqot eng yuqori bahoga loyiq deb hisoblayman.

H.Abdullayev
filologiya fanlari nomzodi, QDU dotsenti

